

**O‘ZBYEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BARNO SHAXNAZAROVA**

**XONANDALIK USLUBIYOTI**  
**ASOSLARI**

Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun

O‘quv qo‘llanma

5150500 – Dirijorlik (Akademik xor dirijyorligi)

TOSHKENT

2017

**B.Shaxnazarova. Xonandalik uslubiyoti asosolari.** O‘zbekiston davlat konservatoriyasi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. - T.: 2017. – **126** b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Respublika axborot va metodika markazi hamda O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

***Mas’ul muharrir:***

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori

**L.Djumaeva**

***Taqrizchilar:***

O‘zDK “Akademik xonandalik” kafedrasi dotsenti

**G.Muxamedova,**

O‘zbekiston xalq artisti, A.Navoiy nomidagi O‘zDAKT yetakchi yakka xonandasini

**R.Usmonov**

Muallif o‘z ishida xonandalik uslubiyoti assolarining tarixiy, ilmiy va amaliy ahamiyati, fan yuzasidan keyslar to‘plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar, nazorat topshiriqlar, xonandalik uslubiyoti asoslari fanida o‘qitishning optimal yo‘llarini zamonaviy texnologiyalar yordamida, ulardan to‘g‘ri foydalanish, fanni o‘zlashtirishda to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lish haqida tavsiyalar berib o‘tgan.

Mazkur o‘quv-qo‘llanma oliy musiqa ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, xor dirijyorligi ixtisosligining “Xonandalik uslubiyoti asoslari” va “Yakka xonandalik” fanlarini o‘rganish uchun tavsiya etiladi.

The author, in this work, takes into consideration historical, scientific and practical value of the Basis of Vokalic methodologies. Collection of cases on the subject, practical and control tasks, self-study instructions, the subject theme presentations and some recommendations about optimal ways of teaching with modern technologies, correct using them, having full knowledge in learning on the subject “Basis of Vokalic methodologies” are also given.

The present Handbook is aimed for use at Higher Education Institutions of Music. It is recommended for use in teaching such subjects as “Basis of Vokalic methodologies” and “Solizm” of the Chour conductor department. This qualification paper is devoted and designed to Higher education.

В данной работе автор даёт значение исторических, научных и практических занятий по предмету Основы вокальной методики. Для освоения рекомендуется оптимальные и правильные пути изучения предмета с помощью современной технологии.

Учебное пособие предназначено для изучения предмета “Основы вокальной методики” и “Сольное пение” студентам хорового дирижирования высшего музыкального учебного заведения.

## KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlaboq ta’lim tarbiya tizimini isloh qilish va takomillashtirish, ma’naviy va jismoniy sog‘lom avlodni shakllantirish, ta’lim tizimida uzviylik va uzlusizlikni ta’minlash, musiqa va san’at sohasidagi ta’lim, malaka, tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish muammolari davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

O‘zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimov O‘zbekiston Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali yig‘ilishda so‘zlagan nutqida jumladan shunday deydi: “Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan har xil zararli ta’sirlardan, “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi tahdid va hatarlardan asrash masalalari bir zum ham e’tiborimizdan chetda qolmasligi darkor”<sup>1</sup>. Bu masalani amalga oshirishda o‘smirlarning sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining o‘ziga xos yo‘lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo‘ydi va qator chora-tadbirlar ko‘rildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunni joriy etishni (1997y.), yangi o‘quv rejalar, dasturlari, darsliklarni joriy etishni, zamonaviy didaktik ta’minotni ishlab chiqishni; o‘quv yurtlarini attestatsiyadan o‘tkazishni va akkreditatsiyalashni; yangi tipdagи ta’lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi. O‘zbekiston Oliy maktabi tizimi 58 oliy o‘quv yurtini, shu jumladan 16 universitet va 42 institutni o‘z ichiga oladi, ularda 164 ming talaba ta’lim olmoqda. Iqtidorli bolalar va o‘quvchi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash buyicha davlat siyosati sobitqadamlik bilan olib borilmoqda. Iste’dodli yosh yigit va qizlarni izlab topishda, ularga ko‘maklashishi, ularning qobiliyati va iste’dodini o‘stirish bo‘yicha maxsus fondlar tashkil etildi; qobiliyatli yoshlarni chet ellardagi yetakchi o‘quv yurtlari va ilmiy markazlarda o‘qitish va stajirovkadan o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Fan va ta’lim sohasida xalqaro aloqalar kengayib bormoqda.

Darhaqiqat, sog‘lom avlodni tarbiyalash masalasi tarixiy xarakterga ega bo‘lib, insoniyatning paydo bo‘lishi bilan bu g‘oya bosqichma-bosqich rivojlanib kelmoqda.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo‘lidan va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // “Xalq so‘zi” gazetasi 2009 yil 6 dekabr soni.

Chunki “bolalarni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, poklik, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan”<sup>2</sup>.

O‘zbekistonning birinchi prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek, ma’naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an’ana va rasm-rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o‘zlikni anglash singari juda ko‘p omillarni o‘z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi.

Qadim zamonlarda qalb g‘izosi “jon ozig‘i” deb yuksak ta’riflangan musiqa san’ati azaldan millatu elatlarni ruhan birlashtiruvchi, dillarga huzur baxsh etguvchi ma’naviy omil sifatida ta’riflangan. Milliy musiqamiz tarixi ham uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Arxeologik qazilmalardan topilgan yodgorliklardagi qo‘lida cholg‘u bo‘lgan mashshoqlar tasvirlari musiqa san’atimizning qadimiyligini bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov musiqa va san’at sohasiga malakali o‘qituvchilarni jalg‘ etish ushbu bosqichda ta’lim sifati va samaradorligini ta’minalash chora-tadbirlardan biri ekanligiga e’tiborni qaratib quyidagilarni ta’kidlaydi: “... bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang‘ich sinflardagi yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo‘yilishini oddiy mantiqning o‘zi talab etadi”<sup>3</sup>. Har bir shaxsning mas’uliyat hissiga ega bo‘lishi u tomonidan zimmasidagi vazifani sidqidildan, mavjud talablarga muvofiq bajarilishini ta’minlaydi.

Ushbu modulda xor xonandalarining ijro mahoratini rivojlantirish, takomillashtirish uchun mo‘ljallangan vokal texnikalarini o‘zlashtirish to‘g‘risida ma’lumotlar, xonandalik ijrochiligiga xos uslublar, ijro vaqtidagi gavda holati, xonandaning hayot tarzi kabi darslar ketma-ketligi tizimi bo‘yicha berildi.

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008, 2008. –Б.55

<sup>3</sup> Karimov I. A. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1997. – 319 b.

**Fanning ob'ekti.** Xonandalik uslubiyoti asoslari fanida xormeysterlarning vokal texnik mahoratini shakllantirish jarayoni.

**Fanning predmeti.** Xonandalik uslubiyoti asoslari fanida xormeysterlarning vokal texnik mahoratini oshirish, xonandalik uslubiyoti mazmuni va o'quv-tarbiya faoliyati.

**Fanning maqsadi.** Xonandalik uslubiyoti asoslari fanini modul asosida tashkil qilish texnologiyasini ishlab chiqish.

#### **Fanning vazifalari:**

1. Dirijyorlik (xor dirijyorligi) ixtisosligida xonandalik maktabining tarixiy kelib chiqish jarayonini tahlil qilish.

2. Xonandalik uslubiyoti asosolarini mazmunini o'rganib chiqish.

3. Xonandalik uslubiyoti asosolarining mustaqil ta'lif mazmunini o'rganish vositasida, o'qitishning optimal yo'llarini ishlab chiqish.

4. Xonandalik uslubiyoti asoslari fanini o'zlashtirishning o'quv modul tizimini ishlab chiqish va uning nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berish.

#### **Fanning ilmiy yangiligi:**

Xor dirijyorligi yo'nalishida shu kunga qadar "Xonandalik uslubiyoti asoslari" fanidan elektron o'quv moduli ishlab chiqilmaganligi bois, ushbu o'quv-qo'llanmagaga ilmiy va ijodiy yondoshilganligi sababli yosh xonandalarimiz uchun ko'makchi vazifasini o'taydi.

1. Xonandalik uslubiyoti asoslari fanida xonandalik uslublarini innovatsion texnologiyalar yordamida o'rgatish jarayoni mazmunini yanada chuqurroq egallashga keng imkon yaratadi.

2. Xonandalik uslubiyoti asoslari fanida o'qitishning optimal yo'llarini zamonaviy texnologiyalar yordamida, ularidan to'g'ri foydalanish, fanni o'zlashtirishda to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi.

3. Xonandalik uslubiyoti asoslari fanini o'zlashtirishning ilk modul tizimi ishlab chiqilib, fanning nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

#### **Fanning nazariy va amaliy ahamiyati:**

- xonandalik maktabining tarixiy kelib chiqish jarayoni, vokal-xor malakalarining asosiy uslublari bilan tanishtirish, kuylash ko'nikmalarini xonandalik nazariyasi va uslubi bilimlari bilan to'ldirish, xor jamoalarining ijrochilik madaniyati professional darajada bo'lishini ta'minlash nazariy va amaliy jihatdan taxlil qilindi;

- xonandalik uslubiyoti asoslari fanida xonandalik uslublarini tahlil qilib chiqish orqali bo‘lajak xormeysterlarning vokal mahoratini oshirishdagi o‘rni belgilandi.
- xonandalik uslubiyoti asoslari fanining mustaqil ta’lim jarayonida xonandalarning ijro mahoratini oshirishning mazmuni, shakl, metodlari hamda pedagogik, psixologik xususiyatlar aniqlandi.
- xonandalik uslubiyoti asoslari fani bo‘yicha ta’lim, ta’lim muassasalarini mashg‘ulotlarini tashkil qilishda ma’ruzalar matni sifatida, shuningdek, ta’lim muassasalarida xonandalik bo‘yicha o‘quv, estetik, axloqiy-ma’naviy tarbiya ishlarini olib borish jarayonida hamda kontsert ijrochiligi ishlarni tashkil etishda tadqiqot materiallaridan keng foydalanish mumkin.

**Fanning tasnifi.** Mazkur o‘quv-qo‘llanma oliy ta’lim muassasalarini uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u kirish qismi, ikki bob, 9ta paragraf, o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun keyslar to‘plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar, xulosa, glossariy va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

## **1. Xonandalik uslubiyoti asoslari fani taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari**

O‘zbekistonda har bir sohada bo‘lgani kabi xor san’atiga berilayotgan e’tibor va shuning natijasida bu san’atning rivojlanib, takomillashib borayotgani soha vakillarini quvontirmoqda. Jahon andozalariga mos tushadigan yangi yo‘nalishdagi musiqa san’ati sezilarli darajada yuksaldi, ulg‘aydi va baquvvatlandi. Ayni paytda, ustozlarning yangi yosh avlodi shakllanib borayotganligini nazarda tutsak, O‘zbekistonda musiqa san’ati yangi sifat pog‘onasiga ko‘tarilayotganligini ta’kidlashimiz mumkin. O‘zbekiston milliy simfonik, kamer va xalq cholg‘ulari orkestr jamoalari birlashmasi xuzuridagi O‘zteleradio xor jamoasi hamda xor kapellasi, A.Navoiy nomidagi opera va balet teatri, hamda Muqimi nomidagi musiqali komediya teatri xor jamoalari, O‘zDK xuzuridagi MTS xori, talabalar xor jamoalari, Respublikadagi barcha o‘rta maxsus musiqiy ta’lim muassasalarini va BMSMLari xor jamoalari o‘z ijodiy faoliyatlarini yanada takomillashtirib, rivojlantirib kelmoqdalar. Jamoa bo‘lib ijro etilgan har qanday asar tinglovchini beixtiyor o‘ziga rom etibgina qolmay, balki musiqiy hayolot olamiga g‘arq bo‘lishga, asar qaxramonlari hayoti bilan yashashga, ularning ichki kechinmalari, his-hayajonlarini to‘g‘ri anglashga undaydi.

## **2. Xonandalik uslubiyoti asoslari fanini o‘qitishdagi innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalar**

O‘zbekistonda ta’lim dasturlarini amalga oshirish ma’lum bir kontseptsiyaga tayangan holda, ishlab chiqib tasdiqlangan - Davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlar asosida amalga oshirilayotganligi barcha sohalar kabi musiqiy ta’limda ham tizimga solinib, yanada takomillashtirilmoqda.

O‘zbekistonning ijodiy yo‘nalishidagi Oliy ta’lim muassasalarida xorijiy tajribalar Janice L. Chapman, OAM, FG. Singing and teaching singing. 2012, Elizabeth A.H. Green. The modern conductor. 1997, ularda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, ta’lim dasturlari, o‘quv jarayonlarining o‘ziga hos xususiyatlari, o‘quv adabiyotlari sinchkovlik bilan o‘rganilib, muntazam ravishda taqqoslash ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yurtimizda joriy etilgan barcha talablar zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan jamoa holda tashkil etilganligini e’tirof etishimiz lozim.

Xor dirijyorligi yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan bakalavr talabalarda “Xonandalik uslubiyoti asoslari” fanini o‘zlashtirish jarayonida mustaqil bilim olishga qiziqish va qobiliyatni pedagogik madaniyatni takomillashtirishga chorlovchi omil sifatida shakllantirish lozim. Muammoni hal etishning muhim omili sifatida xor dirijyorligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan bo‘lajak xormeyster o‘qituvchilardan pedagogik takomillashish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish va malakasini oshirish talab etiladi.

Mustaqil ta’limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o‘quv qo‘llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha fanlar boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishslash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o‘rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari yoki mavzularini chuqur o‘rganish;
- faol o‘qitish uslubidan foydalilanligan o‘quv mashg‘ulotlari (ishbilar o‘yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta’limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta’lim resurslaridan, ta’lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg‘armasidan, repetitoriylardan, o‘quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va kontsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

### **3. Xonandalik uslubiyoti asoslari fani dasturining qisqacha tavsifi**

O‘quv fani dasturida bir necha yo‘nalishlar belgilab berilgan, tegishli shakldagi bo‘limlardan iborat. Masalan Muqaddima qismi. Unda bakalavriat bosqichi uchun tuzilgan “Xonandalik uslubiyoti asoslari” fan dasturi - bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining Dirijyorlik (xor dirijyorligi) ixtisosligi bo‘yicha tahsil oladigan talabalar uchun mo‘ljallanganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Dastur Davlat ta’lim Standartlariga binoan san’at sohasida bakalavrular tayyorlash o‘quv rejalarini asosida tuzilgan va undan ishchi o‘quv dasturlari tuzilganligi ham ta’kidlangan.

Xonandalik uslubiyoti asoslari fanining maqsadi – xormeysterlik, xonandalik ixtisosligi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga xonandalik san’ati bilimlarini o‘zlashtirishi, olgan bilimlar orqali xor jamoalarining ijrochilik madaniyatini professional darajaga olib chiqish kerakligi aniq yozib qo‘yilgan. Fanni o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishi, talabalarni vokal-xor malakalarining asosiy uslublari bilan tanishtirish; kuylash ko‘nikmalarini xonandalik nazariyasi va uslubi bilimlari bilan to‘ldirishi ham ko‘rsatilgan. Shu bilan birga fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi, fanning san’at tizimidagi o‘rni, fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishligi ham ko‘rsatilgan.

Asosiy qismda vokal musiqasi uslubiyotining asosiy tamoyillari, kuylashning psixofiziologik jarayonlari, vokal san’atida ijrochilikning nazariy va amaliy asoslari, ovozning akustik tuzilishi, xonandalik formantalari, ovozni shakllantirish, ovoz apparati tuzilishi va unda ijro imkoniyatlari negizi, ovozlarning tavsifi va ovoz hajmi , rezonans, rezonatorlar

faoliyati, eshitishning kuylash jarayoniga ta'siri, tovush xujumi turlarining ahamiyati, ovozning turini aniqlash va tekislash, kuylashda fonetikaning birlamchi vazifasi nazariyasi va amaliy o'zlashtirish usullari yoritilgan.

# I BOB. XONANDALIK USLUBIYOTI ASOSLARI FANINI

## O'QITISHNING NAZARIY MASALALARI

### 1.1. Xonandalik san'atining O'zbekistonga kirib kelishi

O'zbek xalqi ming yillar mobaynida o'z xursandchilagini, dardu-alamini qo'shiq va kuy orqali izhor qilgan. Musiqa va qo'shiq kuylashga muhabbat O'zbekiston xalqi yuragida doimo mavjud bo'lgan. O'z ildizlari bilan qadim-qadim zamonlarga borib taqaladigan musiqa merosi monodiyaning barcha xilma-xil janrlari hamda boy tasviriy vositalari bilan bizning kunlarimizda ham yangramoqda. U o'zida xalq ijodi (ya'ni asl folklor) hamda kuy tuzilishi jihatdan rivojlangan ashula va cholg'u asarlar (jumladan tsiklli maqom va boshqa janrlar)ni o'z ichiga olgan og'zaki an'anadagi professional musiqani birlashtiradi. Qahramonlik hamda qahramonona-lirk mazmunidagi epik asarlar — dostonlar ham muhim o'rinnegallaydi. O'zbek cholg'u asboblari hamda musiqa amaliyoti, musiqa ijrochiligi uslublari bilan bog'liq bo'lgan cholg'u musiqa janrlari ham g'oyat rang-barangligi va boyligi bilan xarakterlanadi.

O'zbek xalqining musiqiy me'rosi yirik ikki yo'nalishdan: 1-xalq qo'shiqlari va cholg'u kuylari; 2-og'zaki professional merosidan iboratdir.

O'zbek musiqa folklori har qanday xalq ijodi kabi mehnatkashlarning fikri, orzu-umidlari, ularning turmushi va axloqi, milliy ozodlik uchun kurashining ifodasi sifatida gavdalanadi. O'zbek xalq musiqasining mavzu jihatdan serqirraligi, janrlarga boyligi va hayotda tutgan o'rning xilma-xilligi ham ana shu bilan bog'liqdir<sup>4</sup>.

O'zbek aytim va cholg'u musiqasi janrlari o'z bajaradigan vazifasi va kundalik hayotda tutgan o'rniغا muvofiq ikki guruhni tashkil etadi.

1. Muayyan vaziyat va tadbir, marosim bilan shartlangan aytim va cholg'u kuylar. Bular oilaviy-marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, allalar va boshqalar hamda har xil tantana, tomosha kabi marosimlarda ijro etiladigan cholg'u kuylardir.

2. Istalgan vaqtida va har qanday sharoitda, ya'ni hamma joyda ijro etiladigan aytim va cholg'u kuylar. Ularga o'zbek xalkining an'anaviy musiqali folklor janrlari— terma, qo'shiq, lapar, yalla va ashula, shuningdek, xuddi ularga o'xshash tipdag'i cholg'u pesalar kiradi.

<sup>4</sup> Solomonova T.O'zbek muzikasi tarixi.T, 1979. (27-33b.)

Har bir guruh o‘ziga xos xarakterli belgilarga ega. Masalan, ijro etilishi ma’lum vaqt yoki sharoitni taqozo qiladigan birinchi guruh aytim janrlarining mavzui o‘zlariga xos ma’lum marosim yoki boshqa vaziyat bilan bog‘liq bo‘lib, undan deyarli chetlashmasligi bilan ajralib turadi.

Mavsumiy marosim qo‘shiqlari o‘zbek xalqining uzoq tarixiy o‘tmishi davomida yuzaga kelgan turli urf-odatlar tarkibida shakllangan bo‘lib, ularda xalqning dunyoqarashi, falsafasi, hayotiy voqeliklarga munosabati, orzu-umidlari, ma’naviy dunyosi o‘ziga xos aks etadi. Misol sifatida kelinni kuyovning uyiga kuzatayotgan paytda odatda ijro etiladigan “Yor-yor”ni keltirish mumkin. Bosh mavzudagi ba’zan uchrab turadigan chetlashishlar lirik o‘ychanlik va umumlashtirilgan nasihatgo‘yliklar doirasida bo‘ladi.

“Yor-yor” shakl tuzilishi jihatdan ikki kisqli bo‘lib, har bir she’riy misrani o‘ziga qamrab olgan uchta tugallangan kuy tuzilmasidan iborat. Turlicha ohanglar asosida muayyan metr-ritmik tartibga solingan tor diapazonli kuylarning bunday tuzilishi “Yor-yor”larning aksar lokal variantlari (toshkentcha, andijoncha, chimkentcha va boshqalar) uchun ham xarakterlidir. Yuqorida eslatilganlardan tashqari, to‘y marosimining u yoki bu jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa namunalar (“Kelin salom”, “To‘y muborak” va shu kabilar) ham bor. Ularning har biri o‘zining tuzilish tartibi, ohang xarakteri, hissiy ta’sirchanligi bilan farq qiladi.

To‘y marosimdagilardan farqli o‘laroq marsiya va boshka yig‘i-yo‘qlovlar uchun badiha tarzidagi rivoj va metr-ritmik erkinlik xarakterlidir. Ular uch xil bo‘ladi:

a) m a r s i ya va y i g‘ i l a r - muayyan metr-ritmik tartibga solinmagan melodik tuzilmaning badiha yo‘li bilan rivojlanuvidan iborat. Barcha badihago‘yliklarda bo‘lganidek, bu yerda ma’lum hasratli ohanglardan foydalanilishi, rechitatsiyaning xarakterli usullari, ijrochining o‘z kayfiyati va imkoniyati belgilovchi omil bo‘ladi;

b) y i g‘ i – y o‘ q l o v l a r - garchi ma’lum bir metr-ritmik erkinlikka yo‘l qo‘yilsada, ohangi deyarli o‘zgartirilmay qaytariladigan band tuzumli kuya ega. Bularda badihago‘ylik faqat she’riy matndagina saqlanib, kuylar esa asosiy melodik tuzilmalarning intonatsion va ritmik o‘zgarishlariga asoslanadi;

v) m a r s i ya l a r - metr-ritmik jihatdan nisbatan tartibga tushganligi va o‘ziga xos ijro uslubi bilan xarakterlanadi. Ulardagi yakkaxonlikka unison xor (erkaklar yoki ayollar guruhi) jo‘r bo‘ladi. “Sadr” yoki “Jahrxonlik” deb ataluvchi bu marsiyalar marosim bilan bog‘liq bo‘lib, odatda, marhumning jasadini olib chiqish oldidan ijro etiladi.

Mehnat qo‘shiqlari ham o‘zbek musiqa folklorida alohida o‘ringa ega. Garchi ularda mehnat jarayonining xarakteri o‘z aksini topsada, lirik o‘ychanlikning nasriy bayoni katta ahamiyat kasb etadi. “Yozi”, “Yorpichoq”, “Mayda” kabi qo‘shiqlar g‘alla yanchish paytida dalada ijro etilgan. “Xo‘s-h-xo‘s”, “Chiray-chiray”, “Turay-turay” deb nomlanuvchi afsunli erkalash qo‘shiqlari qo‘y, echki va sigirlarni sog‘ayotganda aytilgan.

Afsunli qo‘shiqlar ma’lum bir marosimlarni bajo keltirish, masalan, yomg‘ir chaqirish, quyosh va oy tutilishini to‘xtatishni iltijo qilish hamda boshqalarda ham muhim o‘rin tutadi.

T e r m a – tor diapazoni, kichik shakli va o‘z kuyining ma’lum darajada rechitativligi bilan xarakterlanadi. Termalar matni mazmunan turli xil bo‘lib, ko‘pincha barmoq vaznidagi yetti-sakkiz bo‘g‘inli misralardan iborat. Baxshilar tomonidan ijro etilgan rivojlangan shakldagi termalarda esa deyarli ko‘p bo‘g‘inli misralarni ko‘ramiz.

Q o‘ sh i q – janr sifatida nisbatan kichik diapazonli kuydan iborat bo‘lib, barmoq vaznidagi adabiy matnning to‘rtligini qamrab oladi. Har bir she’riy misraga tugal melodik tuzilma moslashtirilgan bo‘ladi. Qo‘shiq juda keng tarqalgan janrlardan bo‘lib, o‘z mazmunining xilma-xilligi, ko‘p qirraligi bilan alohida ajralib turadi. Qo‘shiq kuylari uchun ritmnning ravonligi va aniqligi xarakterlidir.

L a p a r – raqsbop kuyga ega bo‘lganligi tufayli, ko‘pincha o‘yin-raqs bilan ijro etilib kelinadi. Uning matni ishqiy-lirik, didaktik, humoristik, hazil she’rlaridan tashkil topgan. Laparni, odatda, ikki qo‘shiqchi dialog shaklida ijro etadi.

Ya l l a – janrida unison xor alohida ahamiyatga ega. Odatda yalla ham raqs jo‘rligida ijro etilib, u ikki xil bo‘ladi. Birinchisining kuyi nisbatan tor diapazonli bo‘lib, she’rdagi har bir band va uning o‘yinlari yakkaxon yallachi, naqorat esa unison xor tomonidan aytiladi. Bunday yallachilarda har bir band naqorat bilan boshlanib naqorat bilan tugaydi.

Yallaning ikkinchi xili uchun, nisbatan keng diapazonli rivojlangan kuy xarakterlidir. Unda unison xorning yakkaxon ijrosi bilan almashinib turishini ko‘ramiz. Raqsni endi qo‘schiqchi-yallachining o‘zi emas, balki alohida raqqosa (yoki raqqos) ijo etadi.

A sh u l a – o‘z kuyining cho‘ziq hamda rivojlanganligi, diapazonining kengligi, ritmning sezilarli darajada sinkopaliligi bilan xarakterlanadi. Ashula asosini nafaqat barmoq vaznidagi, balki professional she’riyatga xos aruz vaznidagi she’rlar ham tashkil etadi. Falsafiy ma’noli fikrga ega bo‘lgan, shuningdek, sog‘inch, alam va hasratni ifodalovchi ishqiy-lirk mazmun ko‘proq ashula tematikasiga xosdir. Ashulaning rivojlangan na’munalari og‘zaki an’anadagi professional musiqaga kiradi. Bunga ashula janrining yana bir boshqa turi – katta ashula yoki patnis ashula ham tegishli.

K a t t a a sh u l a – diapazonining keng, kuyining deklamatsion xarakterdaligi, asosiy melodik tuzilmaning badiha tarzida rivojlantirilishi hamda ritm-o‘lchovining ma’lum me’yordagi tartibda bo‘lmaganligi bilan ifodalanadi. Bu janr Farg‘ona vodiysi uchun xarakterli bo‘lib, professional san’atkorlar ikki yoki undan ortiq hamnafas ashullachi-hofizlar tomonidan doira yoki boshqa cholg‘u asboblari jo‘rligisiz ma’lum an’anaviy tartibda ijro etiladi. Xoji Abdulaziz Rasulov, Domulla Xalim Ibodov, Levi Boboxonov kabi xalq xofizlarini yuqori salohiyatli ustalar deya tilga olish lozim.

Professional musiqa usta ijrochilar (kasbiy) san’ati maxsuli bo‘lib, asrlar davomida kuylanib, rivojlanib kelgan. Uning barcha murakkab na’munalari og‘zaki an’anada keng tarqalgan. Ozarbayjon, eron va arablarda bo‘lgani kabi og‘zaki an’anadagi o‘zbek professional musiqasida ham vokal-cholg‘u asarlar turkumli – maqomlar katta o‘rin egallaydi. Ularning mavzui, asosan, keng ma’nodagi lirika doirasi bilan chegaralanadi. Makomlar vokal bo‘limlarining matnini, odatda, Sharq she’riyatining mumtoz shoirlari—Hofiz, Bedil, Jomiy, keyinchalik esa Navoiy, Ogahiy, Muqimiyl va boshqalarning she’rlari tashkil qilgan. Shu bilan bir qatorda ularda xalq she’riyati namunalaridan ham foydalanilgan. Maqomlarning ashula yo‘llari cholg‘u asboblar jo‘rligida ijro etilib, unda tanbur va doira qo’llanilgan.

O‘zbek xalqi san’atining ming yillik an’analari (qiziqchilar teatri, folklor va og‘zaki professional musiqa va boy adabiy me’rosi) asosida Oktyabr inqilobi yillaridan

so‘ng O‘zbek musiqali teatri shakllana boshlaydi.<sup>5</sup> Toshkent, Farg‘ona, Qo‘qon, Andijon, Samarqand va Buxorolarda teatrlar faoliyat yurita boshladi. Teatr sahnalarida U.Gadjibekovning “Arshin mol olan”, “Layli va Majnun”, “Er va xotin” kabi musiqali spektakllar sahnalashtirildi.

Bu davrda G‘.Zafariyning “Erk bolalari”, “Bahor”, “Gunafsha”, asarlari syujet soddaligi, yorqin kayfiyati va ko‘p sonli musiqali nomerlari bilan xalq orasida keng tarqaldi. G‘.Zafariyning “Xalima” musiqali dramasi qahramonining o‘z baxti uchun kurashi va fojiaviy o‘limi omma yuragini jumbushga keltirdi. Spektaklning musiqasi o‘zbek xalq qo‘sishlari va og‘zaki professional musiqa asosida yaratildi. Xalima partiyasini - Dariya Xonim, Salomat Najmitdinova, Tursunoy Saidazimova, Xalima Nosirovalar ijro etganlar. Nig‘mat obrazini esa Abror Hidoyatov qoyil maqom etib yaratgan.

1926 y. M.Qori-Yoqubov tomonidan ilk “o‘zbek ko‘chma kontsert-etnografik truppa”si tashkil qilindi. Bunda T.Djalilov, A.Ismoilov, A.Umurzoqov, M.Qori-Yoqubov, D.Sultonov, T.Xonim kabi xonanda va sozandalar birlashdi. Ushbu etnografik ansambl asosida 1929 y. birinchi o‘zbek davlat musiqiy teatri vujudga keldi. Truppaga X.Raximova, R.Karimova, X.Nosirovalar taklif etildi.

1938 y. o‘zbek musiqali teatrda Ye.Brusilovskiy syujeti asosida “Yer-Targ‘in” qozoq operasi sahnalashtirildi. Asosiy qahramonlar, Yer-Targ‘in partiyasini – M.Qori-Yoqubov, K.Zokirov; Akjunus obrazini – X.Nosirova, N.Inog‘omova, F.Boruxovalar ijro etdilar.

Teatr jamoasi tomonidan musiqali dramalar, ozarbayjon va qozoq operalari sahnalashtirilishi o‘zbek milliy operasi yaratilishiga turtki bo‘ldi. 1939 y. M.Ashrafiy va S.Vasilenko tomonidan “Bo‘ron” (1916y. Turkistonda bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar asosida) birinchi o‘zbek operasi yaratildi. Xonandalar o‘z partiyallarini zo‘r ishtiyoy bilan o‘rgana boshladilar. Bo‘ron – K.Zokirov, Zebuniso – F.Boruxova, Jo‘ra – K.Siddiqov, Norgul – X.Nosirova, Rajab – X.Sog‘diev, general gubernator - M.Qori-Yoqubovlar qoyil-maqom qilib ijro etganlar.

---

<sup>5</sup> А.Протасова и авторский коллектив кафедры хорового дирижирования ТГК. История вокального и хорового исполнительства в Узбекистане.Т., 1991.История вокального и хорового исполнительства в Узбекистане.Т., 1991.(22-38 стр.)

Birinchi o‘zbek milliy operasi yaratilishi natijasida o‘zbek musiqali teatri - O‘zbek Davlat opera va balet tetri nomini oldi.

### **Rus xonandalik maktabi va xonandalik san’ati**

Xonandalik san’atining asoslarini o‘rganar ekanmiz jahon xonandalik maktablari tarixiga nazar tashlashimiz lozim. Respublikamizda akademik kuylash uslubi asosan rus xonandalik maktabi tajribasiga tayangandir. Rus akademik xonandaligi irmoqlari esa – rus xalq qo‘shiqlarining o‘ziga xos kuychanligi, kuyinig kengligi va ma’nosining boyligini o‘ziga jamlagan. O‘ziga xoslikni avaylagan xolda rus xonandaligi maktabi Italiya, Frantsiya va Germaniya xonandalik maktablarining boy udumlarini o‘zlashtirdi. Uning rivojiga o‘z hissasini qo‘sghanlardan G. Lomakinni aytib o‘tishimiz mumkin. Uning 1837 yilda yaratgan “Metoda peniya”-1 va “Metoda peniya”-2 asarlari, F.Yevseevning 1833 yilda chop etilgan “Shkola peniya” asari, A.Varlamovning “Polnaya shkola peniya” asarlaridagi ko‘rsatmalari zamonaviy kuylash printsiplari bilan xamohang va chambarchas bog‘liqdir.

Rus xonandaligi maktabining rivojiga M.Glinkaga qadar bastakorlardan D.Bortnyanskiy, A.Verstovskiy, A.Gurilyovlar katta hissa qo‘sghanlar. Lekin aynan Glinkaning ijodida milliylik yorqin ifodalananadi. Glinka rus klassik xonandaligi maktabining asoschisidir, bunga 1836 yil 27 noyabrda namoyish etilgan “Ivan Susanin” operasi premerasi sabab bo‘ldi deya olamiz. Rus bastakorlari milliy musiqanining an’alarini saqlagan holda unga yangi intonatsiyalar, usul va garmoniyalarni olib kirdilar, bu xonandalik musiqasining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi va xonandalar oldiga yangi vazifalar qo‘ydi. Rus xonandaligi maktabiga hissiy ifoda, uslublarining ko‘p qirraligi hosdir. Bu uslublarga ega inson barcha tillarda a’lo darajada kuylay olishi mumkin. Bunda nafasdan foydalanish, tanglay ish faoliyati, ya’ni rezonatordan foydalana bilish, matnga yuqori e’tibor, badiiy haqiqat yaratish katta ahamiyatga egadir.

Boshqa milliy xonandalik maktablaridan farqli, rus xonandalik maktabi italyan belkanto uslubini o‘zida mujassam etdi va rivojlantirdi. Bunga rus tilidagi (italyan va ukrain tillariga o‘xshash) unli xarflarning kuychanligi sabab bo‘ldi.

Akademik yo‘nalishda barcha millat vakillari kuylay oladilar, lekin doim talaffuz etishda o‘zgarish ro‘y beradi. Til ovoz naychalarining vibratsion ishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, ta’sir ko‘rsatibgina qolmay kekirdak faoliyatida ham katta o‘rin egallaydi.

Iste’dodli akademik yo‘nalishda kuylovchi xonanda uchun kuylash qancha oson bo‘lsa, milliy yo‘nalishda kuylash ham shuncha oson bo‘ladi.

O‘zbekistonda ham o‘tgan asrda bu ikki yo‘nalishda kuylagan xonandalar bo‘lgan, bular Xalq artistlari X.Nosirova, K.Zokirov, N.Xoshimov, S.Yarashev, A.Azimov, A.Ergashev, S.Qobulova va boshqalar.

Rus professional musiqasi aynan xonandalik san’atining rivojida katta o‘rin egalladi. M.Glinka: “musiqani xalq yaratadi, bastakorlar unga sayqal beradilar” - degan edi. Xaqiqatdan ham rus xalq qo‘shiqlari rus bastakorlarining ilhomlanish manbai bo‘lgan. Uning asosida birinchi rus opera asarlari yaratila boshlandi.

1735 yilda Rossiyaga F.Arayya boshchiligidagi italyan opera truppassi doimiy faoliyat uchun taklif etildi. Italyan operasi rus zaminida ildiz ota boshladi. Bu davrda Rossiyada opera yangilik bo‘lsa, Italiyada yarim asr maboynda ijro etilib kelmoqda edi.

Italiya xonandalik san’atining ulkan rivoji boshqa davlatlarning musiqiy va qo‘shiqchilik san’ati rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmas edi. G‘arb durdonasi – opera Rossiyaga kirib kelgan davrda juda qiyinchilik bilan saroy axli tomonidan qabul qilina boshladi. Jiddiy opera zerikarli tuyilar, mahorat bilan ijro etilayotgan kuylash odatiy emasdek edi. Ko‘proq xor musiqasiga ahamiyat berilar edi. Bu ajablanarli holat emas, chunki Italiya operasi paydo bo‘lish davrigacha xor san’ati yuqori rivoj topgandi, Yevropaning xech qaysi davlatida xor asarlari bu tariqa ko‘p bo‘lgan emas edi.

Bastakor F.Arayya Rossiyada 25 yil faoliyat ko‘rsatdi. Xotin podsho Yelizaveta Petrovna davrida operaga borishga odamlar majbur etilardi, xotin podsho Yekaterina davriga kelib operaga borish sevimli madaniy xordiqqa aylandi. Musiqa va kuylashni o‘rganish tarbiyaning muhim bo‘lagi sifatida qabul qilindi. Mahalliy xonanda va musiqachilarni tayyorlashni taqozo etuvchi shoh farmonlari chiqarildi, “Gluxov qo‘shiqchilik maktabi” tashkil etildi, bu yerda diniy qo‘shiqchilik san’ati o‘rganilishi bilan birgalikda, dunyoviy qo‘shiqchilik ham o‘rganila boshlandi.

Rus opera xonandalari o‘ziga xos tarzda edilar. Ammo lekin Italiya qo‘shiqchilik maktabining rus qo‘shiqchilariga ta’siri shubhasiz katta edi. Buning oqibatida XVIII

asrning 30-yillariga kelib Italian vokal musiqasi ijrochilari har yili Rossiyaga ijodiy safar qila boshladilar, rus xonandalari mukammal nafasga tayangan holda ovozda cho‘ziq ohang hosil qilish, koloratura ovozi va boshqa texnik usullar bilan ishlashni o‘rgandilar.

XVIII asr oxirida Rossiya xonandalik pedagogikasi tashkil topishiga, bastakor, dirijyor va xonandalik o‘qituvchisi Katerino Kovaso katta hissa qo‘sidi. U nafaqat ijrochilarni, balki mutaxasislik o‘qituvchilarini ham tarbiyaladi. Bular: Kovalyova, Shelexov, Turik va boshqalar. Rus xonandalik maktabining poydevori o‘rnatalishida rus xonandalarining artistik faoliyati ham o‘rin egallaydi.

O‘zining a’lo darajadagi qobiliyati, texnik jihatni va ma’noli ijrosi bilan tinglovchilarni lol qoldira olgan aktyorlar A.Mixaylova, N.Semyonova, A.Krutitskaya, Ya.Vorobyova, N.Zlov, N.Lavrov va boshqalarni sanab o‘tish mumkin.

Rus xonandalarining ijrochilik uslubining shakillanishiga ular tomonidan Frantsuz opera dasturini ijro etganliklari ham ta’sir ko‘rsatdi. XVIII asr o‘rtasida Rossiyaga frantsuz truppassi taklif etildi.

Xonandalik san’atining rivojida romanslar ham katta o‘rin egallaydi. G.Teplov va F.Dubyanskiy – birinchi rus romansi bastalaganlar. Rus bastakorlarining, kamer xonandalik yo‘nalishida ijod etgan yirik namoyondasi, O.Kozlovskiydir.

“Diletant” - deb atalgan bir guruh iste’dodli bastakorlarni ijodiy faolligi davri XIX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Titov shu guruh vakilidir. Rus romansi ustalari A.Alyab’ev, A.Varlamov, A.Gurilyov, P.Bulaxovlarni xalq qo‘shiqlari va shahar romanslari ta’sirida yozgan asarlari o‘zining soddaligi, yurakka yaqinligi bilan ijrochilarni o‘ziga rom eta olgan.

Shunday qilib xonandalik san’ati o‘zining 100 yillik, Italian operasi kirib kelgan davrdan, birinchi rus klassik operasi “Ivan Susanin” yaratilgunga qadar, davrida juda qiyin va o‘ta zarur bosqichni bosib o‘tdi. Rus xonandalari italyan va frantsuz maktablarining texnikasi, madaniyatini o‘rgangan holda milliy ijrochilikka sodiq qoldilar. Rus milliy qo‘shiqchilik maktabining asosiy xususiyatlarini tavsiflab beruvchi omillarni uning gullagan davri, XIX asr oxirlarida ijod qilgan xonandalar asarlarida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**


1. O‘zbek xalqi musiqiy me’rosining yirik ikki yo‘nalishlari haqida gapiring?
- 2.O‘zbek musiqali teatri shakllanishi va faoliyati haqida ma’lumot bering?
3. Ilk “o‘zbek ko‘chma kontsert-etnografik truppa”sida qaysi sozanda va xonandalar faoliyat olib bordi?
4. Ye.Brusilovskiyning “Yer-Targ‘in” qozoq operasi sahnalashtirilishi haqida gapiring?
5. Opera janrining vokal san’ati Rossiyaga qaysi chet el mamlakatidan kirib keldi?
6. Rus klassik vokal maktabi asoschisi kim?
7. Birinchi rus romanslari muallifi?

### **1.2. Ovoz apparati akustikasi va ovozni akustik tuzilishi**

Musiqa sadolari olamida inson ovoziga juda katta o‘rin berilgan. Ovoz birinchi musiqa sozidir, u orqali inson o‘z xissiyotlarini bildira boshladi. Inson ovoz apparati orqali chiqayotgan barcha tovushlar - o v o z deyiladi. Ovoz - so‘zlashuvchi, kuylovchi, unsiz bo‘ladi. Inson qichqirishi, entikishi, turli tovushlarni o‘xshatishi mumkin. Tovush qaysi turda bo‘lmisin inson ovozimi yoki musiqa sozi tovushimi uni o‘rganish mumkin. Tovush harakatini - akustika fani o‘rganadi: akustika fanida tovush tebranish natijasi deb tushiniladi.

Inson havo muhitida gapiradi va kuylaydi, shuning uchun ovoz tovushi - bu havo bo‘laklarini tebranishi uning to‘lqinsimon kuchayishi va pasayishidir. Musiqa sozlarida to‘lqinlar, ovoz hosil qiluvchi vazifasini biror bir jism: simlar, qisilgan lab bajaradi. Odam gapirayotganda uning ovozi havo yo‘nalishi bo‘ylab tashqariga chiqibgina qolmay, ichki a’zolarda, ham bosh va ko‘krakda tebranish hosil qilib tarqaladi.

Odam ovozining manbai bu - ovoz pardalaridir, ularning harakati natijasida, tebranish hosil bo‘ladi va ovoz yangraydi. Xiqildoqda hosil bo‘lgan to‘lqinlar har tomonga tarqaladi: xiqildoq atrofidagi terilarga, havo yo‘li bo‘yicha tepaga va pastga. Shunday qilib tovush qisman tashqariga chiqadi.




1-rasm. Hiqildoqda hosil bo‘lgan tovushning tarqalishi. Qora chiziqchalari bilan havo yo‘llarida tarqaladigan va tinglovchining qulog‘iga yetadigan to‘lqinlar ko‘rsatilgan.<sup>6</sup>

Aytib o‘tganimizdek to‘lqinlar kuchayib va kuchsizlanib (mustahkam muhitda) tarqaladi. Ichkaridan chiqayotgan havo to‘lqini, tashqi havoga qo‘silib ketmaydi, balki tebranib qolaveradi. Suvda suzayotgan qog‘ozni to‘lqin ko‘tarib, pastlatishi mumkin, lekin u to‘lqin bilan suzib ketmaydi, faqat tebranadi. Faqat kuchli shamolgina uni atrofga tarqatib yuborishi mumkin. Shunday qilib havo tovush to‘lqinlarining o‘tkazgichi vazifasini bajaradi va tovush uning yo‘nalishidan mustaqil harakat qiladi.

---

<sup>6</sup> O‘quv qo‘llanmada ko‘rsatilgan rasmlar L.Dmitrievning “Osnovy vokalnoy metodiki”, G.Muxamedovaning “Xonandalik uslubiyoti asoslari”, T., 2007, Janice L. Chapman, OAM, FG. Singing and teaching singing. 2012dan olingan



2-rasm. Suv ustida hosil bo‘ladigan to‘lqinlarning grafik chizmasi. Ikkita qo‘shti to‘lqin orasidagi uzunlik-to‘lqin uzunligi. To‘lqinning o‘rtacha holatiga nisbatan ko‘tarilib tushishi – uning amplitudasi.


Tovushlar - ma’lum bir balandlikga ega tonli tovushlar, aniqlanmaydigan tovushlar - shovqinlarga bo‘linadi. Barcha musiqiy tovushlar aniq balandlikka ega. Tonli tovushlar - tebranish vositasi uzliksiz ma’lum chastotada tebranganda, hosil bo‘ladi. Tebranishning bu ketma-ketligi quloqda tovush balandligi hissini uyg‘otadi.

Shovqinlar – ovoz apparatida, so‘zlashayotganda va kuylayotganda ham tonli, ham shovqinli tovushlar hosil bo‘ladi. Barcha unli harflar tonli xususiyatga ega, undosh harflar esa shovqinli. Fikrimizning dalili sifatida “S”, “P”, “Ch”, “Sh”, harflari talaffuziga quloq solsak. Musiqada tonli tovushlar hokim, kuylash unli harflar yordamida amalga oshiriladi. Barcha musiqiy tovushlar o‘z balandligi, kuchi va tembriga ega.

Kuylovchining ovozini musiqachilar, xonandalar, xonandalik o‘qituvchilari nafaqat uning balandligi, uning kuchi va tembriga qarab, balki uning turi, sifatlariga (taqqoslash yo‘li bilan) qarab ajratadilar. Masalan: taraluvchan ovoz, yoki uning teskarisi - to‘g‘ri ovoz, yassi yoki yoyilgan ovoz, yumshoq yoki qattiq, o‘tkir kesuvchan, yoki baxmal, ko‘krak yoki boshda, tarqoq yoki yig‘inchoq, kuchli yoki kuchsiz sifatlar. Biroq bu sifatlar akustika nuqtai nazaridan ovoz va tovushning vaqt

davomida o‘zgarishidir, ya’ni tebranish chastotasi, uning amplitudasi va tovushning tarkibi, uning spektori. Bularni biz balandlik kuchi va tembr sifatida qabul qilamiz.

**T o v u sh b a l a n d l i g i** - tebranish harakati chastotasini sub’ektiv his etishdir. Tovush balandligining u yoki bu sifati, ovoz apparatining faqat bir joyida - ya’ni tomoq yo‘lida - ovoz paylarida hosil bo‘ladi. Ovoz pardalarining tebranish davomida qancha torayishi va kengayishiga qarab, uning ostidan o‘tayotgan havo ovoz chastotasining tug‘ilishiga olib keladi, ya’ni ovoz balandligiga, boshqa hech qanday xarakat bu jarayonning o‘zgarishiga sabab bo‘la olmaydi.



3-rasm. Turli chastotadagi tovushlar bir hil tezlikda tarqatiladi. Baland tovushlar tezroq tebranadi, pastlari esa – sekinroq.

**A m p l i t u d a** - tovush tebranishining tezligi, ya’ni tovush balandligi - ovoz pardalarining tortilish (taranglanish) darajasi bilan bog‘liq: tebranish qancha tez bo‘lsa tovush shuncha yuqori pardalarga ko‘tariladi.

**T o v u sh k u ch i** - bu biz tomonimizdan tebranish harakatini sub’ektiv hosil qilishimiz va tebranishning amplitudasidir.

Amplituda tebranish xarakatining kuchi bo‘lib, uning chastotasiga bog‘liq emas. Agar fortepiano torlaridan birini sekin bolg‘acha bilan ursak, keyin qattiqroq ursak, tovush balandligi o‘zgarmaydi, faqat tebranish kuchi, ya’ni silkinish kuchi o‘zgaradi, bu

vaqt sim (tor) silkinib atrofdagi havoni siqadi. Tebranish harakati kuchi ko‘proq bo‘lsa, biz uchun tovush sub’ektiv bo‘ladi.

Xonandaning ovoz kuchi va balandligi - pastki ovoz paylari, bronx va traxeyaning kengayishiga bog‘liq. Ovoz pardasidan qancha kuchli bosim o‘tsa tebranish amplitudasi shuncha kuchli bo‘ladi, u qulq pardasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi va qattiq eshitiladi.

Xonanda ovozining murakkab sifatlaridan biri - o v o z t e m b r i d i r. Musiqa tonlari - turli chastota va kuchdagi tebranishlardan iborat. Murakkab tovushda asosiysi - tondir. Tovush balandligi - juda mayda tonlar, yoki obertonlarni aniqlashda yordam beradi, ularning kuchi o‘ziga xos tembr hosil qiladi.


Avval aytib o‘tilgandek tovush tebranish manbaidir, musiqiy asboblar, biror bir jismlar “manba” bo‘lishi mumkin: simlar, tilchalar, lablar. Tovush hosil qiluvchi jismlar tebranayotganda, ular faqatgina bo‘yiga emas, balki barcha tomonlarga tebranishi mumkin. O‘z chastotasiga ega bo‘lgan tebranayotgan jism havoni har tomonga itarib siqadi va shu bilan obertonlar hosil bo‘ladi, masalan: tebranayotgan tor butun uzunligi bo‘ylab harakatlanadi.

Akustikada r e z o n a t o r deb biror bir yopiq muhit joylashgan havo oqimiga aytiladi va u chiqib ketadigan joyga ega bo‘lishi kerak. Rezonator deb nomlanishining sababi, agar bu havoli muhitda tebranish hosil qilsak, rezonator aniq bir balandlikka ega tovush chiqarib beradi. Rezonatorda hosil bo‘lgan tovush balandligi - havoning hajmi, rezonator shakli, havo chiqib ketadigan joyning katta - kichikligiga bog‘liqdir. Bunday tonning shaxsiy toni, rezonator toni deb ataladi. Akustika nuqtai nazardan, stakan, shishirilgan shar, trubka, shisha idish rezonator bo‘lishi mumkin. Rezonator qanchalik kichik o‘lchamda bo‘lsa, shu bilan birga havoning hajmi ham kam bo‘lsa, rezonatorda hosil bo‘lgan ton shuncha baland bo‘ladi va bu uning shaxsiy toni deb ataladi. Havo chiqaradigan teshik qancha kichik bo‘lsa uning shaxsiy toni shuncha past bo‘ladi. Buning zamirida turg‘un to‘lqin hosil bo‘ladi, qaysiki - rezonator ichida uning tubidan, to chekasigacha va orqaga qarab harakatlanadi. Havoda to‘lqinning tarqalish tezligi doimiy ekan, shu vaqtning o‘zida kam havoda ham to‘lqin behisob tebranish hosil qila oladi, ya’ni shaxsiy toni yuqori chastotaga ega bo‘ladi. Aksincha havo ko‘p bo‘lsa - kam, past chastotali bo‘ladi. Demak rezonatorning shaxsiy toni kam hajmli bo‘lsa -

yuqori kichik hajmlisi - pastdir. Masalan organni olsak: past ovozlar bir necha metrli uzun trubalarda hosil bo'lsa, yuqori tovushlar 1-2 smlik trubalarda hosil bo'ladi.

**R e z o n a n s** tushunchasi rezonatorda xuddi trubalardagi kabi hosil bo'ladi. Simlardagi rezonans kabi rezonator kuch qo'shmaydi, faqat akkumulyatsiya qiladi. Rezonatorlarda tashqi muhitga chiqgachgina tovush tinglovchiga qattiqroq eshitiladi.

Inson ovoz apparatida juda ko'p joy va trubkalar borki, ularda rezonans rivojlanishi mumkin. Kekirdak va bronx, tanglay, yutqin, og'iz bo'shlig'i, burun va ular atrofidagi kichik-kichik qo'shimcha teshikchalar juda bir mustahkam devorlarga egaki ularda rezonans hosil bo'lishi mumkin.



4-rasm. Tarang torning tebranishi. Yaxlit tebranishi A-V asosiy tonni hosil qiladi: A-s, s-V – asosiy tondan oktava hosil bo'lishi (tebranishi 2 barobar tez), A-a, a-v, v-V – asosiy tondan kvinta hosil bo'lishi (tebranish 3 barobar tez).

Ovoz apparati akustika nuqtai nazaridan o'ziga xos rupordir, qaysiki tebranish manbaalari (ovozi yo'li) ustida rezonatorlovchi joylar (tanglay yutqin, og'iz) joylashgan bo'lsa, bular ovozning (og'iz teshigi orqali) tashqariga chiqishiga yo'l ochib beradi.

Rezonatorlovchi joylarda ovozning xarakterli kuchayishini - formantani kuzatamiz, bu tovushning qanday bo‘lishini belgilaydi.

Ovoz to‘g‘ri qo‘yilgan xoldagina past yoki baland formantani doim kuzatishimiz mumkin, shu bilan bir qatorda doimiy tebranishning ma’lum chastotasini kuzatamizki, unga, kuylovchi ovozining tembri qanday bo‘lishi bog‘liq.

Kuylovchining tovushi unlilar formantasiga ham bog‘liq bo‘lib, ular bir biridan farq qiladi.

**F o r m a n t a** (lot. formans – hosil qiluvchi) – akustikada ma’lum bir chastotadagi qo‘sishimcha tovushlar, ovoz yoki cholg‘uning o‘ziga xos tembri, shu tufayli nutq tovushlari ham bir biridan farqlanadi. Asosan yuqori rezonatorlar ishlashi natijasada yuzaga keladi. Yaxshi (qo‘yilgan) ovozda ikkita maxsus: yuqori (3000 gertsga yaqin) - ovozga jarangdorlik, yengillikni yaratuvchi va past (500 gertsga yaqin) – teranlik, niqobdorlik hosil etuvchi formantalar mavjud. Har qaysi unli tovushlar o‘zining obertonlari tarkibida formanatalar deb ataluvchi ikkita qisman kuchaytirilgan chastota sohasini mujassam etadi. Har bir unli tovush xuddi shunday ikkita bosh sohaning kuchaytirilishi bilan ifodalanadi.

Bizning eshitish qobiliyatimiz yaxshi eshitish doirasiga ega bo‘lgani uchun tovushda yuqori xonandalik formantaning bo‘lishi nihoyatda zarur bo‘lib, yuqori xonandalik formanta sohasi hisoblangan 2500-3000 gts li chastotani eshitishi mumkin. Bu sohaga quloqning tashqi eshitish teshigiga aks-sado beradi va shu bilan birga u bu tebranishlarni quloq pardasiga uzatadi.

### **Kuylash pedagogikasi va uslubiyoti haqida**

Har doim ijrolar davomida hissiy bezaklar bilan to‘ldirilgan harakatlarni ko‘rishimiz mumkin.

Tovushlar, obrazlar ijrochiga ijro usuli haqida yo‘l ko‘rsatsa, texnik tomoni ularni ijroga tadbiq etishga yordam beradi, shuning bilan kuylash texnikasi musiqiy ijroning qanday bo‘lishini aniqlab beradi. Musiqani his qila olish tuyg‘usi, kuylash texnikasi bilan bir vaqtida rivojlanishi kerak. Texnika musiqiy material asosida qurilmog‘i kerak, qaysiki shogirdlarga tushunarli bo‘lishi lozim. O‘qituvchining vazifasi: o‘quvchida musiqani his etishni va artistik mahoratini rivojlantirish, musiqiy tilni tushunishga

o‘rgatish, ularning ijodiy xayolini uyg‘otish. Musiqiy his, musiqiy fikrlash, ijodiy xayolni rivojlantirishda o‘quvchi uchun kerakli uslubni tanlash lozim. O‘quvchining ijrochilik fikrini ko‘rsata olishi uchun, o‘qituvchi kerakli yo‘lni topishi kerak bo‘ladi.

Vokal o‘qituvchisi tarbiyasiga ko‘pincha bolalikdan musiqiy muhitda bo‘lmagan, shuning uchun musiqiy hissi rivojlanmagan o‘quvchilar keladi.

Musiqiy tuyg‘uni barcha yoshlarda rivojlantirish mumkin. Iste’dodni ma’lum sharoitda o‘stirish mumkin. Inson nerv sistemasi atrof muhit talabiga ko‘ra doimiy o‘sish va o‘zgaruvchanlikda. Musiqani his eta olishning, ya’ni musiqiy tilni tushinishning, uning ma’nosini idrok etishning - agar bu vazifaga to‘g‘ri yondoshilsa, barcha insonlar uchun u yoki bu darajada imkonibor. Tovush balandligini his etish, ritm, ladlar hissi, garmonik eshitish va boshqa musiqiy elementlarni his etishni rivojlantirish mumkin.

Jonli ijro vaqtida musiqiy til orqali borliqni, uning ma’nosini tushinishni o‘rganish mumkin.

O‘qituvchining asosiy vazifalaridan, o‘quvchini musiqaning ma’nosini ochishga o‘rgatish, shuningek bu ishni musiqiy texnikani o‘zlashtirish bilan bir vaqtda olib borishi shart.

Musiqa inson uchun istiroblar, hissiyotlar va obrazlar haqida so‘zlovchi til bo‘la olishi kerak. Bu o‘rinda dasturni to‘g‘ri tanlash lozim. Dasturni tanlashda avval oson tushiniladigan, keyinroq, sekin asta qiyinroq asarlarni tanlash maqsadga muvofiq.

Xonandani tarbiyalashda ikki vazifani hal etmoq lozim, bular: ijro apparatini qurmoq, ya’ni professional kuylovchi ovozni xonandaning “sozini” va unda ijro etmoq, bular bir biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Aynan shu narsa xonandaning musiqiy tarbiyasida muhim va mushkul tomondirki, musiqiy sozlarda ijro etuvchilarni tarbiyalashdan tubdan farq qiladi. Shuning uchun bu bosqichda o‘qituvchi xonandaning sozini yaratadi, - ya’ni “ovozi tarbiyalash” vazifasini bajaradi.

Tarbiyaning boshida ovozni to‘g‘ri hosil qilishning elementar bilimlari uchun ishlataladigan mashqlar beriladi va hatto shu so‘zsiz mashqlarni ham musiqiy his bilan ijro etishga ahamiyat beriladi. Har bir hatto eng oddiy bilimlar ham elementar ijrochilik vazifalari bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. Musiqiy mashqlarni oddiy notalar ketma-ketligi

shaklida kuylash mumkin, yoki aksincha rivojlangan musiqiy jumla sifatida kuylash ham mumkin.

Vokalizlarni ijro etayotganda ham, asar ijrosi vaqtida ham, musiqiy obraz birinchi o‘rinda bo‘lmog‘i lozim. Shunday qilib xonandaning vokal texnikasi birinchi mashqlardan to mukammal ijroga qadar musiqiy tasavvur bilan bog‘liqlikda bo‘lishi kerak.

Quyidagi uch bosqich musiqiy bilimni o‘zlashtirishda eng muhimlaridandir: ovoz apparati ustida ishslashning to‘g‘ri yo‘lini tanlash; shu yo‘lni mustahkamlash jarayonini aniqlash; rivojlantirib, saqlash. Bu uch bosqichni doim yodda tutish o‘qituvchidan talab etiladi, kuylash bilimining ko‘pqirrali tomonlarini o‘zlashtirish, asarga ijodkorona yondoshishga va ijro erkinligiga erishishga yordam beradi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Ilk musiqiy asbob haqida izoh bering?
2. Kuylovchi ovoz assosini nima tashkil etadi?
3. Akustikada rezonator tushunchasi?
4. Rezonans tushunchasiga ta’rif bering?
5. Kuylash texnikasini rivojlantirish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?
6. Musiqiy hissiyot honandalikda qanday ahamiyatga ega?

### **1.3. Individual-psixologik farqning xonandalik pedagogikasidagi o‘rni**

Psixologiya - insonning sub’ektiv dunyosi haqidagi fan.

Har bir o‘quvchi psixologik jihatdan bir shaxsdir, shuning uchun har birining vokal san’atidagi muvaffaqiyatlari turlidir. O‘qituvchi psixolog bo‘lishi kerak, o‘quvchida xonandalarga xos hislatlarni tarbiyalashi lozim. Har bir insonga o‘ ichki dunyosini idrok etish, emotSIONAL va iroda shakllariga ajratish odatdir.

I d r o k his etishdan boshlanadi, - psixologik jarayonning eng oddiysidan, bizning ongimizda voqeа-hodisa va narsalarning hislatlarini yoritadi. Narsa va hodisalarni his etish ongda bir butun obraz yaratadi. Ma‘lumotlarni qabul qilayotganimizda aql ham ishtirok etadi, kerakligini ajratib, bir-biri bilan taqqoslaydi, avval ko‘rgani bilan solishtiradi.

Faoliyat davomida xonandadaning kasbiy his tuyg‘ulari, ya’ni tovush hissi va tayanch hislari rivojlanadi. Ijodiy faoliyat davrida o‘qituvchi o‘quvchining kuzatuvchanligini rivojlantirishi kerak.

D i q q a t n i j a m l a sh - ongga boshqa hech qanday narsaga ahamiyat berishlikka yo‘l bermaydi, faoliyatni muvaffaqiyatli bo‘lishi garovidir. Diqqatni doim mashq qildirish kerak, shunda u doimo fikrni jamlay oladigan bo‘ladi. Markazda faqat ijodiy maqsadni qoldirib, xonanda ijro vaqtida diqqatini juda ko‘p ob’ektlarga taqsimlashi kerak.

Qo‘sinqchilik faoliyatida e s l a b q o l i sh qobiliyati juda zarurdir, chunki xonanda katta repertuarni, barcha texnik bilimlarni va qo‘sinqchilik hissiyotini yodda saqlashi kerak. Xotirani doim rivojlantirib turishi lozim, bunga doimo ayrim informatsiyani eslab qolish, uni yodda tutish vaqt davomida uni eslashga yordam beradi. Eslab qolningan materialni mantiq nuqtai nazaridan bir-biri bilan bog‘lash va qaytarish kerak. O‘rgangan materialni yodda saqlab qolish, uni to‘g‘ri ijro etishdir.

Vokal pedagogikasi kabi artistik faoliyat uchun ham t a s a v v u r ga ega bo‘lish zarur. Ijodiyot fantaziya rivojiga asoslangan, xonanda fantaziyalash xususiyatini doim boyitishi, faraz etish kuchini oshirishi lozim. Vokal o‘qituvchisi o‘quvchining kelajagi qanday bo‘lishini, uning ovozi qanday tus olishini oldindan ko‘ra bilishi kerak.

H i s s i y o t bu insonning borliqqa bo‘lgan munosabatidir. Musiqa hissiyotni ochib beruvchidir, shuning uchun uni hissiyotlar tili deb ataydilar. O‘zimizda yaxshi emotsiyalarni uyg‘ota bilishimiz lozim-ular faoliyatni yaxshilaydi. Darsni shunday olib borish kerakki, o‘quvchida yaxshi his-tuyg‘ular paydo bo‘lsin. O‘quvchida dars davomida yomon tuyg‘ular paydo bo‘lsa, u darsga kelishni xohlamay qoladi. O‘quvchining emotsiyonal holati har xil bo‘ladi, buni o‘qituvchi doim esda saqlashi lozim. Ijro doim zavqli jilolar bilan boy bo‘lishi kerak, shuning uchun musiqiy hissiyoti sust bo‘lgan o‘quvchilarda uni rivojlantirish lozim. Har bir xonanda eslab qolish qobiliyatini hissiyotga tayanib rivojlantirishi kerak. Lekin ijro davomida inson - ijodiy hissiyot bilan shaxsiy tuyg‘ularini aralashtirishi mumkin emas. Tuyg‘ular albatta badiiy shaklda namoyish etilmog‘i kerak. His tuyg‘ular boyligi insonning ichki dunyosi to‘liq bo‘lishini ta’minlaydi.

K a y f i y a t - tuyg‘ular kuchining katta va kichikligini tavsiflaydigan emotsional holatdir. Inson o‘z kayfiyatining hokimi bo‘lmog‘i kerak, uning quliga aylanishi kerak emas. Inson o‘ziga xos xarakterni bilishi va shu asosida hayotni qurishi, kayfiyatning doim ko‘tarinki bo‘lishini ta’minlaydi.

I r o d a - o‘z oldiga qo‘yilgan maqsad sari intilib, erishishga muvaffaq bo‘lishlikdir va bu doim har ishda omad bag‘ishlaydi. Irodali inson o‘z maqsadi yo‘lida barcha to‘siqlarni yenga oladi. Maqsadga erishish uchun esa odam nimani xohlayotganini yaxshi bilishi va bu hoxish hayot talabi bo‘lmog‘i kerak. Kuylashni o‘rganayotganda, xonandalik faoliyatida kuchli iroda kerak. Irodasiz odam xonanda bo‘lishga urinmasa ham bo‘ladi. O‘z maqsadidan chekinmasdan oldinga intilishni mashq qilish, irodani kuchli bo‘lishiga olib keladi. Har bir faoliyat texnikaga egalikni talab qiladi. Kuylash texnikasiga ega bo‘lish diqqatni bo‘lmaydi, aksincha, fikrni ijodiy maqsadga to‘liq qaratadi.

I j o d - bir-biriga o‘xshashlikni inkor etadi, u yangiliklarni talab qiladi. San’atkorlikni pul topish uchun kasbga aylantirgan inson taqlid qiladi, ya’ni tayyor ijoddan foydalanadi, ijodkor inson yangi obrazlar yaratishga intiladi. Ijodiy faoliyat material yig‘ish-ijod uchun tayyorgarlik, katta mehnat-ilhomlanish - (bu organizmning aktiv holati) va butunlay ijodga kirishishni talab qiladi. Insonning dunyoqarashi qancha keng bo‘lsa ijod shuncha unumli bo‘ladi. Xonandalik pedagogikasida ijodga yondoshish, har bir o‘quvchining o‘ziga hosligini nazarda tutishni talab qilinadi. Ijodiy faoliyat texnik jihat kabi avtomatik bo‘lmasligi kerak.

Sh a x s - qiziqishlar, iqtidor va iste’dod, temperament va xarakterlar mujassamligidir. Bu hislatlarning barchasi inson unib o‘sgan muhitning qandayligiga bog‘liq. Qo‘shiq kuylashga o‘ta qiziqish, u bilan shug‘illanishni xohlash, to‘siqlarni yengib, muvaffaqiyat qozonish garovidir. Xaqiqiy o‘qituvchi uchun har bir ovoz yangi kitobday. U doimiy izlanishda va qachon o‘z maqsadiga erishsa, o‘z ishidan ko‘ngli to‘ladi.

Iqtidorli deb, biz o‘z ishini oson hal qila oladigan insonga aytamiz. Insonlarga iqtidorning zarralari berilgan. I q t i d o r faoliyat davomida sayqallanib, rivojlanadi. Shuning uchun iqtidorli inson o‘zini topishi uchun u bilan shug‘ullanish kerak. Iqtidorni

bolalikdan rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Lekin o‘g‘il bolalarda mutatsiya o‘tmaguncha buning iloji yo‘q.

Iqtidorning barcha sifatlariga ega odamni biz - i s t e ‘ d o d l i deymiz. Juda ko‘p iste’dodli insonlar o‘zida izlanuvchanlik, yaratuvchilik va falsafiy sifatlarini jamlagan bo‘ladi.

T e m p e r a m e n t - shaxs hislatlarining asosiysidir. Xonandaning o‘zi ham, o‘qituvchi ham o‘quvchi temperamentining o‘ziga hos tomonlarini doim nazarda tutmog‘i lozim va faoliyatida temperamentdagi nuqsonlarni bartaraf etishi kerak.

X a r a k t e r - bu shaxsning o‘ziga hosligidir. Unga ijodiy faoliyat va bilim olishning unumi tobedir. O‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi munosabat ularning xarakteriga bog‘liq. Xarakter tarbiyaga bog‘liq.

### **Xonandaning eshitish qobiliyatini tarbiyalash va rivojlantirish**

Agar biz tildagi barcha fikrlarni hissiy organlarni rivojlantirishga yo‘naltirib, kerakli tomonlarni ajratib qoldirsak, maqsadga erisha olamiz. Vokal funktsiyalarini boshqaruvchi hissiy tuyg‘ularni rivojlantirish - xonanda tarbiyalashning eng asosiy vazifasidir. Ovoz hosil qilishni boshqaruvchi funktsiyasini bajaruvchi hissiy organlarni aytib o‘tamiz.

Vokal va so‘zlash funktsiyalarini boshqaruvchi vazifasini bajaruvchi eshitish qobiliyatini birinchi bo‘lib eslaymiz. Ovoz apparati va quloq, informatsiyani tovush orqali qabul qilishga xizmat qiluvchi ajralmas sistemadir. E sh i t i sh - bu miyyaga atrof muhitda ro‘y berayotgan tovushli xodisalarni yetkazib beruvchi asosiy hissiy organdir.

Ovoz apparati faqat eshitish hissi orqali miyyaga yetib borgan va miyyada eshitish orqali paydo bo‘lgan ta’surotlarni ovoz orqali yetkazadi.

Eshitish qobiliyatini sistematik mashg‘ulotlar evaziga rivojlantirish mumkin. Masalan, har kungi so‘zlashish hissi so‘zning ma’no jihatdan tubdan farqlay olishga olib keladi. Biz xatto ma’nosи juda qo‘pol buzib gapirilgan so‘zni ham farqlay olamiz. Biz ona tilimizni mayda buzilishlarini ham his qila olamiz. Masalan shevalarni: shevalardagi farq juda oz bo‘lsa ham biz ularni juda aniq eshitishimiz mumkin. Eshitish

qobiliyati ovozning sifat va ohangini aniq farqlash hususiyatiga ega, bu ham xabar yetkazuvchi vazifasini bajaradi.

Vokal texnikasi va ijrochilik bilimlarini rivojlantirish xaqida gapirganimizda eshitish taasurotining ahamiyati haqida aytib o'tdik. Bu o'rinda xonanda tarbiyasida o'rnak bo'la oladigan yuqori malakali ijrochilarni tinglash zarurdir. Avval eshitish qobiliyati eng sezilarli hatolarni ajrata olsa, bora-bora malaka oshgan sari mayda hatolarni ham anglash imkoniga ega bo'ladi. Hammadan o'rganish mumkin. Lekin ko'proq yomon xonanda yaxshi o'qituvchi bo'lishi mumkin"-deya bildirgan fikrini eslash kerak. Shu maqsadda o'quvchilar, vokal darsini olayotgan o'qituvchi sinfida ko'proq vaqt o'tkazib, boshqa o'quvchilarni tinglashlari, ularning ovozlari sifati yaxshi va yomon tomonlarini tahlil qilishlari kerak deb hisoblaymiz. O'quvchi uchun o'qituvchining u yoki bu talabaning eshitish qobiliyatini tahlil etishini tinglashi ham foydali.

Xonandalar eshitish qobiliyati orqali tovush tozaligi va tembr nazoratiga erishish borasida ayrim qiyinchilikka uchraydi. Oddatda aktiv va passiv eshitish qobiliyatini bir-biridan farqlay olish maqsadga muvofiq.

P a s s i v e sh i t i sh - bu to'g'ri eshita olish.

A k t i v - ovoz orqali eshitganini ko'rsata bilish. Agar passiv eshitish qobiliyati eshitish analizatori va differentsiyani rivojlantirish desak, aktiv eshitish qobiliyati ovoz apparatini boshqarib, kerakli balandlikdagi tovushni hosil qilishdir. Odatda xonanda ichki eshitish tassavuri noto'g'ri bo'lganda toza kuylay olmaydi. Kerakli kuyni fortepianoda ijro etib berishni yoki kuylab berishni so'rash, uning buni uddalay olmasligini tushinish uchun yetarli bo'ladi. Ko'p xollarda kuyni eslab qolishgina uni kuylab berish uchun yetarli emas. Tovushning notozaligi uning balandligi aniq bo'limganligidan emas, tembrni noto'g'ri hosil qilishlikda, ya'ni pozitsiyani toza emasligida.

Kuylovchi o'z ovozini atrofdagilar va tinglovchilardek eshita olmaydi. Bu xonandaning o'zini nafaqat havo muhitida, balki ichki organlari orqali, ya'ni suyaklar orqali eshitish natijasidir. O'z tembrini aniq mo'ljallay olmaslik, qo'shiqchiga eshitish orqali aniq intonatsiyalashga yo'l bermaydi. U eshitish orqali asosiy tonning balandligini to'g'irlashga harakat qiladi, lekin pozitsiya noto'g'riliqi tufayli bunga

erisha olmaydi. Ayrim yaxshi xonandalar ham, ohanglarni aniq ijro etolmaydilar, tovush holatini goh yuqori, goh past kuylaydilar. Ular eshitish qobiliyati orqali nafaqat ohang noaniqligi, hatto ovoz paylari rezonatorlari, vibratsiyalarni ham sezadilar.

Xonandaning o‘z ovozini eshitish tassavuri nafaqat tembrga, balki ovoz kuchiga ham bog‘liq. Ma’lumki xonandaga uning ovozi baland va to‘liq chiqayotgandek tuyulganda atrofdagilar uchun juda kuchsiz tuyuladi. “Xonanda o‘zini o‘zi eshitmayapti va ovozi o‘zining ichida qolib ketyapti” - deb bejiz aytmaydilar. Aksincha unga ovozi kuchsiz chiqayotgandek tuyulganda, tovush eshitilib tinglovchi yaxshi qabul qiladi.

Eshitish qobiliyatining bunday xususiyatiga ko‘ra, o‘qituvchi o‘quvchi uchun, oyna vazifasini bajarishi kerak, ya’ni doim ovozni kuzatishi kerak, toki o‘quvchi o‘zining eshitish va ichki hissi bilan tovushining atrofdagilar uchun to‘g‘ri bo‘lishini tushuna olsin.

Eshitish hissi xaqida gapirganda uning aldoqchiligi, balki doimiy emasligini esga olish lozim. Chunki kuylanayotgan joy nazarda tutilganda, akustik muhit ham rol o‘ynaydi. Barcha kuylovchilarga juda kichik yoki juda katta joyda kuylash qiyinligi ma’lum. Masalan: yumshoq mebel va qalin pardalar bilan jihozlangan xonada o‘zimizni o‘zimiz juda yomon eshitamiz va uni teskarisi, bo‘s sh xonada ovozimiz shovqin hosil qilib, tovush to‘g‘ri bo‘lishiga xalaqit beradi. Bu vaqt kuylayotganda paydo bo‘ladigan ichki his yordam beradi, chunki ular doimiydir.

Ovoz hosil qilishni nazorat qilishda eshitish qobiliyatiga paylar hissi yordam beradi. Paylar hissi evaziga ovoz hosil qilishni nazorat etishda katta yutuqlarga erishish mumkin. Eshitish paylar hissi va boshqa sezgilar ovoz hosil qilishni nazorat qilishda bir-biri bilan reflektor bog‘lanadi. Shu bog‘liqlik kuylovchining vokal eshitish qobiliyati asosidir. Ular nafaqat ovozni eshitishga balki, kuylash davomida ovoz apparati ishini his etishga yordam beradi. Kuylanayotgan asarni tinglash evaziga qo‘sishqching texnologiyasini tushinish mumkin. Xonandani eshitish davomida o‘qituvchi avtomatik ravishda uning texnologiyasini aniqlaydi, bu uni to‘g‘ri rivojlantirishga yordam beradi. Tovushni tebratish hissi tembr sifatini yo‘naltirishga yordam beradi. Ko‘rish hissi ovoz apparatining ko‘rinadigan qismlarini nazorat qilishda qo‘l keladi. Ba’zi xonandalar aerodinamik xolatlarni his qiladilar, bu holat kuylash

davomida ovoz apparatida ro'y beradi. Har bir qo'shiqchida his etish turlari har xil rivojlangan, kuylayotganda ichki hisni sezish ham bir xil emas.

Hech qanday ish birdaniga, bor kuch bilan amalga oshirilmaydi. Unga to'liq kirishish, uning ustida ishlash talab qilinadi. Bu nerv faoliyatining enert holatini yengish bilan bog'liq.

Ovoz mashqlari - bu qo'shiqchi uchun kuylashga kirishishdir. Unga befarq bo'lmaslik kerak. Qo'shiq kuylashga ovoz mashqlarisiz kirishib bo'lmaydi. Ovoz mashqlari ikki qirraga ega: ovozni qizdirish, ya'ni ovoz mashqlari va vokal texnikasini rivojlantirish ustida ishlash. Usluban ularni aralashtirib bo'lmaydi. Yaxshi ijro nerv sistemasini bir maromga sozlash va ovoz apparatini kerakli ovoz mashqlari yordamida qizdirishni talab qiladi. Ovoz mashqlari kuylanadigan qo'shiq yo'nalishida bo'lishi kerak.

T o l i q i sh - bu bajarib bo'lingan ishdan keyingi jarayon. Avval nerv sistemasi keyin ovoz paylari toliqadi. Toliqishdan halos etuvchi psixologik, fiziologik, medikamentoz faktorlar mavjud. Ovozni chidamliligin oshirish uchun ovoz apparatini o'rtacha qiyinchilikda shug'ullantirish kerak. Kuylash qiyinchiliklariga chidamlilik, ovoz apparatining to'g'ri faoliyati, markaziy nerv sistemasi ishi, ovoz apparatining tuzilishi xususiyatlari bog'liq. Turli ovoz mashqlari, uzoq vaqt kuylash imkoniyatini yaratadi. Qiyinchiliklar, ovozini siqish va bir maromda kuylash - tez toliqishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun vaqtida dam olish, to'g'ri rejimga rioya qilish, toliqishdan saqlanish darkor. Mehnat va xordiqni to'g'ri tashkillashtirish, chidamlilikni yuzaga keltiradi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Psixologiya tushunchasigi ta'rif?
2. Eshitish qobiliyati turlari haqida gapiring?
3. Xonanda o'zini o'zi eshitishi uchun nimalarga ahamiyat berishi kerak?
4. Ovoz mashqlari qanday ahamiyatga ega?

## **II BOB. OVOZ APPARATI**

### **2.1. Xonandaning ovoz apparati**

Tovush xosil bo‘lishi ovoz apparatining harakati natijasida sodir bo‘ladi. Ushbu apparat uch qismidan iborat: 1) nafas organlari (o‘pka, bronx, traxeya-tomoqning nafas yo‘li); 2) xiqildoq (ovozi pardalari joylashgan qism); 3) rezonatorlar (yutqin, og‘iz va burun).

Ovoz apparatining har bir qismi bir biri bilan chambarchas bog‘langan. Tovush quyidagicha xosil qilinadi: o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi bronx, traxeya orqali tomoqqa keladi va u yerda ovoz pardalari to‘sig‘iga uchraydi. Havo bosimi ta’sirida ovoz pardalari xarakatga kiradi, ularning takroriy ochilib yopilishi va tebranishi natijasida havo to‘lqinlarida - tovush hosil bo‘ladi.

Tovush hosil qilish bilan bog‘lik bo‘lmagan holdagi odatdagi nafas olish jarayonida ovoz pardalari sokin holatda bo‘lib, havo uch burchak shaklidagi ovoz teshigidan erkin o‘tadi. Tovush hosil bo‘lishida ovoz teshigi torayadi. Tovush baland pardalarga ko‘tarilgan sari ovoz teshigi torayib boradi va eng yuqori parda tovushlariga yetganda teshik berkiladi.

Ovoz pardalarining uzunligi va qalinligi turlicha: bas va baritonlarning ovoz pardalarinig uzunligi taxminan 22-25 mm, tenor va metstso-sopranolarniki 18-22 mm, sopranoniki 14-19 mm. Qalinligi ham har xil bo‘lib, soprano da 2 mmdan baslarda - 5 mmgacha boradi.

Tovush tebranishining tezligi, ya’ni tovush balandligi ovoz pardalarining tortilish (taranglanish) darajasi bilan bog‘lik; tebranish qancha tez bo‘lsa, tovush shuncha yuqori pardalarga ko‘tariladi. Biroq pardalar hosil qiladigan tovush kuchli emas, u, asosan yuqori rezonatorlardan bug‘izning kengayishi hisobiga kuchayadi. Og‘iz va burun ham shunga yordam beradi, shuningdek, ular tovush rang (jilovdorligi) - tembrini yuzaga keltirishda ham katta rol o‘naydi.

Ovoz tembrining sifati tovush o‘tuvchi ovoz pardalari tebranishi bilan rezonans bo‘shliqlariga bog‘liq. Tomoq va ovoz pardalarining harakati mushaklar va tog‘aylar sistemasining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Mushaklarning ayrimlari qisqarib, pardalarni taranglashtiradi, ayrimlari ularni birlashtiradi va bir-biridan uzoqlashtiradi.

Agar ovoz pardalari uzining butun massasi bilan tebransa, ko‘krak registridagi tovush, ovoz pardalari faqat chekkasi bilan tebransa yuqori registrdagi tovush yuzaga keladi.

Ovoz hosil qiluvchi organlarga quyidagilar kiradi: xiqildoq, og‘iz va burun bo‘shliqlari, kekirdak va o‘pka (5-rasm).

Undan tashqari, ovoz hosil qilishda markaziy nerv sistemasi ham qatnashadi, u ashulachilik jarayonini boshqaradi. Xiqildoq – ovozning ilk tovushi paydo bo‘ladigan joy, kuychan hislatga ega: balandligi, kuchi, kuylovchi tembrining vibratosi ro‘y beradigan joy.U uch xil faoliyatini bajaradi: nafas olish, himoya qilish va ovoz chiqarish. U ichidan shilimshiq parda bilan qoplangan va to‘rta tomoq tog‘ayidan iborat: qalqonsimon, ikkita yassisimon vauzuksimon tog‘aylar. Ular o‘zaro bog‘langan va mushaklar bilan ta’minlangan. Tomoq tog‘aylari yoshiga qarab asta-sekin qattiqlashib suyakka aylanib boradi. Bo‘g‘izning yuqori bo‘limi - ustki boylam bo‘shlig‘i sohta tovush boylamigacha cho‘zilgan. Morganlar oshqozoni nomini olgan, ikki tomonlama chuqurlashgan qism, yolg‘on tovush boylamidan haqiqiy tovush boylamigacha cho‘zilgan.

Yu t q i n - esnash jarayonida og‘iz bo‘shlig‘iga havo uriladigan makon.


B u r u n yu t q i n - yutqin va burunni bir-biri bilan bog‘lovchi qism. U orqali burundan olingan havo ichkariga boradi.

Artikulyatsion organlar - tovushni hosil qiladi va talaffuzga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

T i l - asosiy artikulyatsion organdir.

K e k i r d a k va b r o n x l a r tashqaridan kirgan havoni o‘pkaga o‘tkazadigan a’zolar. Nafas olayotganda barcha muskul paylari qatnashadi.

D i a f r a g m a - ko‘krak qismini qorindan ajratib turadigan chandirlardan iborat



5-rasm. Ovoz apparatining tuzilishi:

1 – peshana bo’shlig‘i; 2 – yuqori chuqurcha (rakovina); 3 – o‘rta chuqurcha (rakovina); 4 – ostki rakovina; 5 – qattiq tanglay; 6 – yumshoq tanglay; 7 – til osti suyagi; 8 – hiqildoq qopqog‘i; 9 – qalqonsimon tog‘ay; 10 – haqiqiy tovush boyamlari; 11 – kekirdak; 12 – asosiy bo’shliq; 13 – Yevstaxiy trubanining xalqum teshigi; 14 – tanglay bodom bezlari (mindalinasi); 11, 15 – bo‘yin umurtqasi; 16 –uzuksimon tog‘ay; 17 – ovqat o’tish yo‘li.

### Ovoz apparatining kuylash vaqtidagi ish faoliyati

Xonandalarning vokal ko‘nikmalari rivojlangani sari, vokal eshitish qobiliyati ham asta-sekin rivojiana boshlaydi. Boshlovchi xonandalarda bunday qobiliyat yo‘q. Yaxshi xonanda va o‘qituvchi bo‘lish uchun vokal eshitish qobiliyatini rivojlantirish shart. Tuyg‘ular orasida eshitish qobiliyati birinchi o‘rinda tursa, ikkinchi o‘rinda harakatlar nazoratini mushak to‘qimalari orqali sezish turadi. Mushakli sezgilar ancha murakkab bo‘lib, ularda aniqlik topish qiyin. Nafas, og‘iz, til, hiqildoq, yumshoq tanglay va boshqa mushaklarning harakati - mushak sezgisini tashkil etadi. Odatda xonandadagi mushak harakatining nazorati keyingi bosqichlarda tarbiyalanadi. Rus olimi V.P.Morozov, xonandalardan katta guruh tuzib, ularning har biriga qulqochin kiygizib, u orqali shovqin yuborgan va har bir xonandanidan bironta asarni kuylab berishni iltimos qilgan. Amaliyot natijasida xonandalar ikkita guruhga bo‘lindilar:

- a) ohangni bemalol, adashmasdan kuylab bergenlar;

b) o‘zini yo‘qotib, kuyni aytib bera olmaganlar. Ushbu tajribaga tayangan holda V.Morozov mushakli sezgilarga asoslanganlarni - “mushaklilar”, eshitish sezgisiga tayangan xonandalarni esa “eshitish qobiliyatiga ega”lar deb atadi. “Mushaklilar” turga kiruvchi xonandalar har qanday akustik holatlarda ikkilanmay qo‘sinqayta oladilar, chunki ular ijro vaqtida faqat eshitish qobiliyati orqaligina emas, balki mushak to‘qimalari orqali sezish bilan ovoz apparati harakatini boshqaradilar. Shunday qilib, eshitish va mushak to‘qimalari orqali sezish qobiliyati rivojlangan xonandalarni a’lo toifali xonanda deb hisoblaymiz.

Ovoz apparati ishini boshqarishda ovozni tebratish va ko‘rish sezgilari ham katta ahamiyatga ega. Qo‘sinqayt kuylash vaqtida ko‘krakda va boshning yuz qismida rezonans paydo bo‘lishi har bir xonandaga ma’lum. Qo‘lni ko‘krakka qo‘ygan holda ko‘krakda paydo bo‘layotgan rezonansni sezish mumkin. Ovoz bosh rezonator, “maska”ga tushganida boshning yuz qismida tebranish paydo bo‘ladi, shu paytda ovozni boshqarish harakatlari anchagina yengillashadi. Dastlabki mashg‘ulotlarda ko‘zgu yordamida o‘z harakatlarini kuzatish yaxshi samaraga ega. Ko‘zguda - og‘izning ochilishi, lablar, til, jag‘, yumshoq tanglay harakatlarini oydin kuzatish mumkin. Ularning hammasi vokal-texnik ko‘nikmalar shakllanishiga katta yordam beradi.

Xonandaning tovush kuchi, tembri va balandligi bilangina emas, balki diapazoni bilan ham xarakterlidir. Ovoz diapazoni eng past tovushdan eng baland tovush oralig‘idagi xajmni o‘z ichiga oladi. Odam ovozining butun diapazonini registrlarga bo‘lish mumkin.<sup>7</sup>

R e g i s t r ovoz diapazonining bir qismi bo‘lib, tembr va tovush yo‘nalishining bir-biri bilan moyilligiga asoslanib aniqlanadi. Odam ovozining past (ko‘krakdan chiquvchi tovushlar), o‘rta (aralash) va yuqori (bosh bilan bog‘liq tovushlar) registrlarga bo‘lish qabul qilingan.

Ayollar ovozi past (ko‘krakdan chiquvchi tovushlar), o‘rta (aralash) va yuqori (bosh bilan bog‘liq tovushlar) registrlarga bo‘linadi. Ko‘krak registri - ayollar ovozi diapazonnining eng pastki notalarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, tertsiya yoki kvinta qamrovida bo‘lishi mumkin. Bosh registri - diapazonning eng yuqori notalariga boradi.

---

<sup>7</sup> G. Muxamedova . Xonandalik uslubiyoti asoslari.T., 2007.(13-146.)

O‘rta yoki aralash registr - diapazonning oktava va undan ko‘proq qismini egallaydi. Aralash registr diapazonning tekisligiga erishishda va yuqori notalarning to‘laqonli sadolanishida qo‘l keladi.

Ayollar ovozi registrlari, erkaklar ovozi registrlari kabi ovoz paylari ish faoliyatining o‘zgarishiga bog‘liq.

Ayollar ovozi diapazonning tekisligi ustida ishslash asosiy printsiplari huddi erkaklarniki kabi: diapazon markazida ovoz hosil qilishda aralash registrlarning ish faoliyatini benuqsonligiga erishish, nafasni astalik bilan yetkazish, yuqori notalarda “O” va “U” unlilarining yopiq ijrosi, yumshoq ovoz hujumi va ovozning erkin sadolanishi.

Erkaklar ovozi ko‘krak va bosh (faltset) registrlarga ega. Ovozning ko‘krak va faltset sadolanishi ovoz paylarining ish faoliyatiga bog‘liq.

Erkaklar ovozida ko‘krak registri deyarli bir yarim oktavani tashkil etadi. Ko‘krak registrida ovoz paylari chetki mushaklari butun ovoz paylari bo‘ylab bir-biriga yaqinlashib, yopiladi. Faltset ya’ni bosh registrida ovoz paylari oxirigacha yopilmaydi va faqat chekka qismi tebranadi. Aralash ovoz hosil qilishda (mikst) ovoz paylari ko‘krak va faltset turlarida faoliyat yuritadi. Registrdan-registriga o‘tish ovoz paylari ishini o‘zgartiradi.

Bolalar ovozi - ko‘krak, aralash (mikst) va bosh (falset) registrlaridan iborat. Bolalar ovozi uchun bosh qismining baland rezonanslanishi xosdir.

Bolalar ovoz apparatining tuzilish va rivojlanishi xususiyatlariqa qarab har bir yosh guruhi individual registrdagi ovoz tuzilishiga ega. Kichik guruh bolalari (7-10 yosh) ovozining diapazoni kichik bo‘lib, yengil faltset (bosh registrdagi) sadosi bilan ajralib turadi. O‘rta yoshdagi bolalar ovozlarida (11-13 yosh), ayniqsa, o‘g‘il bolalarda ko‘krak registrdagi tovush elementlari paydo bo‘lib diapazon kengayadi. Bu yoshdagi bolalar ovozining diapazonida uchala registr (bosh, aralash, ko‘krak) ajralib tursada, kuylash vaqtida asosan mikst (aralash) registri tovushlari ishlatiladi. Katta guruh yoshidagi bolalar ovozida (14-16 yosh) tembr aniqligi, voyaga yetgan ovoz elementlari paydo bo‘ladi. Lekin amalda mikst (aralash) registri tovushlari saqlanadi.

T e s s i t u r a ovoz, xor partiyasi yoki xor diapazonining bir qismi bo‘lib, asarda eng ko‘p qo‘llaniladigan tovushlar xisoblanadi.

Yuqori va past tessitura xonanda uchun qiyinchilik tug‘diradi, chunki uzoq

vaqt kuylash davomida ortiqcha kuch sarflanadi va bu ovozni charchatadi.

### **Gavdani tik tutish**

Gavdani tik tutish deganimizda ahamiyatni ikki tomonga qaratamiz: estetik va fiziologik.

Xonanda birinchi navbatda g a v d a s i n i tinglovchining ahamiyatni chalg‘itmaydigan holda, o‘ziga qulay holatda tutmog‘i, cholg‘u sozi yonida turmog‘i kerak. Ijroning muvaffaqiyatli chiqishi xonandaning sahnada o‘zini tutishiga bog‘liq.

Xonandalik maktablarining aksariyati gavdani tutishning fonatsiyaga ta’siri, uning erkin, lekin faol holatiga bog‘liq, bu paylarni fonatsiyaga xizmat qilishga tayyorlaydi deydilar. Shuni yodda tutish kerakki paylarning bunday holati, ya’ni fonatsiyaga xizmat qilishga tayyorligi, nerv-paylarining ham tayyor holatidir. Shunday qilib, gavdaning holati xonanda uchun kuylashda juda katta ahamiyatga ega.


K o‘ k r a k q a f a s i v a t o z sohasini joylashish holatiga ham e’tibor qaratishimiz darkor. Ayrim honandalar bir oyog‘i oldinda ikkinchisi orqada turish holatida toz qismi oldinga chiqib ko‘krak qafasi orqaga tisarilib qolish hollarini ham kuzatishimiz mumkin. Bunday holatda o‘qituvchi talabaning gavdasini yon tarafdan ko‘rib chiqib, toz qismini ko‘krak qafasiga nisbatan biroz orqaga olib, turish holatiga moslashtirish lozim. Bunday holat gavda og‘irligini tizzalar ko‘zlar va oyoqlarda mustahkam tayanch hissini tuyish imkonini yaratadi<sup>8</sup>.

Xonanda b o sh n i to‘g‘ri ushlamog‘i lozim. Boshni yuqoriga ko‘tarish bo‘yinning old qismi paylarini zo‘riqtiradi va kekirdakni siqadi, bu esa tovush hosil qilishda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Boshni yon tomonga kuylash vaqtida egish mumkin emas, chunki bu holat umuman hech qanday foyda bermaydi. Yuz turli holatlardan holi bo‘lishi va asar mazmunini o‘zida aks ettirishi lozim. Yuzdagи tabassum o‘quvchida hursandlik, ko‘tarinkilik tuyg‘ularini bildiradiki, bu asar xarakterini ochishga yordam berishi kerak. Tabassum organizmga tetiklik bahsh etadi. Zo‘raki tabassum qilish kerak emas. Bo‘yin paylari zo‘riqmasligi va erkin bo‘lmog‘i kerak.


---

<sup>8</sup> Janice L. Chapman, OAM, FG. Singing and teaching singing 2012.(27-29 бет.)

A)



B)



6-rasm . Bosh va bo‘yin holati. A) erkin holat. B) zo‘riqish holati.

Ye l k a l a r erkinligi ham xonanda ijrosining sifati uchun katta ahamiyatga ega. Yelka kenligini siqilishi natijasida hiqildoq va yumshoq tanglay faoliyati buzilib ovoz jarangdorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kundalik hayotimizda duch keladigan tashvishlar (sumkalarni yelkaga osib yurish, bir qo‘lda og‘ir yuk ko‘tarish kabilar) yelkalarni siqilishi va qo‘shiqchi holatining buzilishiga olib keladi. Hiqildoq faoliyati yelka kengligi erkinligiga bevosita bog‘liqligi tufayli xonandalar, ayniqsa opera ijrochilari muntazam ravishda terapevt va massajchi muolajalaridan o‘tib turishlari maslahat beriladi.<sup>9</sup>

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Hiqildoq nimalardan tashkil topgan?
2. Tovush xosil bo‘lishi qaysi ovoz apparatining harakati natijasida sodir bo‘ladi?
3. Mushakli sezgilar ahamiyati?
4. Registr nima?
5. Erkaklar, ayollar, bolalar registrlari farqini sanab o‘ting?
6. Ovoz apparati ishini boshqarish nimalar bilan bog‘liq?

---

<sup>9</sup> Janice L. Chapman, OAM, FG. Singing and teaching singing.2012. (27-29 бет.)

7. Xonanda boshining holati?
8. Xonanda gavdasining ahamiyati?

## **2.2. Nafas organlari anatomiysi**

So‘zlash va kuylash fonatsiyasi vaqtida nafas olish apparati tomoq va artikulyatsiya apparati ish faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Kuylash uchun ishlatiladigan nafas faqat kuylash vaqtida hosil bo‘lib, rivojlanadi.

Ovoz apparati ikki vazifani bajaradi: I-tomoq va nafas yordamida tovush hosil qilish; II- artikulyatsiya apparati yordamida tovushni transformal etish.  
**N a f a s o l i sh o r g a n i:**

a) k e k i r d a k - ochiq yarim doira tog‘aylardan tashkil topgan, 15 smga yaqin trubkasimon organ. U ko‘krak qismgacha yetib borganda traxeya o‘ng va chap bronxlarga bo‘linadi, va ko‘p kanallarga bo‘linib bronxial daraxt hosil qiladi.

b) b r o n x l a r - orqali havo o‘pkaga yetib boradi, bu yerda o‘pka ko‘piklari gaz almashuvini bajaradi. Inson yugurib ketayotganida o‘pka nafas olishni yengillatish va ventilyatsiyani kuchaytirish uchun maksimal kengayadi. Uxlayotganda ular torayadi, ba’zi qismlari esa nafas olishdan to‘xtaydi.


v) o‘ p k a - elastik, havodek yengil, gubkani eslatadi. Uning asosiy og‘irligini undagi o‘pka ko‘piklari tashkil etadi. O‘pka-yomon tovush o‘tkazgich hisoblanadi. Nafas olganda, havo o‘pkaga surilib, ko‘krak qafasi kengayib, ko‘tariladi va diafragmani tushiradi.

g) d i a f r a g m a - ko‘krak-qorin mushaklarining murakkab shaklidir, u gumbazni eslatadi.

d) n a f a s o l i sh va ch i q a r i sh p a y l a ri: nafas olganda ko‘krak qafasining nafas olish paylari qisqaradi, nafas chiqarilganda paylar bo‘shashadi.

Nafas olish sistemasi nerv sistemasi tomonidan ikki xil boshqariladi: o‘z-o‘zidan (erkin) va noerkin.

O‘quvchi bilan ishlayotganda nafas olishning quyidagi tamoyillariga rioxalish talab etiladi: sokin, kerakli hajmda, chuqr nafas olib, tovush chiqarishdan oldin uni ushlab turish, nafasni sekin chiqarish va taqsimlashni o‘rgatish.



7-rasm. O'pka, bronxlar, hiqildoq va yuqori rezonatorlarning tuzilishi:

1-o'pka; 2-bronx; 3-bronxiola; 4-alveolalar; 5-til; 6-shiqildoq; 7-kekirdak; 8-kichik tilcha; 9-hiqildoq qopqog'i.

### Nafas olish turlari

Inson hayotida nafas olishning aralash turidan foydalanadi, unda: ko'krak qafasi, diafragma, paylar va boshqalar.


Kuylashda nafas olish quyidagilarga bo'linadi:

1. Q o r i n d a n - ko'krak qafasi qimirlamaydi va nafas olish diafragmaning qo'yib yuborilishi bilan bajariladi. Qorin bu vaqtda oldinga chiqadi.
2. K o' k r a k q o r i n - (qovurg'aning pastki qismi-diafragmalik) ko'krak qafasi va diafragma faol ish holatida. Qorin ozgina oldinga chiqadi.
3. K o' k r a k o s t i - (qovurg'a-diafragmalik) - nafas olish asosan ko'krak qafasining pastki qismini kengayishi va ko'tarilishi hisobiga bajariladi. Diafragma ishga kirishadi. Ko'krak osti nafasi qovurg'a osti-diafragmalik nafasining varianti hisoblanadi.

4. K o‘ k r a k (qovurg‘a) - ko‘krak qafasining tepe qismi ko‘tarilib, diafragma passiv holatda ko‘krak qafasi orqasidan harakatlanadi. Qorin ichga tortiladi.

Xonandalik san’ati tarixi, zamonaviy ijrochilik va pedagogik amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, aytib o‘tilgan nafas turlarining har birini bilish professional darajada kuylash uchun yetarli.

Xonanda tomonidan nafas olish turlaridan u yoki, bunisini tanlash kuylashdagi qulaylik va tovushning sifatiga bog‘liq.



8-rasm. Nafas turlari (punktir bilan nafas olish holati ko‘rsatilgan) A–aralash ko‘krak-qorin; B– aralashko‘krak-qorin (yon ko‘rinishi); V–chin diafragmatik (abdominal yoki qorin); G–pastki qovurg‘a-qorin; D–ko‘krak-qorin; Ye–chin ko‘krak nafas, shunda qorinning old qismi tortiladi.

1–o‘pkalar; 2–yurak; 3–diafragma nafas chiqarilgan holatida; 4–diafragma nafas olingan holatida; 5–ko‘krak qafasina nafas chiqarilgan holatida; 6–ko‘krak qafasi nafas olingan holatida; 7–qorin nafas chiqarilgan holatida; 8–qorin nafas olingan holatida.

O‘qituvchi o‘quvchining nafasdan qanday foydalanayotganini diqqat bilan kuzatishi kerak, lekin, agarki tovush to‘g‘ri bo‘lsa albatta, o‘z fikrini unga singdirishdan o‘zini tutishi kerak. Eng asosiysi qanday nafas olish emas, uni qanday sarflashdir. Ovozni to‘g‘ri hosil qilish uchun quyidagilarni bilish lozim:

- a) haddan tashqari ko‘p nafas olmaslik;
- b) keraklicha nafas olmasdan kuylashni boshlamaslik;
- v) tovush hujumi boshlanganda va kuylash davomida, nafas hisini saqlab qolish;
- g) Jumla davomida nafasni to‘g‘ri taqsimlash, nafasning jumla ohirigicha to‘liq yetishi, jumla tugagach, qolgan havoni chiqarib yuborish kerak.

D.L.Aspelund tomonidan o‘tkazilgan eksperimentlar natijasiga binoan shunday xulosaga keladi: nafas turi hech qachon o‘zgarmay, qotib qolmaydi. Ijro etilayotgan asarning xarakteri, emotSIONalligiga qarab nafas turi o‘zgarib turadi. Yengil, mayin asarlar ijrosida nafas biroz ko‘tariladi. Dramatik, ovoz kuchini talab qiladigan qo‘shiqlarda esa past nafas ishlatiladi. Nafasning bunday o‘zgaruvchanligi oqibatida xonandada shakllangan nafas turi me’yordan chiqib ketmaydi. Xonandalar nafasning aralash turlaridan foydalanishi, amaliyotda sof, aniq nafas turlari mavjud emasligi ilmiy tadqiqotlar natijasida o‘z aksini topdi.

Xonanda ovozining sifatiga asoslangan holda nafasni rivojlantirish zarur. Qo‘shiqchi baland nafas turidan foydalanganda ovozi chiroyli, hech qanday noqulayliksiz yangrasa bunday nafasni o‘zgartirishning hojati yo‘q, chunki bu noto‘g‘ri nafas deb uni o‘zgartirishimiz bilan ovozning yaxshi sifatlari buzilib ketishi mumkin.

Nafas ishlatish mahorati xonandalarda kuylash paytidagi chiqarishida namoyon bo‘ladi. Eng muhim, qanday qilib nafas olishda emas (bu masalada pedagoglarning fikrlari turlicha), balki qanday qilib uni chiqarishdadir. Nafas chiqarish hamma vaqt nafas olishdan uzunroqdir. Nafas olinganidan so‘ng uni biroz to‘xtatib turib faqat keyin uni kuylash bilan birga asta-sekin, mayin chiqarish zarur. Nafasni oxirigacha ishlatmaslik lozim. O‘pkada hamma vaqt ozroq qoldiq havo qolishi zarur.

Tovushsiz nafas mashqlari unchalik foyda keltirmaydi, ular nafas mushaklarini ongli ravishda ishga solishga yordam berishi mumkin xolos, chunki ashulachilik nafasi faqatgina kuylash paytida rivojlanadi.<sup>10</sup>

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Nafas olishda organini qaysi organlar tashil etadi?
2. Nafas olish turlari haqida gapiring?
3. Ovozni to‘g‘ri hosil qilish uchun nimalarni bilish lozim?
4. Turli maktablarda turli pedagoglarning nafas masalasiga qarashlari qanday?

### **2.3. Kuylash davomida xiqildoqning holati**

Kuylayotganga hiqildoqning faoliyati ikki tamoyilga ajratiladi: hiqildoqning o‘z joyida qo‘zg‘olishi va hiqildoq mushaklarining ishi.

Hiqildoq katta harakatlanuvchanligi bilan ajralib turadi. Har bir xonanda qandaydir usullar bilan hiqqildoqni pastga tushirishi va ko‘tarishi mumkin: masalan tinch holatdagidan 3,5-4 smga ko‘tarishi mumkin.

Hiqildoqning pastlanishi yoki tepagaga ko‘tarilishi uning hajmini o‘zgartiradi. Bu esa tovush tembrining o‘zgarishiga olib keladi.

Har bir ovoz o‘ziga xos, ma’lum bir trubaga ega, bu hiqildoqning kuylash vaqtidagi pozitsiyasini aniqlaydi. Kerakli hajmdagi ovoz trubasi ovozga o‘ziga xos tovush beradi va ovoz teshigi o‘z ishini erkin bajaradi. Eng kichik ovoz trubasi soprano ovozida (15,3-18,5 sm), eng uzuni bas ovozida bo‘ladi (23,3-25,0 sm).

Hiqildoq holatining o‘zgarishi yutqin va og‘iz bo‘shlig‘idagi rezonans sharoitini o‘zgartiradi, formanta muhitini joyidan siljitali.

Kuylovchi uchun hiqildoqning qulay holatini topish juda muhimdir, butun diapazon va unlilar ijrosi davomida hiqqildoq shu holatni saqlab qolishi lozim.

Ovoz teshigi ovoz paylarining chekka qismidan tashkil topgan.

Ovoz paylari - hiqildoqning qizg‘ish shilliq terisi fonida perlamutr-oqish rangda ko‘rinadi, erkaklarda pushti, yaltiroq yo‘l-yo‘l ko‘rinadi. Ovoz paylari o‘ziga xos

---

<sup>10</sup> Muxamedova G. Xonandalik uslubiyoti asoslari.T., 2007 (30-32 б.)


qalinlikka ega. Ovoz paylarining qalinligini vokal mushaklari tashkil etganki, ular erkin harakatlanadi.

Hiqildoqning ichki mushaklari faoliyati natijasida ovoz paylari, yassisimon tog‘ay qayilganda bir-biriga yaqinlashib, qalqonsimon tog‘ay egilganda, cho‘ziladi, va qalqonsimon-yassisimon tog‘aylar ishi natijasida, u yoki bu darajada siqiladi. Orqa uzuk yassisimon mushakdan tashqari barcha tog‘aylar ovoz teshigining yopilishiga va ochilishiga hizmat qiladi.

Rus olimi va pedagogi L.B.Dmitriev XX asrning 50-yillarida rentgen rasmlari yordamida 50ta professional opera xonandalarini tekshirib chiqdi va 1000dan ortiq rentgenogrammalarini tayyorladi. Ushbu rentgenogrammalar hiqildoqning tinch holati, nutqda va uzun notalarni kuylash paytida olingan. Tadqiqotlari natijasida L.B.Dmitriev hiqildoq holati tovush turi bilan bog‘liq, degan xulosaga keldi, chunki, kuylash paytida barcha bas va bariton ovozlari hiqildoq holatini pasaytirsalar, lirik va lirik-koloraturali soprano ovozlar hiqildoq holatini ko‘taradilar yoki uni tinch holatida tutib turadilar. Biroq dramatik tenor va metstso-soprano ijrolarining hiqildoq holatlari turlicha bo‘lib, hiqildoqning holati tovushdan tashqari yana nimagadir bog‘liq ekanligiga duch keldi. Professional xonandalarning hiqildog‘i butun diapazonda barcha unlilarni kuylash paytida o‘ziga xos holatni egallaydi. Bunday holat hiqildoqning ham, nutqning ham tinch holatidan farqlanadi. Agar hiqildoqning holati o‘zgarishi natijasida qanday o‘zgarishlar bo‘ladi, degan savol beradigan bo‘lsak, eng muhimi – og‘iz-xalqum bo‘shlig‘ining shakli va uzunligi o‘zgarishidadir,- degan javob olamiz. Hiqildoq ko‘tarilganida bu kanal qisqaradi va shu bilan birga og‘iz-xalqum bo‘shlig‘i kichrayib qoladi. Hiqildoq holati pasaytirilsa, ushbu bo‘shliq kattalashadi. Hiqildoqning faol harakatlanishi barchamizga ma’lum. Tadqiqotlar natijasida hiqildoq holati 7-8sm gacha o‘zgarishi mumkinligi aniqlandi. Demak, og‘iz-xalqum kanalining qisqarishi yoki uzunlashishi 3,5-4sm gacha bo‘lishi mumkin (9,10-rasm). Bu ma’lumotlarga asoslangan holda, har bir ovoz turi kuylash paytida o‘zi uchun qulay bo‘lgan og‘iz-xalqum kanali uzunligidan foydalanadi, degan xulosaga kelamiz. Albatta, gap shunchaki og‘iz-xalqum kanali uzunligida emas. Gap, ushbu kanal uzunligi o‘zgarishi og‘iz-xalqum bo‘shlig‘ining o‘zgarishiga olib kelishi va tovush boyamlari ustida hosil bo‘ladigan bosimdadir. Bunday holatni topish xonandalarda


ко‘проқ овоз устидагы ишлеш жарыонда оңсиз равишда амалға оширилди. Лекин бундай натижага онгли равишда хам ерішіш мүмкін.<sup>11</sup>

A)



<sup>11</sup> Muxamedova G. Xonandalik uslubiyoti asoslari.T., 2007 (34-38 б.)

B)



9-rasm. L.B.Dmitriev tadqiqotlaridan: катта teatr solistlarining (A) – metstso-soprano; B) – bariton) nutq va kuylash paytidagi hiqildoqning holati. Har bir rasmning yuqori qatorida tinch va nutqdagi uchta unli aytilganida hiqildoqning holati. Tovush boyamlari qora rang bilan ko‘rsatilgan. Har bir sxemadagi chiziq hiqildoqning tinch holatini ko‘rsatadi; o‘rta va past qatorlarida barcha unlilarni eng yuqori notada kuylashda hiqildoqning holati. Sxemalarda hiqildoqning nutq va kuylash paytidagi holatlari bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigani (nutqda – baland, kuylashda – past holati), professional xonandaning kuylash paytida barcha unlilarda hiqildoqning holati bir xilligi aniq ko‘rinib turibdi.



10-rasm. Kuylashda hiqildoqning holati. G.Gasparyanda nutqdan kuylashga o'tganida, uning holati aynan yuqori notaga ko'tariladi. Ye.Shumskayaning hiqildog'i holati o'zgarishi ozgina. Z.Doluxanovaning hiqildog'i biroz tushiriladi, I.Petrovniki esa ancha past.

Turli ovoz sohiblarining hiqildoqlari katta-kichikligi bilan farqlanib turishi barchaga ma'lum. Bas ovozlarining hiqqildoqlari tenorlarnikidan kattaroq, ayollarning hiqaldoqlari esa erkaklarnikiga nisbatan kichikroqdir. Xuddi shu narsa tovush boymlarining uzunligiga ham tegishlidir. L.Dmitriev tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasiga binoan, ovoz turi tovush boymlarining uzunligiga o'zaro bog'liqligi aniqlandi va sonlar jadvalida o'z aksini topdi.

**Kuylash paytida tovush boyamlari va og‘iz-xalqum kanalining uzunligi  
(santimetrda) jadvali**

Ovoz turi	soprano	metstso-soprano	tenor	bariton	bas
Tovush boyamlari uzunligi	1,4-1,9	1,8-2,1	1,8-2,2	2,2-2,4	2,4-2,5
Kuylash paytidagi og‘iz-xalqum kanalining uzunligi	15,3-18,5	16,7-18,8	19,0-22,0	21,5-24	23,3-25,0

Tadqiqotlar davomida tovush bog‘lamlari va og‘iz-xalqum kanali uzunligi orasida o‘zaro bog‘liqlik 1:10 proporsionalda ekanligi haqida xulosaga kelindi.

Professional xonandalar tomonidan butun diapazonda unli tovushlar ijro etilganda hiqildoq o‘zining doimiy holatini egallab turadi. Bu o‘ziga xos holatni hiqildoqning tinch holatidan past darajada, tinch holat darajasida yoki tinch holatdan yuqori bo‘lib, hamisha yakka ijrochiga hos ravishda ro‘y beradi.


Turli usullar orqali hiqildoq holatini mustahkamlashtirish mumkin:

a) ovoz tembri, uning “rangi” o‘zgartirilishi, ya’ni ovoz to‘q yangraganda hiqildoq pasayishi, ovozning yorqin yangraganda esa hiqildoqning ko‘tarilishi;

b) fonetik uslub, ya’ni unlilar orqali ovozga ta’sir qilish. Bunda hiqildoq balandroq pozitsiyani egallashi uchun “i” harfi yordamida ovoz sozlash mashqlari olib borilsa, pastki pozitsiyani egallashi uchun esa “u” harfi yordamida ovoz sozlash mashqlari olib borilishi maqsadga muvofiqdir;


v) esnashdan foydalanish, bunda chuqur esnash - bas va bariton ovozlariga, yengil esnash esa yuqori ovoz partiyalari uchun tavsiya etiladi.

H i q i l d o q - kekirdak va xalqum orasida joylashgan. U uch xil vazifani bajaradi: nafas olish, himoya qilish va ovoz chiqarish. Hiqildoq tikkasiga kesilgan holda qum soatga o‘xshaydi.




11-rasm. Loringoskop yordamida ko‘rilgan hiqildoqqa kirish va hiqildoq bo‘shlig‘ining ko‘rinishi: 1 – hiqildoq qopqog‘i; 2 – hiqildoqning orqa tomoni; 3 – haqiqiy tovush boyamlari; 4 – nafas olish paytida ko‘rinadigan kekirdak doyrachalari.

Hiqildoqning pastki boylam bo‘shlig‘i barmoqsimon tog‘ayning pastki chekkalarigacha yetadi. Hiqildoqning yuqoridagi teshigi oval shaklga ega bo‘lib “hiqildoqqa kirish” nomini olgan, uning oldingi qismida hiqildoq qopqog‘i joylashgan.



12-rasm. O'rta chiziqdan kesilgan hiqildoq ko'rinishi: 1 – til; 2 – til osti suyagi; 3 – hiqildoq qopqog'i; 4 – ovoz teshigi; 5 – haqiqiy tovush boylami; 6 – uzuksimon tog'ay; 7 – qalqonsimon tog'ay; 8 – qalqonsimon tog'ay doyrachalari; 9 – uzuksimon tog'ayning uzugi.


Nafas olish jarayonida hiqildoqqa kirish ochilib, yutinish paytida hiqildoqqa kirish egilib kirish yo'li yopiladi. Ovoz hosil bo'lishida hiqildoqqa kirish torayib, hiqildoq qopqog'i uni ustidan biroz berkitib turadi. Xonada ovozida a'lo sifatlar paydo bo'lishi uchun hiqqildoq holati katta ahamiyatga ega. Tovush boylamining uzunligiga bog'liq bo'lgan qalqonsimon tog'ay, erkaklarda ayollarnikiga nisbatan uzunroq, kuchli rivojlanadi. Bu esa hiqildoqning kattaligiga ta'sir qiladi – ayollar hiqildog'ining eng kattasi taxminan erkaklardagi eng kichkina hiqildoq bilan teng. Hiqildoqning sekin va faol harakat qilishi, til ostidagi harakatchan suyakka mahkamlaganligi va unga umurtqa oldi muskul pardasi bilan bog'langanligi bilan ifodalanadi.



13-rasm. Hiqildoqni ushlab turadigan tashqi mushaklar: 1 – bir tomoni bilan ostki jag‘ga, boshqa tomoni bilan til ostidagi suyakka bog‘langan mushaklar; 2 – yuqoridan til osti suyagiga va hiqildoqning qalqonsimon tog‘ayga, pastidan esa ko‘krak qafasiga bog‘langan mushaklar; 3 – yordamchi nafas mushagi; 4 – yuqoridan bosh chanog‘iga, pastidan esa til osti suyagiga bog‘langan mushaklar.

Hiqildoq nafas yo‘li, ya’ni naycha xalqali tomoq kemirchaklaridan tarkib topgan k e k i r d a k g a ulanib ketadi (14-rasm). U mustahkam va murakkabdir. Tomoqning teri qismi tog‘aylariga birikib ketgan. Kekirdakning uzunligi 11-13 sm bo‘lib, trubkasimon ko‘rinishga ega 16-20 tauzuksimon tog‘aylardan iborat bo‘lgan qattiq, boylovchi bo‘g‘inlarni tashkil qiladi. Kekirdakning orqa devorlari siliq mushak bo‘g‘inlaridan iborat. Kekirdak so‘lak bezi bilan qoplangan, u hiqqildoq va bronxlar orasida joylashgan. Kekirdak ikkita yirik bronxga bo‘linadi, u esa hamma narsaning bo‘g‘izigacha maydalab ikkita o‘pka hosil qiladi.

Ko‘krak bo‘shlig‘i qorin bo‘shlig‘idan d i a f r a g m a bilan ajiratilgan. Bu kuchli mushak orqasidan umurtqa pog‘anasigacha, oldindan esa oftob o‘ramasi bilan mustahkamlangan. Diafragma nafas olinishida qisqaradi va pastga tushadi, shunda ko‘krak qafasining hajmi ko‘payadi, nafas chiqarilayotganida esa ko‘tariladi. Ammo nafas olish va nafas chiqarishni ongli ravishda nazorat qilish mumkin bo‘lsa ham, diafragma harakatlari bizning ongimizga bo‘ysunmaydi.



14-rasm. O'pka, bronxlar, hiqildoq va yuqori rezonatorlarning tuzilishi: 1 – o'pka; 2 – bronx; 3 – bronxiola; 4 – alveolalar; 5 – til; 6 – shiqildoq; 7 – kekirdak; 8 – kichik tilcha; 9 – hiqildoq qopqog'i.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Kuylayotganga hiqildoq qanday faoliyat olib boradi?
2. L.Dmitrievning hiqildoq holati tadqiqotlari haqida gapiring?
3. Kekirdak tuzilishi?
4. Kuylash paytida tovush boyamlari va og'iz-xalqum kanalining uzunligi qancha?

#### **2.4. Tovush hujumi**

Tovush hujumi - kuylashga o'zgacha ifoda beruvchi vosita, tovush paydo bo'lishi vaqtida. Ovoz pardalari jipsligiga, nafas chiqarishning kuchi va xarakteriga qarab tovush hujumi: qattiq, mayin va nafas olishdan keyingi hujum bo'lishi mumkin.

Tovush hujumi ovoz paylari tebranishini yaxshi his etishga yordam beradi. Tovush hujumi nafaqat ifoda beruvchi, balki ovoz apparatiga pedagogik ta'sir uchun eng zarur vositadir. Tovush hujumi orqali pedagogik ta'sir metodi, xonandaning ovoz teshigi xaddan ziyod aktiv ishlasa, yoki sust ishlagan vaqtda qo'llaniladi.

Har bir xonanda tovush hujumi turlarini yaxshi bilishi zarur. Ovoz hosil qilishning ikki nazariyasi mavjud: mioelastik (mushak va paylar elastikligi) va neyroxronaksik.

M i o e l a s t i k nazariya asosi quyidagicha: ovoz hosil bo'lishi uchun ovoz paylarining to'la ishlashi va uning ostidagi havo bosimini ko'tarish, tovush hosil bo'lishi uchun esa ovoz paylari ish faoliyati uchun kerakli tonusning bo'lishi yetarli. Tebranishning o'zi ovoz paylari osti bosimining passiv harakati ta'siri bilan amalga oshiriladi.

N e y r o x r o n a k s i k nazariya - (farang olimi R.Yusson taklifi). Ovoz paylarining tebranishi - hiqildoqning bevosita funktsiyasi natijasidir.

Keyingi yillarda ilmiy izlanishlari natijasi shuni ko'rsatadiki mioelastik nazariya neyroxronaksik nazariyaga qaraganda to'g'ri va mukammalroq, bu esa mioelastik nazariyasi ovoz hosil qilishda qo'llash uchun mos degani.

Q a t t i q h u j u m orqali tovush boyamlari mustahkam jipslashib, boylam osti bosimining ko'tarilishi natijasida ularni kuchli turtki bilan ochib yuboradi. Hujumning bunday turida ovozda sof intonatsiya, tovushda aniqlik va yorqinlik paydo bo'ladi. M.Garsianing "Ashula maktabi" kitobida hujumning bu turiga coup de glotte – hiqildoq zarbi deb ta'rif berilgan. Boshlang'ich xonandalarni tarbiyalashda bunday hujumdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Qattiq hujumda nafasning ortiqcha "chiqib ketishiga" yo'l qo'yilmaydi. Hiqildoq ishi va tovush boyamlarini bir-biriga mahkam jipslashtirgan holda tovush tashkil etishga o'rgatadi. Qattiq hujumdan noto'g'ri yoki doimiy ravishda foydalanish natijasida, tovush qisilib, qattiq ijro etilishi holatlariga duch kelishimiz mumkin. Shuning uchun qattiq hujumdan ayrim asarlarda ifoda vositasi sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

Yu m sh o q h u j u m yordamida tovush hujumlarini rivojlantirish va ovozni tarbiyalash yaxshi samaraga olib keladi. Bunda nafas va tovush boyamlari bir vaqtning

o‘zida ishga kirishadi va aniq muvofiqlashadi. Ovozning mayin, turtkisiz hosil bo‘lishi va sof ohanglanishida yumshoq hujum muhim o‘ringa ega.

N a f a s o l i sh d a n k e y i n g i h u j u m da avval nafas yuborilib so‘ngra tovush boylamlari sust holda ishga qo‘yib yuboriladi. Hujumning bu turida tovush ko‘tarilishiga moyillik sezadi, ya’ni tovush hosil bo‘lishidan oldin glissando paydo bo‘ladi. Oldin nafas hujumi siqilib chiqadigan ovozlar uchun juda foydalidir. Hiqildoqdan o‘tayotgan nafas oqimi natijasida tovush boylamlari ishga tushadi, shuning uchun ular mahkam yopilishga ulgurmay tovush bo‘g‘ilishi bartaraf etiladi. Hujumining bu turini uzoq muddat qo‘llash ham zararlidir, bunda, kuylashda notaga nisbatan ko‘tarilishni yuzaga keltirishi, tembr tozaligi va ravonligi yo‘qolib, unda shovqinli tovushlar paydo bo‘lishi mumkin. Oldin nafas hujumi ham qattiq hujum kabi ifoda vositasi sifatida amalga oshirilishi mumkin.

Har bir xonanda tovush hujumi turlarini yaxshi bilishi zarur. Tovush hujumi ovoz paylari tebranishini yaxshi his etishga yordam beradi. Tovush hujumi ovoz apparatiga pedagogik ta’sir uchun eng zarur vosita hisoblanadi. Xonandaning ovoz teshigi xaddan ziyod aktiv yoki sust ishlagan vaqtida tovush xujumlari yordamida pedagogik ta’sir metodi qo‘llaniladi.

### **Ko‘krak va bosh rezonatorlari**

Tarang devorlardan iborat havo hajmi r e z o n a t o r deb hisoblanadi. U o‘z ohangi yoki obertoniga mos keladigan ma’lum chastotali tovushga aks-sado beradi. Vokal pedagogikasida bosh va ko‘krak rezonator tushunchalaridan keng foydalanadilar.

Ovoz boshda rezonatorlanganda tovush yorqin, baland, eshitiladi. Ko‘krak qismida rezonatorlanganda - boy va “go‘shtli” yangraydi.

Og‘iz va yutqin rezonansi unlilar sadolanishiga olib keladi. Yuqori kuylash formantasi shakllanishi butun hiqildoq rezonansiga bog‘liq. Tanglay qubbasidan yuqorida joylashgan rezonator - bu bosh rezonatoridir. Yuqori rezonatorni hosil etuvchi a’zolar suyak va tog‘aylardan iborat, ular shaklini o‘zgartirmaydi.

K o‘ k r a k r e z o n a t o r i - erkaklar ovozi diapazonining 1,5 oktavasini tashkil etadi, ayollar esa ko‘krak rezonatoridan ovoz hosil qilishdan pastki va o‘rta diapazon

qismida foydalanadilar. Akustik nuqtai nazaridan bu traxeya va yo‘g‘on bronxlarda ro‘y beradi.

Bosh va ko‘krakda rezonatorlash ovoz teshigining u yoki, bu faoliyati natijasidir. Rezonatorlash hissi hiqildoq ishini reflektor boshqaradi, shuning uchun kuylash vaqtida rezonatorlash o‘z-o‘zidan, yengil sodir bo‘ladi. Doim sadolanishda bosh va ko‘krak rezonatorlari uyg‘unligiga erishishga harakat qilish kerak. Bunda biz o‘tkinchi registr holatida kuylashdan holi bo‘lamiz. Yaxshi bosh rezonatorga ega bo‘lgan tovush jarangdor, yorqin va “temirsado”li bo‘ladi. Ko‘krak rezonatorli ovoz esa – yo‘g‘on va “go‘shtli” bo‘ladi.

Bosh rezonatorlar - tanglay majmuasi yuqorisida gumbaz bo‘lib, bosh suyaklarining yuz qismida joylashgan. Bosh rezonator tushunchasiga kiruvchi barcha kovaklar suyak va toqayli devorlarga mahkamlangani uchun ham o‘z hajmini hamda rezonatorlik xususiyatlarini o‘zgartirishga moyil emas. Buruning eng katta qo‘s Shimcha bo‘shliq – gaymor bo‘shlig‘i, uning diametr o‘lchami 3 sm bo‘lib, 3000 gts chastotasiga, ya’ni yuqori ashulachilik formantasiga rezonans beradi. Shuning uchun rezonatorga “tushgan” tovush - to‘g‘ri shakllantirilgan ohangdir. Biroq bosh rezonator tovushning yaxshi jarangdorligiga bosh omil hisoblanadi degani emas. Bosh rezonator hiqildoqdan chiqayotgan va o‘zida ko‘plab yuqori obertonlarga ega bo‘lgan tovush mavjud bo‘lganida javob beradi. Xonandalardagi bosh rezonatori sezish joyi turlicha: ba‘zilarda u “niqob” soxasida, boshqalarda - yuqori tishlarning old qismida, uchinchisida - peshona bo‘shlig‘ida, to‘rtinchisida - boshning tepa qismida va qattiq tanglay sohasida bo‘ladi. Ovozning tebranish joyi tovushning ko‘tarilishi bilan o‘zgarib turishi mumkin.

Bosh jarangdorlikni his etishga undovchi uslublar mavjud. Bu uslublar “m” va “n” undoshlarini kuylash bilan bog‘liq. Bu uslubni “zamzama” deb nomlashadi. Tarkibida 3000 gts obertonlariga doimiy ega “i” unlisidan foydalanish, qattiq hujum yoki nafas tayanchi foydalanish boylamlarni qo‘shilishini faollashtiradi.

Ko‘krak rezonatorlariga nafas yo‘llari, ya’ni kekirdak va bronxlar kiradi. Kekirdak 15sm dan iborat bo‘lib, taxminan 500 gts. chastotaga rezonans beradi. Aynan shu chastota ovozga yo‘g‘onlik, “go‘shtlik” va ko‘krak koloritni hosil qiladi. Tovush boylamlari ko‘krak turi bo‘yicha o‘z tebranishida ishlasa ko‘krak jarangdorligi

g‘oyatda kuchli bo‘ladi, shuningdek ko‘krak rezonatorlari faqat yaxshi ifodalangan past chastotali tovushlarga javob beradi. Ko‘krak rezonatorining ahamiyati bosh rezonatornikiga o‘xshaydi. Xonanda ko‘krak rezonatsiya bo‘yicha fonatsiyani nazarda tutsa tovush boylamlari ishi yengillashadi.

Bosh va ko‘krak rezonatorlarining bir vaqtida jaranglashi tovush boylamlarini qorigish xolda tebranishiga olib kelib parda sinishini xis qilmay, tekis ovoz bilan barcha diapozonda kuylashga imkonini beradi.

Faqat bosh yoki faqat ko‘krak jarangdorligini oshirishda tovushni inqiroziga olib borishi mumkin. Bosh jarangdorlikni oshirib borish asta-sekin tovushlarni qisqartirilishiga, ovozning ingichkalanishiga, tovushning to‘laqonli chiqmasligiga olib keladi. Ko‘krak jarangdorligidan noto‘g‘ri foydalanish tovushni og‘irlashtirib, registrarning o‘tish jarayoni sezilib, tovush tebranishi kengayib chuqurlashishiga, detonatsiya yuzaga kelib, yuqori notalar yo‘qolishiga olib keladi.

Butun diapazon davomida ko‘krak va bosh rezonatorning ishlashi bu ovozning yaxshi va to‘g‘ri qo‘yilganligini bildiradi.

### **Ovoz tayanchi**

T a ya n ch - bu xonandaga o‘z ovozidan erkin va qiyinchiliksiz foydalanishiga sharoit yaratib beruvchi eng asosiy hisdir.

O v o z t a ya n ch i deganda, ovoz hosil qilishning to‘g‘ri bo‘lishini ta’minlovchi, murakkab his aytildiki, bu his aniq va turg‘un bo‘lganligi uchun yana tayanchli ham deyiladi.

Tayanch hisi sub’ektiv his etiladi va shuning uchun har bir xonanda, uni turlicha his etadi.

Tovush tayanchi tushunchasiga: ovoz paylari pastki qismi bosimini ko‘tarish, nafas, hiqildoq mushaklari va vibratsiyali hisning taranglashishi kiradi.

Professional xonanda ovoz apparati kuylash vaqtida hiqildoqqa kirish qismining keskin torayishi bilan xarakterlanib, tayanchli tovush hisini uyg‘otadi. Hiqildoqqa kirish qismining torayishida hiqildoqning kirish qismidagi xalqasimon mushaklar, yana hiqildoqni o‘rab turgan a‘zolar: til ildizi, hiqildoq tepasi, til ostidagi suyaklar ishtirot etadi.

O‘quvchida mashg‘ulotlar boshida tayanch hisi bo‘lmaydi. Vaqt davomida tayanch hisi paydo bo‘la boshlaydi. Ovoz tayanchini tashkil etishga undovchi bir qator usullar mavjud. Tovush chiqarmasdan oldin nafasni tutib turish umum qabul qilingan usul sanaladi. Shuningdek qattiq hujum ham taklif etiladi.

Yengil ovoz hosil qilish, ovoz mushaklarining toliqmasligi uchun, hiqildoqning ustki va osti bosimini to‘g‘ri boshqarish kuchini topish kerak.

Tayanch hissini o‘zgarishi ovozning professionallik sifatini yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Tayanch hissi kuylayotgan vaqtida o‘ziga ishonchni tug‘diradi va ovoz hosil qilishni qulaylashtiradi. Bu hisni topish va rivojlantirishga intilmoq kerak.

Xonanda vokal texnikasini o‘zlashtirish jarayonida qo‘shiqchilikning xilma - xil turlarini o‘rganib borishi kerak. Zamonaviy opera - kontsert dasturida mavjud vokal - texnik vositalarning barcha zahiralarini to‘liq egallahni talab etadi, negaki xonandalar turli repetuarlarni katta mumtoz ashulalardan to zamonaviy bastakorlarning qo‘shiqlarigacha kuylashiga to‘g‘ri keladi.

K a n t i l e n a - kuylash bilan bog‘liq mayinlik, tovushdan tovushga o‘tadigan kuychanlik hisoblanadi. Deyarli barcha milliy ashulachilik maktablarining asosi kantilena hisoblanadi. Biroq legato kuylash kantilena xarakterini to‘liq ochib bermaydi. Kantilena - ovozning kuychanligi - albatta ovozda erkinlik mavjudligini talab qiladi. Vibrato (ya’ni ovozning tebranishi) mavjudligi ovozga kantilena, tekis-ravonlik xususiyatini ta’minlaydi. Faqatgina to‘g‘ri qo‘yilgan xonandalar ovozi vibratoga ega bo‘lishi mumkin. Zo‘riqtirilgan, nafasdan olib tashlangan yoki qisilgan ovoz kantilenaga ega bo‘la olmaydi. Demak kuylashda kantilenaga ega bo‘lish bevosita to‘g‘ri tovush hosil qilishi bilan bog‘liq.<sup>12</sup>

P o r t a m e n t o - tovushning majburiy sirg‘alishini, uning yuqoriga va pastga qarab glissandoli kuylashni bildiradi. Portamento muallif tomonidan maxsus belgilanib, vokal uslubi sifatida qo‘llaniladi. Agar portamento usuli qiyinchilik tug‘dirsa, nutq hayratlanish intonatsiyasi (yuqoriga portamento), tasdiqlash intonatsiyasi (pastga portamento) ustida mashq qilish foydali bo‘lib, so‘ngra esa mazkur tuyg‘uni saqlagan

---

<sup>12</sup> Muxamedova G. Xonandalik uslubiyoti asoslari.T., 2007 (49 б.)

intervalni kuylash taklif etiladi. Bundan tashqari tovushlar orasida xromatik gammalar mavjudligini ko‘z oldiga keltirib, tez harakatlar bilan kuylash lozim.

K o l o r a t u r a - chaqqon, tez sur’atda, texnika bilan kuylash bo‘lib, XVII asr ikkinchi yarmi va XVIII asrlardagi vel santo davridagi asarlarning aksariyati koloratura asosiga qurilgan. XIX asrda Rossinidan keyin g‘arb musiqasida koloratura ayollarning yuqori tovush ijrosi uchungina qo‘llanila boshlandi. Barcha turdagи ovozlar uchun koloratura texnikasini o‘zlashtirish zarur. U mahsus tanlab olingan mashqlar va ovozni shakllantirish uchun vokalizlar orqali rivojlanib boradi.

Pedagog muntazam ravishda intonatsiya sofligi, hujum aniqligi va barcha notalarda kuylashni kuzatib borish kerak. Xonandalar dastlab, kichik gammalarni, arpedgio, forshlag va gruppetolarni o‘zlashtirish lozim bo‘ladi. Koloratura texnikasi ustida ishslash — hiqildoq uchun mashg‘ulot hisoblanadi. Chaqqonlik, tezlik texnikasi ustida ishslash, xonanda diapazonining rivojlanishini yengillashtiradi va ovozni zo‘riqtirishga qarshi kurashish uchun foydalidir.

T r e l - koloratura texnikasining eng murakkab turlaridan biri hisoblanadi. Yozuvda u “tr.” deb ko‘rsatiladi. Bunda kichik yoki katta sekunda oralig‘ida ikki tovushning bir-biri bilan tez almashuvi tushuniladi. Trel hiqildoqning yaxlit tebranishida amalga oshirilib, yuqori va past tovushlar tutilishidagi yuqori va pastga kengaygan vibratoni eslatadi. Trel hiqildoqning erkinligi va o‘zgaruvchanligini yana ham katta darajada ishlab chiqib, uni elastik va tarang qiladi. Trelni o‘zlashtirishda xonandalik nafasi ham yaxshi rivojlanishi mumkin.

Vokal texnikasi turlaridan yana biri tovushni f i l i r o v k a qilish hisoblanadi. Fili (Fil— ip — fr.) nomining o‘zi shuni ko‘rsatib turibdiki, u tovush kuchini o‘zgartirishga ega bo‘lib, tovushni arang eshitilish darajasiga keltirib qo‘yadi. Bu tovush dinamikasini ravonlik bilan forte dan pianoga va pianodan forte ga tomon o‘zgartira oladi. Filirovka qilish xonanda tovushini tashkil etishning a’lo darajadagi namunasidir.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Tovush paydo bo‘lish vaqtি nima deb ataladi?
2. Tovush hujumi turlariga ta’rif bering?
3. Ovoz hosil qilishning ikki nazariyasi nimadan iborat?
4. Formanta tushunchasi nimani anglatadi?

5. Ovoz tayanchi deganda nimani tushunasiz?
6. Xonanda vokal texnikasini o‘zlashtirishda qanday turlarini o‘rganish lozim?

## **2.5. Xonanda ovozi va uning tavsifi**

Xonandalik san’ati rivojining dastlabki davrida ovozlar tavsifi oddiy bo‘lgan: ikki turdag‘i erkaklar va ikki turdag‘i ayollar ovozlari, bu bo‘linish shu kunlarga gacha davom etgan. Vokal dasturlarining murakkablanishi natijasida ovozlar tavsif jixatidan bora-bora bo‘lindi.

### **Erkaklar ovozi:**

#### **Tenor (s-s<sup>2</sup>)**

tenor-altino	- yengil va tiniq yangraydi d <sup>2</sup> gacha chiqishi mumkin. N.Rimskiy-Korsakovning “Oltin xo‘rozcha” operasidan Munajjim, “Qorqiz” operasidan Shoh Berendey, M.Musorgskiyning “Boris Godunov” operasidan Devona partiyalari.
lirik	- mayin, kumushsimon tembr. M.Ashrafiyning “Dilorom” operasidan Moniy, P.Chaykovskiyning “Yevgeniy Onegin” operasidan Lenskiy partiyalari.
lirik-dramatik	- diapazoni keng. J.Bizening “Karmen” operasidan Xoze, P.Chaykovskiyning “Pikovaya dama” operasidan German partiyalari.
dramatik	- baquvvat ovoz, dramatik holatni ochib beradi J.Verdining “Otello” operasidan Otello, Karuzo, Monako va boshqalar partiyalari.
xarakterli	- chiroydan holi. P.Chaykovskiyning “Yevgeniy Onegin” operasidan Trike partiysi.

## **Bariton (A-g<sup>1</sup>)**

- lirik -tenor tembriga yaqin, lekin bariton jihatlariga ega. P.Chaykovskiyning “Yevgeniy Onegin” operasidan Onegin, J.Rossining “Seviliya sartaroshi” operasidan Figaro partiyalari.
- lirik-dramatik - yorqin tembr, sezilarli kuchga ega. M.Musorgskiyning “Boris Godunov” operasidan Boris, J.Verdining “Rigoletto” operasidan Rigoletto partiyalari.
- dramatik -sadolanish jihatdan bas ovoziga yaqin. Kuchli, partiya, past tessiturada ijro etadi.

## **Bas (F-f<sup>1</sup>)**

- bas-bariton - baland, kuychan bas.
- (bas-kantanto) M.Glinkaning “Ivan Susanin” operasidan Susanin, Sh.Gunoning “Faust” operasidan Mefistofel, A.Borodinning “Knyaz Igor” operasidan “Galitskiy” partiyalari.
- markaziy bas -basning jarangdor, kuchli, markaziy qismi. A.Borodinning “Knyaz Igor” operasidan Konchak, A.Dargomijskiyning “Rusalka” operasidan Melnik partiyalari.
- past (bas profundo) -“chuqur” bas past registrda to‘liq va past sadolanadi.
- oktavachi baslar -xor jamoalarida ishlatiladi. F katta oktavaga tushishi mumkin.

## **Ayollar ovozi:**

### **Soprano (c<sup>1</sup>-c<sup>3</sup>)**

- koloratura - eng yengil, tiniq va yorqin sadolanadi. Harakatchan ovoz. N.Rimskiy –Korsakovning “Qorqiz” operasidan Qorqiz, J.Verdining “Traviata” operasidan Violetta partiyalari..
- lirik-koloratura - yo‘g‘onroq, to‘laroq eshitiladi.

- lirik - iliq, yoqimli tembrga ega bo‘lib yumshoq sadolanadi D.Puchchinining “Chio-Chio-San” operasidan Chio-Chio-San, P.Chaykovskiyning “Yevgeniy Onegin” operasidan Tatyana, M.Ashrafiyning “Dilorom” operasidan Dilorom partiyalari.
- liriko-dramatik - diapazoni to‘liq, ko‘krak tembrli, bo‘rttirilgan, kuchli sadolanadi. J.Verdining “Aida” operasidan Aida, P.Chaykovskiyning “Pikovaya dama” operasidan Liza, M.Ashrafiy va S.Vasilenkoning “Bo‘ron” operasidan Norgul partiyalari.
- dramatik - baquvvat sadolanadi. Pastki ko‘krak registri tovushlarga ega.

### **Metsop soprano**


- yuqori - pastki ko‘krak, iliq tembr. P.Chaykovskiyning “Pikovaya dama” operasidan Polina, Sh.Gunoning “Faust” operasidan Zibel, S.Yudakovning “Maysaraning ishi” operasidan Maysara partiyalari.
- past - yanada chuqurroq, qalin sadolanadigan past tembr.


### **Kontralto**


- ayollarning eng past ovozi bo‘lib, quyuq tembrga ega, juda kam uchraydigan ovoz, erkaklar partiyalarini ham berishadi. M.Glinkaning “Ivan Susanin” operasidan Vanya, “Ruslan va Lyudmila” operasidan Ratmir partiyalari.

## Aralash xor, ayollar xori va erkaklar xorlarining sahnada joylashish holati


(O‘zbekiston va AQSh davlatlari misolida)

Elizabeth A.H.Green. “The modern conductor” USA. Pearson Prentice Hall. 2004.	Sharafieva N. Xorshunoslik. T., G‘.G‘ulom nashriyoti, 1987.
<p><b>Jadval A-1.</b> Kuchli tenorlar, baslar hamda soprano va alt yetarlichcha to‘liq bo‘lganida bu tuzilma yaxshi sadolanadi.</p> 	<p><b>Aralash xorlar</b></p> <p>Soprano, alt, tenor, bas partiylaridan iborat, to‘liq tarkibdagi aralash xor boshqa xor turlariga nisbatan keng tarqalgan. Diapazani to‘rt oktavadan ortiq (<math>ly\alpha^{kontr}</math>-do<sup>3</sup>). Bu xorning ijrochilik imkoniyatlari keng va xilma xil. Tembr rang-barangligi, texnik imkoniyatlarining kengligi, dinamik belgilarga boyligi (pp dan - ff gacha) jixatidan aralash xor eng murakkab asarlarni ijro qilish imkoniyatiga ega. Aralash xorning (ovozlar soni jixatidan) rang-barang "ko‘p qatlamli" sadolanishini simfonik orkestrning sadolanishiga o‘xshatish mumkin.</p> <p><b>1-jadvalda</b> ko‘rsatilgan yevropa aralash xorining sahnada joylashishi O‘zbekiston va MDX davlatlari xorining sahnada joylashishi bir hil.</p>

<p>Jadval A-2. Tavsiya qilinuvchi kuchli sozlamalar shu yerda berilgan. Birlashgan kuchlar erkaklar ovozidan avvalgi qo'shiluvchi soprano va altoga berilgan. Bu sozlama yana maktab guruhlaridagi jur'atsiz bolalarning ovozi uchun ham yaxshi. Tenor va baslarning ikkovining markazlashuvi dirijyorga yaqinlashuv orqali ularga ishonch beradi.</p> 	<p>2-jadvalda ko'rsatilgan yevropa aralash xorining sahnada joylashishi amaliy tajribaga asosan biroz noqulaylik tug'diradi, chunki S,B va T,A, xor partiyalari bir biriga zid ovoz tembrlari bo'lib ularni S,T va A,B joylashtirish maqsadga muvofiqdir.</p>
<p>Jadval A-4. Bu ko'rinish yaxshi qachonki tenor va baslar kuchli bo'lganida. Shuni e'tiborga olingki, bunda tenor sopranolar bilan bir qatorda ko'rsatilgan, bu ba'zi dirijyorlar tomonidan ma'qullanadi. Tenorlarning bunday joylashuvi bundan avvalgi jadval uchun ham qulay. (249 bet)</p>	<p>4-jadvalda xorining sahnada joylashishining eng qulay holati ko'rsatilgan. S,T va A,B ovoz partiyalari ham membr, ham texnik imkoniyatlari bir biriga ham ohang.</p>



Jadval A-6. Ayollar xori. Bu shu kabi vokal ansambl uchun standart sozlama, bunda vokal kompozitsiyadagi birinchi va ikkinchi sopranolar o‘rtasida odatiy yaqin sadolanish bo‘ladi. Boshqa tanlovda esa alt partiyalarini o‘rtaga joylashtirish mumkin.



Jadval A-7. Erkaklar xori. Eng ko‘p yaratiladigan tuzilma shu yerda keltirilgan.

(250 bet)

Ayollar xori soprano va alt partiyalaridan iborat. Diapazoni 2 oktavadan oshiqroq (fa-sol<sup>kich</sup> - lya<sup>2</sup>). Odatda ayollar xori SI-SII va alt ovozlarini o‘z ichiga oladi. To‘rt ovozli ayollar xori I-II soprano va I-II alt ovozlaridan tashkil qilinadi. Alt partiyasi ovozlarini guruhlarga bo‘lish kam hollarda uchraydi. 5-6 va undan ortiq ovozli ayollar xori deyarli uchramaydi.

6-jadvalda ko‘rsatilgan ayollar xorining sahnada joylashishi O‘zbekiston va MDH davlatlari xorining sahnada joylashishi bilan bir hil.

Erkaklar xori tenor va bas partiyalaridan iborat. Diapazoni 3 oktavadan ortiq (lya<sup>kat</sup> - lya<sup>1</sup>-do<sup>2</sup>). Erkaklar xori T I - T II va baslardan yoki tenorlar, baritonlar va baslardan tashkil qilinadi. To‘rt ovozli erkaklar xori I-II tenorlar va I-II baslardan tuziladi.

7-jadvalda ko‘rsatilgan erkaklar xorining sahnada joylashishi O‘zbekiston va MDH

	davlatlari xorining sahnada joylashishi bilan bir hil.
<p>Jadval A-8. Erkaklar xori. Bu tuzilma ham standart ko‘rinishga ega va xohlagan vaqtda yoki akustik maqsadlarda ishlatish mumkin.</p> 	<p>Erkaklar xori katta ijrochilik imkoniyati va repertuariga boy. Boltiqbuyi, Gruziya, Bolgariya, Chexoslovakiya mamlakatlarida erkaklar xori milliy xor madaniyatining asosi hisoblanadi.</p> <p>8-jadvalda ko‘rsatilgan erkaklar xorining sahnada joylashishi O‘zbekiston va MDH davlatlari xorining sahnada joylashishi bilan bir hil.</p>

## O‘tkinchi (medium) notalar va ovoz harakatining ravonligi

### O‘tkinchi notalar:

#### Ovoz turini aniqlash

Tovushni to‘g‘ri shakllantirish va uni rivojlantirishning shartlaridan biri uning turiga tug‘ri tashhis qo‘ya bilish hisoblanadi.

O‘tkinchi notalar va primar pardalarda tembr, ovoz diapazoni, tessitura tuta bilish qobiliyati, shuningdek tovush boyamlari uzunligi va ortga qaytuvchi nervning xronaksiyasi orqali ovoz turlarini aniqlash tavsiya etiladi.

Tembr va diapazon asosida xonanda qaysi tur ovoz egasi ekanligini aniq aytib berish mumkin emas. O‘z turiga mansub bo‘lmagan keng diapazonli tovushlar ham uchraydi yoki uning aksi ularok diapazonning yuqori yo pastki qismi qisqarishi kuzatiladi. Yana shunday xam bo‘ladiki, tembr bir tur ovozga to‘g‘ri kelsa, diapazoni esa unga javob bera olmaydi.

Ovoz turini aniqlashda o'tish notalari bilan tanishish muhim o'ringa ega. Ma'lumki, turli ovozlar turli balandlikda o'tish notalarga ega. Har bir ovoz turining o'tish notalari turli balandlikda joylashadi:

Tenor: Mi<sup>1</sup>-fa-fa<sup>#</sup>

Bariton: Re<sup>1</sup>-mi<sup>b</sup>-mi

Bas: Ly<sup>a<sub>kich</sub></sup>-si<sup>b</sup>-si-do-do<sup>#</sup>

Soprano: Mi<sup>1</sup>-fa-fa<sup>#</sup> va mi<sup>2</sup>-fa-fa<sup>#</sup>-sol

Metso-soprano: Do<sup>1</sup>-re-re<sup>#</sup> va do<sup>2</sup>-re-re<sup>#</sup>

O'tish notalar ayollar ovozida diapazonning past qismida, erkaklarda esa diapazonning yuqori qismida joylashgan. Shuni eslatish lozimki ayollar ovozlarining yuqori qismida ham o'tish notalar bor, ammo ular unchalik sezlarli emas.

Erkin, tabiiy va chiroyli jarangdorlikka ega primar tovushlar ovoz turini ajratishda katta ahamiyatga ega. Ular asosan tovush diapazonning o'rta qismida mavjud bo'ladi: tenorda - birinchi oktavadagi *do*, sopranoda - ikkinchi oktavadagi *do*, baritonda - kichik oktavadagi *lya*, metso - sopranoda - birinchi oktavadagi *lya*, basda - kichik oktavadagi *fa* notasi.

Tessitura tushunchasi ijro etilayotgan asardagi tovushning bir maromda tutib turgan diapazon qismidagina aks etadi. Agar tovush xarakter jihatidan tenorga yaqin bo'lsa, lekin tenorga xos tessiturani ushlab turmasa, extimol u tovush bariton bo'lishi mumkin.<sup>13</sup>

Ovoz turlarini aniqlashda - anatomik - fiziologik usullar mavjud. Turli turdag'i ovozlarga turli uzunlikdagi tovush boyamlari muvofiqligi oldindan ma'lum. Ovoz kancha baland bo'lsa, tovush boyamlari shuncha qisqa va nozik bo'ladi. Yusson ayollar tovushini 19, erkaklarniki esa 17 guruhga bo'ladi. Shunday qilib ovoz turini belgilar majmui orqaligina aniqlash mumkin.

Ovoz harakatining ravonligiga erkaklar ovozida, ovozini to'g'ri hosil qilish va registrlarni aralashtirish orqali erishiladi.

Xiralashgan tovush - kekirdak trubalari impedansi kengayishi natijasidir.

Mikstlash (aralash) - paylarining asosiy ish faoliyati.

---

<sup>13</sup> Мухамедова Г. Хонандалик услубиёти асослари. Т., 2007 (55-56 б.).

Berkik - yuqoridagi ikki turning birlashgani. Berkik tovush usullari: taqlid, “O” va “U” ning chuqur talaffuzi, mikstlash va xiralashtirish. Aralashtira olish xarakteri o‘quvchining ovoz apparati individual xususiyatlariga bog‘liq.

Aralashtira olish xarakteri o‘quvchining ovoz apparati individual xususiyatlariga bog‘liq.

Diapazonning o‘rta qismida tovushni to‘g‘ri hosil qilish, dinamik jihatdan to‘g‘ri tuzish, nafas yetkazib berish nuqtai nazaridan sadolanishning “yuqori pozitsiya”da bo‘lishi diapazonning yuqori qismida tovushni berkik holatini to‘g‘ri topish degani.

Ovozning yuqori notalarga o‘tishini, berkik va aralash ovoz hosil qilishni quyidagi “davolovchi” vositalar yengillashtiradi: faltset, nafas olishdan keyingi hujum. Shuning uchun: o‘rtacha kuchli tovush, yumshoq tovush hujumi, yumshoq sadolanish, “O” va “U”da impedansni kengayishi, uzluksiz va yumshoq nafas, tovush tayanchi hisi tavsiya etiladi.

Ayollar ovozida diapazon davomida tovushlar tekisligiga erishish, diapazonning o‘rtasida ovoz hosil qilishning aralash turi tabiiy borligi uchun osonlashadi. Ayollarda diapazon tekisligi ustida ishslash printsiplari huddi erkaklarnikiga o‘xshashdir.

Primar tovush - kuylovchi ovozidagi eng qulay va tabiiy tovush.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Xonanda ovozi va uning tavsifi haqida ma’lumot bering?
2. Qanday belgilar orqali ovoz turlarini aniqlash taklif etiladi?
3. Har bir ovoz turining o‘tish notalari haqida gapiring?

## **2.6 Kuylayotganda lab, til va yumshoq tanglay ish faoliyati**

Vokal san’ati - musiqa va adabiy-she’riy ijodiyotni birlashtiruvchi san’atdir. Ashulachilikda chiroyli professional darajadagi ovoz yangrashi bilan aniq talaffuz ham talab qilinadi. Aniq talaffuz texnikasiga ega bo‘lish vokal ijrochiligining zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Talaffuzda turli organlar ishtirok etadi: til, lablar, yumshoq tanglay, xalqum hamda ostki jag‘. Talaffuz apparatining asosiy organi tildir. Tilning muskulaturasi har tomonlama rivojlangan, shuning uchun uning harakatchanligi va o‘zgaruvchanligi juda katta. Og‘iz-xalqum bo‘shlig‘ida til holatining o‘zgarishi og‘iz


va xalqum bo'shliqlarining o'zgarishiga olib keladi. Til orqaga surilib past holatni egallaganida xalqum bo'shlig'i qisqaradi, og'iz bo'shlig'i esa kengayadi. Til tepaga ko'tarilib oldinga chiqarilsa aks holat hosil bo'ladi. Tilning ildizi til osti suyagiga bog'langani uchun uning harakatlari hiqildoqqa ta'sir qiladi. Shu sababli ashulachilik jarayonida til katta ahamiyatga ega. Til undoshlarning ko'pida va barcha unlilar aytishida ishtirok etadi, shuning uchun til shol bo'lib qolsa yoki olib tashlansa odamda nutq qobiliyati butunlay yo'qoladi. Tilning "klassik" holati haqida fikr mavjud. Shunday holatda tilning cho'qqisi past tishlarga tegib, o'rta qismi esa qoshiq shaklidagi chuqurlikni ushlab turishi kerak. Ushbu klassik holat "a" harfida hosil bo'ladi. Ammo nutqimiz turli harflardan iborat, shuning uchun so'zlaganda bu holat albatta o'zgaradi. L.B.Dmitriev tadqiqotlari professional kuylashda tilning klassik holati bo'lishi shart emasligini ko'rsatdi. Misol uchun, Tito Ruffo yoki Fyodor Shalyapin kuylaganida ularning tili ko'tarilgan holatida bo'lib tilning cho'qqisi titrab turar edi.

Nutq paytida 1 a b l a r har bir unli uchun o'ziga xos holatni egallaydilar. "I" harfida lablar tortilib tishlarni ko'rsatadi, "u" harfida esa oldinga cho'ziladi. Kuylash paytida lablar standart holatni egallaydi. Ushbu standart holat ko'proq ovoz turiga bog'liq bo'ladi. Soprano va yengil tenorlar kuylashda tabassumdan foydalanadilar, bas, bariton va metstso-sopranolar esa lablarini oldinga tortadilar. Lablarning bunday standart holatni egallashi ovozning tembri o'zgarishiga olib keladi. Ovozning yorqinligi va yengilligi tabassum orqali hosil bo'ladi, lablarning oldinga tortilishi esa ovozning to'qligi, "go'shtligi"ga olib keladi. Aslida lablar holatini ovozning eng yaxshi sifatlari hosil bo'lishiga asoslangan holda topish kerak.

Qo'shiq kuylash paytida yu m sh o q t a n g l a y burun-xalqum bo'shlig'ini to'sadigan pardadir. Yumshoq tanglayning harakatlanishi masalasiga turli yondashuvlar mavjud. Ba'zi pedagoglar uni faol ko'tarilishini, buning uchun ayniqsa yuqori notalarini olishdan oldin esnashni talab qiladilar. Boshqalar esa "yarim esnash" haqida so'z yuritib esnashning yumshoqligiga ahamiyat beradilar. Bu masala bo'yicha ham har bir o'quvchiga alohida yondashish lozim, chunki har bir xonandaning ovoz apparati tuzilishi turlicha. Birida yumshoq tanglay uzun bo'lsa, boshqasida qisqa bo'lishi mumkin va shunga qarab ovoz sifatlari ham har xil bo'ladi.

Xalq u m talaffuz apparatining eng o‘zgaruvchan qismi deb hisoblanadi. Uning hajmi til harakatlari orqali o‘zgaradi. Professional xonandalar doim xalqumning “erkin”ligi, “ochiq”ligi haqida gapiradilar. Bunday sezgilar faqat ovoz apparatining ishi to‘g‘ri bo‘lgan paytida paydo bo‘ladi. Uning erkinligini nafas olish paytida sezib, kuylash vaqtida saqlab qolish bilan rivojlantirish mumkin.

Ostki ja g‘ ning qisilishi boshlang‘ich xonandalarining eng keng tarqatilgan xatosi. Jag‘ning qisilganligi ovozning qisilishiga sababchi bo‘lib qolishi mumkin. Shuning uchun ostki jag‘ning yumshoqligiga va erkinligiga katta ahamiyat berish kerak. Og‘izning ochilishiga pedagoglarning qarashlari bir-biridan faqlanadi. Ba’zilar og‘izni katta ochilishini talab qilsalar, boshqalari “og‘zingni katta ochma, ayniqsa yuqori notalarni aytganingda”, deyishadi. Og‘izning ochilishini ham ovozning eng yaxshi xususiyatlari hosil bo‘lishiga qarab o‘quvchidan talab qilish lozim.<sup>14</sup>



15-rasm. Jag‘ holati: A) jag‘ning qisilgan holati. B) jag‘ning erkin holati.

<sup>14</sup> Janice L. Chapman, OAM, FG. Singing and teaching singing. 2012.(26-бет.)

## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Talaffuz apparatining asosiy organi xaqida ma'lumot bering?
2. Nutq paytida lablar har bir unli uchun qanday holatni egallaydilar?
3. Yumshoq tanglayning harakatlanishi masalasiga oid yondashuvlar haqida gapiring?
4. Xalqum talaffuz apparatining eng o'zgaruvchan qismi hisoblanib, uning hajmi qaysi organ harakatlari orqali o'zgaradi?
5. Qaysi organ qisilganligi ovozning qisilishiga olib keladi?

## **Xonandaning nutqi**

Matnni tinglovchiga to‘g‘ri yetkazish va kuylayotgan so‘zlarni aniq talaffuz etish - professional xonandalikning asosiy shartlaridandir.

Kuylayotganda nutq ravon (talaffuz aniqligiga erishish), tabiiy - ya’ni kuylashda tovushni buzmaydigan, ifodali (o‘ziga ifodali nutq elementlari jamlagan), kuychan (kuychan unlilar asosida) bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Talaffuz kuylayotganda nutq kabi ravonlik va undoshlarni aniqligi asosida bo‘ladi. Undoshlarning faol talaffuzi, bo‘rttirib aytilishi, kuyni buzmasligi uchun ularni tez talaffuz etib navbatdagi unliga bog‘lab kuylash kerak: Ya-va-slyu-blyu yoki me-nsi-zni se-va-rdim.

Juda ko‘p tajribasiz xonandalarning asosiy hatolari: bu so‘z oxiridagi undoshlarning, aniqrog‘i ularni tushirib qoldirishlaridir. Xuddi shunga o‘xshash hatolarning yana biri labning bo‘sashgan holati, bu kamchiliklar mashqlar orqali bartaraf etiladi.

Undosh harflarning aniq talaffuzi navbatdagi unlilarning hatosiz kuylanishi garovidir.

Kuylaganda so‘zlar ichida toza va aralash unlilar uchraydi. Toza unlilar so‘zlarda urg‘uli bo‘ladi, qolganlari o‘tkinchi. Masalan: Bog‘im-g/**a**/ k/**u**/y il-/**a**/ yor k/**e**/l, quvnoq /**o**/voz il/**a**/ /**yo**/r k/**e**/l.

Kuylash nutqining tabiiy bo‘lishi uchun qo‘sishqda so‘zlash ohangini va urg‘ularni to‘g‘ri ishlatish bilimi ahamiyatga ega, bu esa so‘zni ifodali qiladi.

Qo'shiqdagi aniq, tabiiy va ifodali so'zlar kuychan bo'lmog'i lozim, ya'ni: ovozning tekis, egiluvchan, ifodali ohangiga singdirilgan.

Kuylayotganda nutq tabiiy chiqishi uchun, ko'shiqqa so'zlashish ohangini singdirish kerak, bu o'rinda bo'g'irlarni kuylash shartlariga rioya etish talab etiladi, masalan unlilarni nota uzunligi davomida to'liq, "ushlab turib",-kuylash.

### **Ovoz tarbiyalashning fonetik uslubi**

Kuylash-musiqiy san'atning, ijro, kuylash vaqtida matnni ifodali yetkazib berish zarurligiga chambarchas bog'liq bo'lgan yagona turidir.

Kuylash asosan unlilar yordamida amalga oshiriladi. Ovozning kuychanligini rivojlantirishda fonatsiya bilimiga tayangan holda unlilarni to'g'ri tanlash kerak (so'zning ichidan).

"I" - unlisi pozitsiya jihatdan "yuqori" bo'lib, sadolanishda "yaqin" va "yorqin"dir. Unlilar orasida eng yuqori formantaga ega, shuning uchun jarangdor, yorqin, yaqin va yig'inchoq deb qabul qilinadi. Boshda rezonatsiyalash hisini uyg'otadi.

"Ye" - unlisi ham "yorqin" va "yaqin" sadolanadi. "I"ga qaraganda tarqoq yangrasa, "A", "O" va "U" larga nisbatan kengroq yangraydi.

Til og'iz bo'shlig'ida erkin joylashadi va u og'izni keng ochishga imkoniyat beradi. "Ye" - tovushi o'rtacha impedansga ega bo'lib, erkaklar ovozning yuqori registrini shakllanishi uchun qulaydir. U yana tovush hujumining aktiv bo'lishiga qulay, hiqildoq sust ishlaganda ko'l keladi.

"A" unlisi-tilning tinch holatida hosil qilinadi, yutqin toraygan, og'iz esa keng ochilgan bo'ladi. Bu harf jarangli bo'lgani uchun ijro etish ortiqcha harakat talab etmaydi. Uning yorqin va jarangli, yaqin sadolanishi ovoz teshigi ish faoliyati va hiqildoqqa tepa ovoz paylarining tashkillanishiga bog'liq. Agarda hiqildoqda yuqori obertonlar yaxshi hosil qilinmagan bo'lsa "A" tovush sifatida xira va uzoq sadolanadi. "A" harfini "yopiqroq" kuylash lozim.

"O" unli tovushi - "A" tovushining barcha hislatlariga ega, lekin tembr jihatdan to'qroq (hiraroq) sadolanadi va katta impedansga ega. Aynan shu sifati erkaklar ovozi diapazoning yuqori qismidagi tovushlarini yopiqroq bo'lishi uchun ishlatiladi.

"O'" unli tovushi - eng chuqur, to'q rangli sadolanuvchi "uzoq", "baxmal" tovush.

“U” - katta impedansga ega, undan ham erkaklar ovozi diapazoni yuqori qismini yopish uchun ishlatiladi.

Fonetik uslub tovush birikmalarini to‘g‘ri tanlashga yordam beradi, bu esa ovozning go‘zal sifatlarini namoyish etishga yordam berishi aniq.

### **Xonandaning hayot tarzi**

Xonandaning organizm faoliyati quvvat sarflash va uni tiklashdan iborat.

Barcha mehnat faoliyati kabi, xonandalik faoliyati ham mehnatning ma’lum bir normasini va uni vaqt jihatdan to‘g‘ri taqsimlashni talab qiladi.

Xonanda o‘zining birinchi navbatda xonanda ekanini unutmasdan, atrofga nazar tashlab, ma’lum qoidalarga rioya etib yashashi lozim.

Xonanda sog‘lom, psixikasi mustahkam bo‘lishi kerak. U albatta o‘z nerv sistemasini avaylashi kerak, uni turli zo‘riqishlardan, psixik travmalardan asrashi lozim. Lekin u issiq xona o‘simligiga ham aylanib qolishi kerak emas.

Qo‘sish qaylashni o‘rganayotganlar, o‘zini san’atga baxshida etganlar spirtli ichimliklar iste’moli va chekishdan saqlanishi shart.

Xonanda har kuni ashula aytishga tayyor bo‘lishi kerak. Buning uchun u ma’lum gigienik qoidalarga rioya qilishi lozim. Ovoz apparatini toliqishdan asray bilishi, ko‘p gapirmaslik, ortiqcha kuylamaslik, yuqori notalarni suiste’mol qilmaslik kerak. Mahsus tayyorgarlik ko‘rmay turib ashula aytish ovoz apparatini toliqishiga olib keladi. Mashg‘ulotlarni shunday taqsimlash lozimki, to‘xtamasdan ashula aytish bir soatdan ortmasligi shart.

Ovoz apparatining ish faoliyati ichki organlarning xolatiga bog‘liq, ularning nosog‘lomligi kuylash vaqtida kiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Xonandaning umumgigienik hayot tarzi dam olish, ishlash, ovqatlanish, badan tarbiya harakatlarini ma’lum darajadagi tartibini talab etadi. Masalan: xonanda kuylashdan 3-4 soat oldin ovqatlanishi, taomni keragidan ortiq yemasligi kerak.

Xonandaning o‘zi “musiqiy sozdir”. Uning ovozi faqat u sog‘lom bo‘lsagina yaxshi yangraydi. U asab tizimini avaylashi, vaqtida uxlashi va bu 7-8 soatdan kam bo‘lmasligi kerak. Sog‘lom xayot tarzini olib borish, ya’ni haddan tashqari ko‘p ovqatlanmaslik, oziq ovqat tarkibini kaloriyaga boy mahsulotlar to‘ldirish, piyoda

yurish, badan tarbiya bilan shug‘ullanish, tabiat qo‘ynida dam olish maqsadga muvofiqdir.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Professional xonandalikning asosiy shartlari nimadan iborat?
2. Qo‘shiq kuylash jarayonida unli va undosh harflarni talaffuz qilish qoidasi haqida gapiring?
3. Xonandanining umumgigienik hayot tarzi nimalardan iborat?

### **Fan yuzasidan keyslar to‘plami, amaliy topshiriqlar, ishlamalar**

Bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish talaba faoliyatining ta’lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o‘qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Mustaqil o‘qib, bilim orttirish jarayoni talabalarning mustaqil ijodiy tayyorgarlik ko‘rishi demakdir. Xonandalik uslubiyoti asoslari fani bo‘yicha bo‘lajak xormeysterlarning mustaqil ta’limi kasbiy-pedagogik faoliyatga muvofiq ijodiy mehnat natijasining samaradorligini oshirishga yo‘naltiriladi. Bunda o‘qituvchi o‘z mehnati natijalarini tahlil etib, o‘z tkasbiy pedagogik faoliyati mazmunini aniqlaydi. Bo‘lajak xormeystering mustaqil ta’lim olishidan asosiy maqsadi xonandalik mahorati malakasini oshirish, kasbiy faoliyatida yuqori yutuqlarga erishishdan iborat.

Modulli texnologiyalar - eng zamonaviy texnologiya bo‘lib, modul bloklaridan tashkil topgan axborotni tizimli ravishda qayta ishlash va tahlil qilishga, talabaning mustaqil faoliyatiga asoslangan, turli shakllardan foydalangan holda tashkil etiluvchi yaxlit jarayon. Modul tamoyillari, turlari, tarkibiy qismlari. Yevropa modul-kredit tizimini tahlili.

**Venn diagrammasi metodi.** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning tahlili va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiyl jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

### **Toifalash jadvali.**

1. T – jadvalni to‘ldirish qoidalari bilan tanishtiradi.
2. Jadvalni yakka tartibda rasmiylashtish vazifasini beradi.

Ajratilgan vaqt oralig‘ida yakka tartibda yoki juftlikda jadvalni to‘ldirish, uning chap tomoniga sabablari (ha) yozish, o‘ng tomoniga esa chap tomondagi fikrga qarama-qarshi fikr, g‘oya, omil va shu kabilar yozish jarayonini tashkil etadi. Kichik guruhlarga birlashish, jadvallarni solishtirish va to‘ldirish vazifasini beradi. Barcha o‘quv guruhi a’zolari bilan yagona jadval tuzadi.

**“Keys-stadi” metodi.** “Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruva fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Hou), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Way), Qanday/ Qanaqa (Haw), Nima-natija (What).

## “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari


<b>Ish bosqichlari</b>	<b>Faoliyat shakli va mazmuni</b>
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshiriqni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

**1.Keys bayoni.** Xor jamoasida ijro etiladigan asarlarda to‘g‘ri nafas faoliyatini shaklantirish maqsadida nafas olish turlari o‘zlashtiriladi.

**Keys topshirig‘i:** nafas olish turlari faoliyatini belgilang:

Turlari	Faoliyati
1.Qorindan	ko‘krak qafasi va diafragma aktiv ish holatida. Qorin ozgina oldinga chiqadi;
2.Ko‘krak qorin-(qovurg‘aning pastki qismi-diafragmalik)	nafas olish asosan ko‘krak qafasining pastki qismini kengayishi va ko‘tarilishi hisobiga bajariladi. Diafragma ishga kirishadi;
3.Ko‘krak (qovurg‘a)dan	ko‘krak qafasi qimirlamaydi, nafas olish diafragmaning ko‘yib yuborilishi bilan bajariladi. Qorin bu vaqtda oldinga chiqadi;
4. Ko‘krak osti-(qovurg‘a-diafragmalik)	ko‘krak qafasining tepe qismi ko‘tarilgan, diafragma passiv holatda ko‘krak qafasi orqasidan harakatlanadi. Qorin ichga tortiladi

## **Keys topshirig‘ini bajarish uchun ish qog‘ozi:**



**2.Keys bayoni.** Xor jamoalarining bir necha turlari mavjud. Har bir turiga oid xor jamoalari ham bir necha xor partiyalariga bo‘linadi.

**Keys topshirig‘i:** Berilgan xor jamoalari turlariga tegishli xor partiyalarini belgilang.

Asosiy turlar	Xor partiyalari
Aralash xor	
Erkaklar xori	
Ayollar xori	
Bolalar xori	

**Xor partiyalari:**

1. Soprano xor partiyasi;
2. Alt xor partiyasi;
3. Tenor xor partiyasi;
4. Bas xor partiyasi;
5. Diskant xor partiyasi.

**3.Keys bayoni.** Xonandalik uslubiyoti asoslari fanida ovoz hosil qilish malakalari va fiziologiyasini o‘rganar ekanmiz, ovoz apparati, kekirdak, nafas olish turlari va organlari haqida chuqur bilimga ega bo‘lishimiz shart.

**Keys topshirig‘i:** quyida keltirilgan atamalarni tavsiya etilgan sxemada qayta ifodalang.

1. Passiv;
2. Aktiv;
3. Yutqin;
4. Burun yutqin;
5. Til;
6. Diafragma;
7. Traxeya;
8. Bronxlar;
9. O‘pka;
10. Nafas olish va chiqarish paylari;
11. Qorindan;
12. Ko‘krak qorin;
13. Ko‘krak osti;
14. Ko‘krak (qovurg‘a);
15. Qalqonsimon tog‘ay;
16. Uzuksimon tog‘ay;
17. Yassisimon tog‘ay.

Eshitish qobiliyati	
Ovoz apparati	
Nafas olish organlari	
Nafas olish turlari	


Kekirdak	

**4. Keys bayoni.** Xonandalik san'ati rivojining dastlabki davrida ovozlar tavsifi oddiy bo'lgan: erkaklar va ayollar ovozlari, bu bo'linish shu kunlargaacha davom etib kelmoqda. Vokal dasturlarining murakkablanishi natijasida ovozlar tavsif jihatidan bora-bora differentsiyalandi.

**Keys topshirig'i:** quyida keltirilgan ovoz partiyalarini klaster texnologiyasi bo'yicha tarmoqlab chiqing.

1. Bariton;
2. Soprano;
3. Xarakatchan;
4. Pastki;
5. Bas;
6. Koloratura;
7. Profundo;
8. Yuqori;
9. Dramatik soprano;
10. Tenor altino;
11. Lirik tenor;
12. Dramatik tenor;
13. Lirik dramatik;
14. Metstso soprano;
15. Tenor;
16. Lirik soprano;
17. Kontralto;
18. Markaziy;
19. Lirik koloratura;
20. Oktavachi;

21. Lirik tenor.





## TOIFALASH JADVALI

1. Toifalar bo‘yicha ma’lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta mini - guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. Ta’lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan toifalarni berish mumkin emas bu ularning mustaqil tanlovi bo‘la qolsin.

Xonandalik uslubiyoti asoslari		
Ovoz apparati	Nafas olish organlari	Kekirdak tuzilishi
Xiqqildoq	O‘pka	Til
Yutqin	Bronx	Til osti suyagi
Burun-yutqin	Bronxiola	Hiqildoq qopqog‘i
Artikulyatsiya organlari	Alveola	Ovoz teshigi
Kekirdak	Til	Tovush boylamni
Bronxlar	Shiqildoq	Uzuksimon tog‘ay
Diafragma	Kekirdak	Qalqonsimon tog‘ay
	Kichik tilcha	Qalqonsimon tog‘ay doirachalari
	Hiqildoq	Uzuksimon tog‘ay
	qopqog‘i	

## NIMA UCHUN TEXNOLOGIYASI



## B/B/B JADVALI

### B/B/B JADVALI-

Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim.

Mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlanadiradi.

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida /kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

“Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo‘naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo‘limlarini to‘ldiradilar.

Ma’ruzani tinglaydilar, mustaqil o‘qiydilar.

Mustaqil kichik guruhlarda jadvalning 3 bo‘limni to‘ldiradilar

# B/B/B JADVALI

## asosida guruhli

### Dars ishlanmasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
<b>1-bosqich.</b> <b>O‘quv mashg‘ulotiga kirish</b> <b>(Da’vat bosqichi 20 daqiqa)</b>	1.1. Mavzuning nomlanishi, rejadagi masalalar va mustaqil o‘qish uchun adabiyotlarni bayon etish.  1.2. B–B–B strategiyasining “Bilaman” ustunini to‘ldirishni so‘rash.  1.3. Fanning tuzilmaviy-mantiqiy chizmasini taqdim etadi: fanning vazifalariga qisqacha ta’rif beradilar.  1.4. Fan miqyosida bajariladigan metodik va tashkiliy ishlar bilan tanishtiradi.  1.5. Fanning reyting nazorat tizimi va baholash mezonlarini tushuntirish.	Tinglaydilar, yozib oladilar.  “Bilaman” ustunini to‘ldirishadi.  Savollar bilan murojaat etadilar, aniq tasavvurlar tizimiga ega bo‘lish.  Reyting qaydnomasini to‘ldirishadi
<b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy (Anglash bosqichi 50 daqiqa)</b>	2.1. “B–B–B” strategiyasining “Bilmoq-chiman” ustunini to‘ldirish.  2.2. Xonandalik uslubiyoti asoslari fanining ob’ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini yoritib beradi.	“Bilmoqchim an” ustunini to‘ldirishadi.  Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etishadi,

	<p>2.3. Xonandalik uslubiyoti asoslari fanining asosiy kategoriyalarini ajaratib ko‘rsatadi va har biriga ta’rif beradi.</p> <p>2.4. Xonandalik uslubiyoti asoslari fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini ko‘rsatib beradi.</p> <p>2.5. Fanining ilmiy-taqdimot metodlari haqida ma’lumot beradi.</p>	<p>muhim chizma va jadvallarni o‘z daftarlariiga qayd etishadi.</p>
<b>3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi 10 daqiqa)</b>	<p>3.1. “B–B–B” grafik organayzerining “Bilib oldim” ustunini to‘ldirish so‘raladi.</p> <p>3.2. “B–B–B” chizmalarni o‘qitish orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.</p> <p>3.3. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.</p>	<p>“Bilib oldim” ustunini to‘ldirishadi.</p> <p>O‘z tasavvurlarini boshqalarniki bilan taqqoslaydi.</p> <p>O‘z tasavvurlarini boyitadi va to‘ldiradi.</p>

## INSERT

V	-	+	?
<b>1. Eshitish qobiliyatini bilaman</b>	<b>Eshitgan kuyni to‘g‘ri ko‘rsatib berolmayman</b>	<b>Aktiv va passiv eshitish turlari xaqida aniq axborot oldim</b>	<b>To‘g‘ri pozitsiyada kuylashni tushunmadim</b>

### V- bilaman

(-) – **to‘g‘ri kelmadi**



(+) – **yangi axborot**

(?) - **tushunmadim**

## SINKVEYN

- Tushuncha - ot
- 2 so‘zdan iborat - sifat
- 3 so‘zdan iborat - fe’l
- 4 so‘zdan iborat - munosabat
- 1 so‘zdan iborat - sinonim
- **kantilena**
- **ovozning kuychanligi**
- **milliy qo‘sishqchilik maktabi**
- **to‘g‘ri tovush hosil qilish kuylash**

## Venn diagrammasi



## O‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun

### TESTLAR

<b>№</b>	<b>Test topshirig‘i</b>	<b>“A”</b>	<b>“B”</b>	<b>“C”</b>	<b>“D”</b>
1.	Opera janrining vokal san’ati Rossiyaga qaysi chet el mamlakatidan kirib keldi?	Germaniya	Frantsiya	Angliya	Italiya
2.	Rus klassik vokal maktabi asoschisi kim?	D.Bortnyanskiy	A.Varlamov	M.Glinka	M.Glinka A. Verstovskiy
3.	O‘zbek musiqali teatrida qaysi muallif spektakllari sahnlashtirildi?	U.Gadjibekovning “Arshin mol olan”	Barcha javoblar to‘g‘ri	G‘.Zafariyning “Gunafsha” va “Xalima”	G‘.Zafariyning “Erk bolalari”, “Bahor”
4.	Birinchi Rus romanslari muallifi?	G. Teplov, F. Dubnyanskiy	A. Alyabev, A.Varlamov	A.Gurilyov, N. Bulaxov	P.Chaykovski, S. Raxmaninov
5.	O‘zbekistonda akademik va milliy yo‘nalishlarda kuylagan xonandalar?	X.Nosirova, K.Zokirov	N.Xoshimov, S.Yarashev	A.Asimov, A.Ergashev, S.Qobulova	Barcha javoblar to‘g‘ri
6.	F.Arayya boshchiligidagi italyan truppa nechanchi yilda Rossiyaga taklif etildi?	1733y.	1736y.	1734y.	1735y.
7.	M.Glinkaga qadar Rus xonandaligi matabining rivojiga hissa qo‘shtgan	P.Chaykovskiy, F.Yevseev	G.Lomakin, A.Varlamov, M.Glinka	D.Bortnyanskiy, A.Verstovskiy, A.Gurilyov	Barcha javoblar to‘g‘ri

	bastakorlar?				
8.	1938 y. o‘zbek musiqali teatrda Ye.Brusilovskiy syujeti asosida qaysi operasi sahnalashtirildi?	“Yer-Targ‘in”	“Arshin mol olan”	“Farxonad va Shirin”	“Xalima”
9.	Ilk “o‘zbek ko‘chma kontsert-etnografik truppa”si kim tomondan tashkil qilindi?	M.Qori-Yoqubov	M.Ashrafiy	X.Nosirova	K.Zokirov
10.	M.Ashrafiy va S.Vasilenkoning “Bo‘ron” operasidagi Bo‘ron partiyasi ilk marotaba kim tomonidan ijro etilgan?	K.Zokirov	K.Siddiqov	X.Sog‘diev	M.Qori-Yoqubov
11.	Ilk musiqiy asbob?	Baraban	Inson ovozi	Nay	Skripka
12.	Amplituda bu..?	Tebranish harakatinig kuchi	Vibratsii kuchi	Ovoz kuchi	Tovush balandligi
13.	Akustikada rezonator tushunchasi?	Tovush balandligi	Yopiq muhitda joylashgan havo oqimi	Tebranish harakati	Tovush akkumulyatori
14.	O‘zbekistonda akademik va milliy yo‘nalishlarda kuylagan xonandalar?	Barcha javoblar to‘g‘ri	S.Yarashev va boshqalar	K.Zokirov, N.Xoshimov	A.Azimov, S.Qobulova
15.	Eshitish qobiliyati bu..?	Vokal va nutqni boshqaruvchi organ	Miyaga atrof muhitda ro‘y berayotgan tovushli hodisalarni yetkazib beruvchi	Eshitgan narsani xayolan tasvirlash	Vokal funktsiyalarini nazorat qilish

			asosiy hissiy organ		
16.	Passiv eshitish qobiliyati?	Ovoz apparatini boshqara olish	Pozitsiya jihatdan toza kuylay olmaslik	To‘g‘ri eshitish	Kerakli balandlikda tovush hosil qilish
17.	Aktiv eshitish qobiliyati?	Ovoz apparatini boshqara olish	Pozitsiya jihatdan toza kuylash	To‘g‘ri eshitish	Eshitilgan kuyni aniq kuylab berish
18.	Nafas olish turlari?	Ko‘krak (qovurg‘a)	Ko‘krak qorin (qovurg‘aning pastki qismi diafragmalik); Ko‘krak (qovurg‘a), qorindan	Ko‘krak osti (qovurg‘a diafragmalik); ko‘krak qorin (qovurg‘aning pastki qismi diafragmalik); ko‘krak (qovurg‘a)	Ko‘krak (qovurg‘a), qorindan, ko‘krak osti (qovurg‘a diafragmalik), ko‘krak qorin (qovurg‘ani ng pastki qismi diafragmalik)
19.	Klassik ijroda ko‘p qo‘llaniladigan nafas turi ?	Qorindan	Ko‘krak osti- (qovurg‘a-diafragmalik)	Ko‘krak qorin	Ko‘krak (qovurg‘a)
20.	1833y chop etilgan “Shkola peniya”asari muallifi?	G.Lomakin	F.Yevseev	A.Varlamov	A.Gurilyov
21.	Tovush xujumi?	Qaltis tovush	Unsizlarni shakllantirish	Tovush hosil qilishdan oldingi holat	Tovush sustligi

22.	Qanday tovush hujumida nafas chiqarishdan oldin ovoz pardalari jipslashib ketadi?	Qattiq	Mayin	Nafas olishdan keyingi	Aralash
23.	Qaday tovush xujumida nafas chiqarish cho‘zimi berilagan asar tempning metro-ritm hissasiga teng?	Qattiq	Mayin	Nafas olishdan keyingi	Aralash
24.	1837y. “Metoda peniya” 1-2 asarlar muallifi?	F.Yevseev	G.Lomakin	A.Varlamov	A.Verstovs kiy
25.	Qaysi organlar xonanda nutqi ravonligiga hizmat qiladi?	Tanglay, jag‘, tish	Lab, til, yumshoq tanglay	Kekirdak, hiqildoq, til	Lab, til, yumshoq tanglay, yutqin, jag‘
26.	Asosiy artikulyatsion organ?	Til	Jag‘	Kekirdak va hiqildoq	Yumshoq tanglay va tish
27.	Soprano partiyasining o‘tish notalari?	Do <sup>1</sup> -do <sup>#</sup> -re va lya- si-do <sup>2</sup>	Re-mi <sup>1</sup> -fa <sup>1</sup> va re-mi-fa <sup>2</sup>	Mi <sup>1</sup> -fa-fa <sup>#</sup> va mi <sup>2</sup> -fa-fa <sup>#</sup> -sol	Lya-si-do <sup>1</sup> va lya-si- do <sup>2</sup>
28.	Metstso-soprano partiyasining o‘tish notalari?	Do <sup>#1</sup> -re va do <sup>2</sup> -do <sup>#</sup> - re <sup>2</sup>	Do <sup>1</sup> -re-re <sup>#</sup> va do <sup>2</sup> -re-re <sup>#</sup>	Si <sup>1</sup> -lya-do va do <sup>2</sup> -do <sup>#</sup> -re	Lya-si-do va lya-si-do
29.	Tenor partiyasining o‘tish notalari?	Do-re-mi	Mi <sup>1</sup> -fa-fa <sup>#</sup>	Re-mi-fa	Re-mi-fa- fa <sup>#</sup>
30.	Bariton partiyasining	Do-re-mi	Re-mi-fa	Re <sup>1</sup> -mi <sup>b</sup> -mi	Re <sup>#</sup> -mi-fa

	o‘tish notalari?				
31.	Bas partiyasining o‘tish notalari?	Do-re <sup>b</sup> -re	Si <sup>kich</sup> -do-re	Lya <sup>kich</sup> -si <sup>b</sup> -si	Lya <sup>kich</sup> -si <sup>b</sup> -si-do-do <sup>#</sup>
32.	Diapazon?	Tovush balandligi	Ovozning tovush hajmi	Ovoz tembri	Ovoz kuchi
33.	Kuylayotganda soprano ovoz trubkasi uzunligi?	12.5 – 14 sm	15 – 17 sm	15.3 – 18.5 sm	18.5 – 20 sm
34.	Kuylayotganda metstso-soprano ovoz trubkasi uzunligi?	16.7 – 18.3 sm	15.3 – 17 sm	16.7 – 19 sm	14 – 16.2 sm
35.	Kuylayotganda tenor ovoz trubkasi uzunligi?	18.2 – 19.2 sm	17.5 – 19.5 sm	19 – 22 sm	18.5 – 20 sm
36.	Kuylayotganda bas ovoz trubkasi uzunligi?	20.5 – 22 sm	24 – 26.5 sm	25 – 28 sm	23.3 – 25 sm
37.	Soprano ovozining hiqildoq uzunligi?	1.2 – 1.6 sm	1.4 – 1.9 sm	1.3 – 1.7 sm	1.5 – 1.9 sm
38.	Metso-soprano ovozining hiqildoq uzunligi?	1.8 – 2.1 sm	1.9 – 3 sm	1.6 – 1.9 sm	1.5 – 2 sm
39.	Tenor ovozining hiqildoq uzunligi?	1.9 – 2.5 sm	1.6 – 2.2 sm	1.8 – 2.2 sm	1.9 – 3 sm
40.	Bariton ovozining hiqildoq uzunligi?	2.2 – 2.4 sm	2.5 – 3 sm	3 – 4.5 sm	3.5 – 4.5 sm
41.	Bas ovozining hiqildoq uzunligi	3.5 – 4.5 sm	2.5 – 3.8 sm	3 – 4.5 sm	2.4 – 2.5 sm
42.	Xonandaning ovoz apparati nimalardan tashkil topgan?	Kekirdak, yutqin, burun yutqin, bronxlar, diafragma	Ovoz pardalari, til va kekirdak	Bronxlar, til, tanglay, diafragma	Kekirdak, bronxlar

43.	Nafas olish organlari nimalardan tashkil topgan?	Diafragma, kekirdak, o'pka	Nafas olish va chiqarish paylari	Kekirdak, bronxlar, o'pka, diafragma, nafas olish va chiqarish paylari	O'pka va diafragma
44.	Kekirdak nimalardan tashkil topgan?	Butun trubkadan	O'ng va chap bronxlardan	Ochiq yarim doira tog'aylardan	Trubkasimon, ochiq yarim doira tog'aylar, o'ng va chap bronxlarga bo'linib bronxial daraxtni hosil qiladi
45.	Bronxlar bu..?	U orqali havo o'pkaga borib, o'pka ko'piklari gaz almashinuvini bajaradi	Yengil, elastik, gubkasimon organ	Ko'krak qorin mushaklarinin g murakkab shakli	Trubkasimon, ochiq yarim doira tog'aylar, o'ng va chap bronxlarga bo'linib bronxial daraxt
46.	Ovoz pardalari qaerda joylashgan?	Kekirdakda	Xiqildoqda	Yumshoq tanglayda	To'g'ri javob yo'q
47.	Erkaklar ovoz registri?	Ko'krak va faltset(bosh)	Ko'krak, faltset, ko'krak osti va	Ko'krak, bosh va markaziy	Bosh va markaziy

			markaziy		
48.	Ayollar ovoz registri?	Aralash va bosh	Aralash, ko'krak, bosh va markaziy	Ko'krak, bosh va markaziy	Ko'krak va faltset
49.	Ayollar ovozi klassifikatsiyasi?	Koloratura, lirik- kolaratura	Soprano, metstso- soprano	Yuqori metstso, dramatik soprano	Lirik soprano, metstso- soprano
50.	Psixologiya tushunchasiga ta'rif?	Biologik tushuncha	Insonni fiziologik o'rganish	Insonning sub'ektiv dunyosi haqidagi ilm	Barcha javoblar to'g'ri

## XULOSA

Xonandalik uslubiyoti asoslari faniga oid nazariy bilim va amaliy malakalar asosida bo'lajak xormeysterlarning tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning modul tizimiga asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish yuzasidan o'quv-qo'llanmaning yakunlariga tayangan holda quidagi xulosalarga keldik:

1. Asosiy vazifa – Dirijyorlik (Akademik xor dirijyorligi) ixtisosligida o'quv moduldan to'liq foydalaniib, o'zlashtirilgan kuylash ko'nikmalarini xonandalik nazariyasi va uslubi bilimlari yordamida xor jamoalarining ijrochilik madaniyatini professional darajaga olib chiqish va rivojlantirish;

2. Xonandalik uslubiyoti fanining o'qitish uslubiyoti o'zida quidagi pedagogik xususiyatlarni namoyon etadi:

- musiqiy tafakkur, iroda, xotira, diqqat kabi psixologik xususiyatlarni shakllantirish;

- fan bo'yicha bilimlar tizimi, ta'lim-tarbiya berish va o'z-o'zini tarbiyalash kabi xislatlarni shakllantirish;

- xonandalik vokal texnikalarini rivojlantirish;

- amaliy tayyorgarlik, mustaqil va o'z kamchiliklari ustida ishlash hamda o'zida ijobjiy sifatlarni rivojlantirish malakalarini shakllantirish;

- xormeysterlik, xonandalik, pedagogik, uslubiy hamda professional tayyorgarlik darajalarini rivojlantirish.

3. Xonandalik uslubiyoti asoslari fanini o‘qitishning asosiy shakli guruhli mashg‘ulotlar bo‘lib, mazmuni va tuzilishiga ko‘ra ma’ro‘za va seminar ko‘rinishda olib boriladi:

- talabalarga yangi materialni ham nazariy, ham amaliy shaklda yetkazish;
- mashg‘ulot davomida amaliy mashqlar orqali mavzuni mustahkamlash;
- mustaqil ta’limga berilgan vazifani nazariy bilim va amaliy malakalarni tekshirish.
- nazorat ishlari olib borish va mustaqil ta’limga vazifa berish.

*Xulosa* qilib aytadigan bo‘lsak, musiqa insonning ruhiyatini tetiklashtiradi, o‘zining rang-barang dunyosidan xabardor qiladi. Vokal ijrochiligidagi o‘ziga xos texnik imkoniyatlari, usul boyliklari, ohang jozibalari mavjud. Albatta ularning betakror ijro mahoratlari xonanda uchun o‘z faoliyatining rivojlantirilishida qulay imkoniyatdir.

Barcha musiqiy fanlar kabi xonandalik uslubiyoti asoslari amaliyotda o‘z o‘rniga egadir. Talabalarning yetuk xormeyster bo‘lib shakllanishlaridagi eng asosiy jihatlardan biri ularning amaliyotda vokal ijrochiligi texnikasi bo‘yicha muayyan bilimga va yetarli mahoratga ega bo‘lishlaridir.

Xonandalik uslubiyoti asoslari fanining keng ko‘lamligi, boy imkoniyatlari ijrochilik saviyasini oshiradi, turli shakl va mazmundagi asarlarni xorning serqirra sadolari bilan boyitib, yangidan-yangi qirralarini ochib berishda o‘z ulushini qo‘shadi.

## ***GLOSSARIY***

**ABBASSAMENTO DIVOSE** - ovoz tovushini susaytirgan holda

**A VOSE PIENA** - yakka ovoz uchun, yakkaxon

**AGOGIKA** (yunon. agoge –chechin, chetlashtirish) – musiqiy ijro ifoda vositalaridan biri, tekis sur’at va aniq ritm yaxlitligini saqlagan holda ulardan qisqa muddatli chekinishlar. A. o‘zining muayyan qonuniyatlariga ega. Masalan, kulminatsiya sari intilishda ayrim musiqiy tuzilmalarda sur’at tezlashishi yoki yakunlovchi kadanslardagi sekinlashishlar. So‘zlarning urg‘uli bo‘g‘inlari talqinida ma’no jihatidan ahamiyatli tovushlar ba’zan “cho‘zishlar” evaziga alohida ta’kidlanadi. Ayrim hollarda A. maxsus ko‘rsatmalar b–n joriy etiladi (a piacere – erkin, ad libitum – xohishga ko‘ra, tempo rubato – erkin ritmik sur’atda, capriccioso – nozli, ters va h.k.). Goho ritm o‘lchamlari va sur’atdagi barcha chekinishlar (fermatolar, stretto – siqib, accelerando – tezlatib, allargando – kengaytirib va h.k.) berilishi mumkin. A. musiqiy shaklning barcha tarkibiy qismlari (tuzilish, dinamika, melodika, garmoniya va b.) uzviy bog‘liq bo‘lib, muayyan asarning janri, kompozitorning hamda ijrochining o‘ziga xos uslubiga asoslanadi. Bunday agogik chekinishlar, ayniqsa, romantik kompozitorlarning asarlarida ko‘p uchraydi. 1884 yili atoqli musiqashunos Xugo Rimani tomonidan “agogika” atamasi ilk bor qo‘llanila boshlangan.

**ADDOLORANDO** - tovushni yumshatib, muloyim tovushda

**AKADEMIK** – 1) Faxriy unvon; yetakchi teatr va musiqiy jamoalarga beriladi (mas., A.teatr, A.xor kapellasi). 2) Atama professional xorga nisbatan qo‘llanilganda odatda xalq qo‘shiqlarini kuylovchilardan farqini ko‘rsatish uchun foydalilaniladi.<sup>15</sup>

**AKADEMIK USLUB** (san’atda) – mumtoz (klassik) namunalar izidan boruvchi uslub. Akademik ijro, shakl mukammalligiga intilish va me’yordagi qat’iy did naqdligini ko‘zlaydi.

**AKADEMIK XOR** – Mumtoz musiqa, zamonaviy kompozitorlar asarlarini butun diapazonda bir tekis, akademik uslubida, ya’ni kuylash usuli niqobdor holda bo‘lib,

---

<sup>15</sup> B.Shamaxmudova. Xor lug’ati. T., 2009.

tovush ravon, ovozlar xor partiyalariga aniq bo‘lingan bo‘lib, ijro etadigan asosan professional, ba’zangina badiiy havaskorlik xor jamoalarining nomi.

**A CAPELLA** (a kapella, ital. alla cappella – kapella uslubida) – cholg‘u asboblar jo‘rligisiz xor bo‘lib kuylash. Xor ijrochiligining yuksak uslubi bo‘lganligi bois, unda xor to‘liq mustaqilligi va tugallanganligini namoyon etadi. Xalq ijroligida ham uchraydi. Professional xor san’ati uslubi sifatida A s. O‘rta asrlar diniy polifoniyasida rivojlandi, dunyoviy xor janrlari yuzaga kelgan Uyg‘onish davrida yuksaldi. Niderland polifoniyachi – kompozitorlar G.Dyufai, J.Benshua, Ya.Okegem, Ya.Obrext, J.Depre, O.Lassolar ijodida ayniqsa taraqqiy etdi, J.Palestrina, K.Monteverdi, A.Lotti va b. italyan kompozitorlari asarlarida mumtoz ko‘rinishga ega bo‘ldi. A s. rus xor san’atida yuksak cho‘qqiga erishdi (M.Berezovskiy, D.Bortnyanskiy, S.Taneev, A.Kastalskiy, S.Raxmaninov, P.Chesnokov, V.Kalinnikov va b.). XX asr xor musiqasida K.Debyussi, M.Ravel, P.Xindemit, D.Shostakovich, G.Sviridov, R.Shchedrin va b. asarlari alohida o‘rin tutadi. O‘zbekistonda A s.. xor uslubiga XX–a.ning 50 y.larida M.Burhonov asos soldi. Uning O‘rta Osiyo xalq qo‘shiqlari zaminidagi nomi “Oltita xor” va bunga yorqin misoldir. Keyinchalik M.Burhonov afg‘on, eron va Sharq xalqlari folklori asosida xorlar yozdi. A.Muhamedov, S.Boboev, I.Akbarov, B.Umidjonov, M.Nasimov, M.Bafoev, N.Zokirov, B.Lutfullaev, D.Omonullaeva va b. tomonidan xor A s. asarlari yaratildi. Tajribali xormeysterlar S.Valenkov, V.Knyazyatov, A.Vasileva, Ye.Nechaev, N.Sharafieva va b. tomonidan qayta ishlagan xalq qo‘shiqlari va original A s. asarlari ham diqqatga sazovordir.

**AKKOMPANEMENT** (frants. accompagnement – jo‘rlik) – musiqiy asarga jo‘r bo‘lish. Birorta musiqa asbobi (royal, organ, ba’zi hollarda violonchel, skripka va b.) yoki orkestr jo‘rligida xor bo‘lib kuylash. Ijro etilishi shart bo‘lmagan A. ad libitum deb ataluvchi erkin turi ham uchraydi. Xor partiturasida odatda jo‘r ovozlar mavjud; xor jo‘rligidagi solist (yoki solistlar) uchun yozilgan pesalar bor. Xor A. matn b–n, shuningdek birorta unli tovush (ko‘pincha a) yoki yopiq ovoz b–n ijro etiladi. Dirijyorning vazifasi – xor yoki solistning quvvatlovchi, to‘ldiruvchi, bezatuvchi A. ni boshqarish.

**AKKORD** (ital. accordo – muvofiqlashtiraman) –balandligi turlicha uch va undan ortiq tovushlarning qo’shib, yaxlit holda yangrashi. Xorda A. tuzganda va ijro etganda har bir tonni tessitura holatini hisobga olish lozim, zarurat tug’ilganda sun’iy ansambl (P.Chesnokov atamasi bo‘yicha) qo’llaniladi. A.ni tonlarining akustik tomonidan qulay joylashishi oberton qatoriga asosan: kenglari - quyida, torayib boruvchilari yuqorida bo‘lishi.

**AKSENT** (lot. accentus – urg‘u) – sadolanishni kuchaytirish hisobiga tovush yokiakkordni alohida ta’kidlash. Odatda (nota yozuvida) >, ^, sf kabi belgilar b–n ko‘rsatiladi. A.ga shuningdek ritmik (sinkopa), agogik, tembral ta’kidlash orkali ham erishiladi. Vokal, xor musikalarida, matndagi eng muhim so‘z va bo‘g‘inlarni ta’kidlash ham A.deb ataladi.

**ALEATORIKA** (lot. alea - tasodif) – musiqa yaratish va ijro etish uslub. Uning asosida tasodify paydo bo‘ladigan tovushlarni (mas. nota varaqlari almashtirilganda, notalarni ishlatish uchun o‘yin soqqachalar tashlaganda va b.) ijodiy foydalanish yotadi. A. asarlarida kompozitorlar ba’zan ijrochilarning mahorat imkoniyatlariga ham unumli tayanishadi. Bu oqim – XXa.ning ikkinchi yarmida Yevropa kompozitor-avangardistlar ijodida yuzaga kelgan: 50-y.larining ikkinchi yarmida - P.Bulez (Frantsiya), K.Shtokxauzen (Germaniya), 60-y.lar boshida V.Lyutoslavskiy (Polsha).

**ALLA BREVE** (ital.,alla breve – qisqa ohangda, qisqargan) – 4/4,4/2 o‘lchovda yozilgan taktdagi hissalarni “ikki”ga (murakkab takt oddiy ikki bo‘lakli), sakkiz hissali esa “to‘rt” (katta A.b.)ga bo‘linadigan musiqa ijrosi (hissalarni sanash, dirijyorlik) sanalishini ko‘rsatkichi (notada – ⚭ belgi b-n yoziladi). A.b.ning o‘lchami olti hissali musiqani “ikki”ga bo‘lib boshqarishga nisbatan ham qo’llanilishi kuzatiladi. A.b.ning qadimiy musiqalarda ko‘p qo’llanilishi zamonaviy tushunchadagi sur’atning o‘ta harakatchanligini anglatmaydi.

**ALT** (lot. altus – baland) – O‘rta asrlar musiqasida tenordan yuqori diapazonga ega asosiy yetakchi ovoz. 1) Xor yoki ansamblidagi partiya, past bolalar ovozi yoki o‘rta va past ayollar ovozidan iborat (metstso–soprano – birinchi A., kontralto – ikkinchi A.lar). Diapazoni kichik oktavadagi “fa”dan - ikkinchi oktavadagi “fa”gacha, amaliyotda ko‘proq kichik oktavadagi “lya” – ikkinchi oktavadagi “re” diapazonlari qo’llaniladi. 2)

Skripka oilasiga mansub kamonli torli soz. 3) Puflama sozlar orkestri cholg‘u asbobi (altgorn). 4) Orkestrlarda qo‘llaniladigan ayrim sozlar turi.

**ALTERASIYA** (lot.alteratio – o‘zgarish) –tovush nomini o‘zgartirmagan holda uning balandiligi yarim ton yoki bir tonga ko‘tarish yoinki pasaytirish; diez, dubl-diez, bemol, dubl-bemol, bekar belgilari vositasida bajariladi. Bunday tovushlardan tarkib topgan tovush, interval yokiakkord A.langan deb ataladi. A.kuychan vaakkord tovushlarning lad intilishlarini kuchaytiradi, uyg‘unlik chiroyini oshiradi; modulyatsiyada ham qo‘llaniladi. A.langan tovushlarni ijro qilganda ma’lum doira chegarasi mos holatda balandlatib yoki pasaytirilgan bu tovushlarning yo‘nalishini alohida ko‘rsatish lozim.

**AMOROSO, SONAMORE** - muloyim, mexr-muxabbat bilan

**A MEZZAVOSE** - yarim ovozda

**ANSAMBL** (frants. ensemble – birga, birgalikda) – A. so‘zi musiqada, baletda, arxitekturada qo‘llaniladi. 1) Jamoaviy kuylash, musiqiy asboblar ijrosida uyg‘unlik. 2) Xor san’atida- xor sadolanishining ifoda vositalaridan biri. Xor A.ning xususiy (alohida xor partiyasi, q.Unison) va umumiyl (barcha partiyalarini uyg‘unligi) hamda barcha A. turlari majmui (intonatsion, ritmik, dinamik, tembral, talaffuzli, orfoepik). Umumiyl A.da xor partiyasining vazifasi asar fakturasi (matn mavzui, kontrapunkt, jo‘r ovoz, fon)ga bog‘liq. Garmoniya ovozlarni bir xil dinamik sadolanishini nazarda tutadi; buning uchun (tessituradan kelib chiqqan holda) sun’iy A. – ovozlardagi turli dinamikadan foydalanishga to‘g‘ri keladi (q. Akkord). Gomofoniya kuy, polifoniya esa yetakchi ovoz ustunlik qiladi. Xor va musiqiy asboblar jo‘rligi nisbati turlicha bo‘lishi mumkin. Barcha holatlarda A. tiklash dirijyorning vazifasidir. A. ga erishishda ijrochilarining faol ishtiroki, ularning yaxlitlikka intilishi, umumiyl sadolanishni eshita olishi, dirijyorning ishoralariga ziyrakligi zarur. 3) Musiqa asarlarini birgalikda ijro etuvchi xonanda va sozandalar guruhi. Ijrochilar soniga ko‘ra duet (2 kishi), trio yoki tertset (3), kvartet (4), kvintet (5), sekstet (6), septet (7), oktet (8), nonet (9), detsimet (10) va b. A. turlari farqlanadi. Ko‘p sonli guruhlar oddiygina A. (vokal A., sozandalar A. deb ataladi. 4) Kichik ijrochilar (vokal va musiqiy asboblar) tarkibiga mo‘ljallangan musiqa asari. 5) Xonandalar guruhi bilan jo‘rli yoki a kapella ijro qilinadigan opera, oratoriya, kantatadagi mukammal nomeri.

**A PLEIN SON** - to‘liq tovush bilan (bor ovozda)

**APPLIKATURA** (lot. applico – asta qo‘yaman, bosaman) – 1) Musiqiy sozlar ijrosida barmoqlar joylashuvi va ularning almashish tartibi. Asar jumlalarini aniq, ko‘rsata olish, sur’at va dinamikadagi nyuanslarni ravon ifodalash A. ning qulayligiga bog‘liq. Xor partituralarini fortepianoda cholganda ijroning o‘ta ravonligini ta’minlovchi mayin tovushlar boshqaruviga ega bo‘lish muhim va bunga to‘g‘ri tanlangan A. tufayli erishiladi. 2) Mashhur dirijyor G.N.Rojdestvenskiy tomonidan kiritilgan atama - dirijyorlik A.si, sur’at va pulsga bog‘liq holda dirijyor tomonidan tanlangan o‘lcham, dirijyorlik setkasini belgilaydi.

**ARTISOLANDO** - aniq talaffuz qilib

**ARALASH XOR** – turli jinsli (erkaklar va ayollar yoki bolalar) ovozlarining qo‘shilishidan tarkib topgan xor jamoasi - odatda soprano, alt, tenor va baslardan iborat. To‘liq A.x. – xor turlaring eng takomillashgan turi bo‘lib, uning katta diapazoni (deyarli to‘rt yarim oktava), rang-barang registr va tembr ifoda vositalari, boy dinamik tuslari, turli fakturali ifoda uslubi keng ijro imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Turli tembrlar tufayli to‘la A.x. ijrosida umumiy mayinlik, sopranolar harakatchanligi, altlarning quyuq yangrashi, tenorlarning teran sadolari, baslarning baquvvatligida namoyon bo‘ladi. To‘liq bo‘lmagan A.x. da biror–bir partiya tushib qoldiriladi.

**ARANJIROVKA** (frants. arranger – tartibga solish, tuzatish) – muayyan tarkibga mo‘ljallangan musiqa asarini o‘zga ijrochilar moslashtirish. Mas., yakka (solo) ijro etiladigan asarni - xor uchun qayta ishslash, bir turdagи xor asarini - aralash xorga va aksincha aralash xor asarini - bir turdagи xorga, sozlar jo‘rligidagi xor asarini - a kapellaga moslash shular jumlasidan. Shuningdek xor partiturasini yengilroq bayonlash (yoki uni murakkablashtirish) ham A. dir.

**ARTIKULYASIYA** (lot. articulo – parchalayman, bo‘laman) – 1) Ovoz yoki musiqa cholg‘u asboblarida tovushlarni bir-biriga uzviy bog‘lab (ulab) yoinki bog‘lamasdan ijro etish usuli, mas. legato – tovushlarning uzviy bog‘lanishi, staccato -tovushlarni uzuq–uzuq tarzda ifodalab berish, non legato – tovushlarni kam bog‘lanishi kabi A.turlari mavjud. Ovoz ijrochiligida legatoning asosiy qoidasi – nafasni uzmasdan, unli tovushlarni bo‘g‘in oxiridagi undoshlar b-n keyingi bo‘g‘in boshiga ko‘chirish, shuningdek sonor (jarangdorli) undoshlarni aniq kuylash. Staccatoda tovushlar pauzalar

b-n bo‘linganday bo‘lib, uni intonatsion jihatdan kuylash murakkab, zero bunda tovush balandligini aniq eshita olish lozim va mazkur jarayonda bo‘g‘izni keskin o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Non legatoda - tovushlar staccatoga o‘xshab, uzaro bog‘lanmasdan ijro etiladi, lekin keskin uzmasdan. A. – musiqa ijrochiligineng muhim vositalaridan bo‘lib, u nota yozuvi xususan partitura, xor partiyalari va umumiijiro jarayonida taaluqli ifodalanishi kerak. 2) Tovushlar tallafuzida zarur bo‘lgan, nutq organlari faoliyati.

**ARTIKULYASIYA APPARATI** – musiqa tovushlarini badiiyan shakllantiruvchi nutq organlar tizimi. Unga (boshqarish mumkin bo‘lgan) aktiv organlar – ovoz paylari, til, lablar, yumshoq tanglay, xalqum, quyi jag‘ hamda passiv organlar – tishlar, qattiq tanglay, yuqori jag‘ qismlari kiradi.

**ATAKA** (ital.attaccare – hujum qilmoq, bog‘lanmoq, qo‘shilmoq) –

1) Vokal metodikasida ovozning nafas olish holatidan - tovush hosil bo‘lishini bildiruvchi atama. U sof unlilar tovush hosil qilishiga nisbatan qo‘llaniladi. Tovush A.ning uchta - qattiq, nafas olishdan keyingi va yumshoq turlari bo‘ladi. Qattiq A.tovush boshlangunga qadar ovoz paylarining zinch birlashishi va ovoz paylari ostidagi bosimning ortishi ta’sirida tez ajralishi b-n ifodalanib, tovush balandlik jihatdan aniq, yorqin va harakatchan tarzda, bo‘rttirilganda esa dag‘al sadolanadi. Nafas olishdan keyingi A.da ovoz paylari chiqayotgan havo oqimi b-n to‘qnashadi va o‘ziga xos nafas tovushi hosil qiladi. Tovushning to‘liq sadolanishi va aniq balandligiga birdaniga erishilmaydi (qo‘shimcha tovushlar hosil bo‘ladi). Bu tur A. da havo chiqib ketishi mumkin, shu sababli ovoz kerakli tembr sofligi, aniqlik, quvvat, tayanch asosni yo‘qotadi. Yumshoq A. ovoz paylari va havoning o‘zaro to‘qnashuvining bir vaqtdaligi bilan ifodalanadi; intonatsiya sofligi va harakatdagi ovoz paylarining eng yaxshi imkoniyatlarini yaratadi. Xonandalar ko‘proq yumshoq A.ni qo‘llashga intilishadi. Pedagogik amaliyotda kuylanuvchi ovozlarini hosil qilishda A.ning har xil turlari qo‘llanadi. 2) Musiqiy asarning b. qism yoki bo‘limiga to‘xtovsiz, jadal o‘tishni ifodalovchi belgi. Bunda dirijyor qo‘lini tushirmasdan navbatdagi qismni boshlaydi.

**AUFTAKT** (nem. auf – ustida, lot.tactus – tegish) – qo‘l bilan ishora qilmoq, birlamchi ogohlantiruvchi qo‘l ko‘tarish harakati kabilardan iborat dirijyorlikning o‘ziga xos imo-ishorasi. Sur’at, ritm, dinamika, shtrix, asarni boshlash yoinki tugallash,

fermatolar boshlanishi oldindan oglantirish, kuylashda tovush atakasi oldidan nafas olishni ko'rsatish.

**BARITON** (yunon. barytonos – past ovoz) – 1) Tenor bilann bas oralig‘idagi erkak xonandalar ovozi, diapazoni – katta oktavadagi “lya”dan birinchi oktavadagi “lya”ga qadar. Odatda B.lar lirik (ovozi yengilligi b–n tenorga yaqin) va dramatik (kengligi va kuchi basga yaqin) turlariga ajratilib, xor tarkibida birinchi baslar partiyasiga qo‘shiladi. 2) Kamonchali torli musiqa asbobi; XVIII–a.larda keng tarqalgan. 3) Mundshukli puflama musiqa cholg‘u asbobi.

**BAS (ital. basso – pastki)** – 1) Erkaklarning eng past ovozi; diapazoni katta oktavadagi “fa”dan birinchi oktavadagidagi “fa”ga qadar. Tessituraga ko‘ra yuqori va past turlari bor. Yuqorigisi kuychan B. (basso cantante, ba’zan yorqin sadolanishi sababli baritonli B.) deb ataladi. Pastki va barcha markaziy chuqur tovushlarning kuchli sadolanishiga ega bo‘lgan eng past (basso profundo) B. diapozoni kontroktavadagi “lya”dan - kichik oktava “lya”ga qadar, bularni – oktavachilar deb ham atashadi. 2) Xor va ansambldagi eng past partiya; diapazoni (oktavachilarsiz) katta oktavadagi “fa”dan birinchi oktavadagi “fa”ga qadar bo‘lgan baritonlar va baslardan tashkil topib, ko‘proq katta oktavadagi “sol” birinchi oktavadagi “re” (mi bemol) ishlatiladi. Oktavachilarni qo‘llash partiya diapazonini bir oktava quyiga kengaytiradi. B.partiya xorning asosi, fundamentidir, shu sabab unga intonatsiyadagi o‘ta turg‘unlik va chuqur sadolanish o‘rinli. Ayni paytda dinamik jihatdan sadolanish sofligini ta’minlovchi harakatchan, egiluvchan xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. 3) Puflama mis musiqa asbobi. 4) Akkordning eng past tovushi.

**BASSO OSTINATO** (ital. basso ostinato – tayanch bas) – musiqa asarida to‘xtovsiz takrorlanuvchi bas ovozidagi kuy tuzilmasi. Passakalya va chakonalarning qadimiy shakllarida (mas., Cruzifixus, Baxning si–minor “Messa”sidan) hamda zamonaviy xor musiqalari (“Les” –P.Chesnokov; “Techyot voda v sine more” –B.Lyatoshinskiy va b.)da uchraydi. “Ostinato” atamasi yuqori ovozga nisbatan ham ishlatiladi (mas., soprano ostinato).

**BAXSHI** – O‘zbekistonda xalq dostonlari ijrochisi, o‘tmishda qo‘biz, hozir do‘mbira, ba’zan dutor jo‘rligida kuyylanadi. B.ning ijrochi va ijodkor toifalari bor. Ijrochi B.ustozidan o‘rgangan asarlarni juz’iy o‘zgarishlar b–ngina kuylasa, ijodkor B.xalq

an'analari asosida asarning o'zining variantini, hatto tubdan yangi asarlar yaratadi, ular shoir deb ham yuritiladi. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan shoir, Ergash shoir va b. mashhur B.lar O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston hududlarida ijod qilgan.

**BELKANTO** (ital. belkanto – go'zal kuylash) – XVII–a.da Italiya xonandaligida yuzaga kelgan nafis kuylash uslubi. Zamonaviy ma'noda – hissiyotga boy, go'zal va ravon kuylash yo'llari. B. xonandadan izchil kantilena, nuqson siz koloraturali tovush cho'ziqligi, dinamik va nozik tembr o'zgarishlariga boy ijroni talab etadi.

**BIR TUR (JINSDAGI) XOR** – bir turdag'i ovoz (bolalar, ayollar, erkaklar)dan tashkil topgan xor.

**BOLALAR OVOZI** – ovoz turi; ovoz apparatining kichik hajmi tufayli kattalar ovozidan g'oyatda farq qiladi. B.o. (bolalar yoshidan qat'iy nazar)ga mayinlik, sadosini jarangdorligi, ingichka (faltset) tovush hosil qilish va sado kuchining cheklanganligi kabi xususiyatlar xos. Bolalarda kuylash qobiliyati 2 yoshdan namoyon bo'ladi va 7 yoshgacha yumshoq (bosh registrda), sof yengil faltset sadosini saqlaydi. Diapazoni septima (birinchi oktava "re" dan ikkinchi oktava "do" qadar). 7 yoshdan ovoz tuzilmalarida maxsus kuylash mushaklari shakllana boshlaydi va bu jarayon 12 yoshda to'liq tugaydi. Bolada ingichka tovushdan tashqari ko'krak qafasida hosil bo'ladigan tovush turidan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. 13 yoshida garchi sof ingichka tovushni ishlatsa ham ko'krak ovozining yangrashi belgilari namoyon bo'la boshlaydi va diapazoni oktava yoki detsima (birinchi oktava "do" dan ikkinchi oktava "mi-fa")gacha kengayadi. Qizlar va o'g'il bolalar ovozi jaranglashi jihatidan deyarli farq qilmaydi, faqat diapazoni bo'yicha bo'linadi: baland, diskantlar (soprano) diapazon (birinchi oktava "do", ikkinchi oktava "fa-sol")ga ega; past altlar (kichik oktava "lya-sol" – ikkinchi oktava "re-mi"). Jinsiy yetilish tufayli (odatda 12–15 yoshlarda) ovoz (mutatsiya) o'zgarishga uchraydi. Qizlar ovozi ayollar ovozining mukammal jarangiga ega bo'ladi. O'g'il bolalar ovozi o'zgarish davrida taxminan bir oktavaga pasayadi. B.o. b-n ishslashning asosiy qoidalari: ma'lum yoshga mansub diapazonga qat'iy rioya qilish, siqiqlik va kuchaytirishlardan holi mayin, erkin kuylash, cheklangan dinamika, obraz jihatdan mazmuni his-tuyg'ulariga mos repertuar tanlash, mashg'ulotlarning qisqa va muntazamliligi.

**VIBRATO** (ital. vibrato, lot. vibratio – tebranish) – kuylash jarayoni, torli va ayrim o‘zga sozlar ijrochiligidagi tovushni to‘lqinlantirish. Xor ijrosida V. tarzida kuylash, iliqlik, quyuluvchanlik baxsh etadi, undan foydalanmaslik esa tovushlarni shirasiz, ifodasiz qiladi.

**VILLANELLA** (ital. villanella – qishloq qo‘sishig‘i) – Italiyada XV–XVI a.da keng tarqalgan qo‘sishiq turi. Jonli, lirik yoki xazil mazmundagi uch ovozli V. yetakchi o‘rin tutgan. Uyg‘onish davri italyan va b. kompozitorlari kyiplab namunalar yaratishgan.

**VOKALIZ** (frants. vocalize, lot. vocalis – unli tovush) – 1) So‘zsiz, unli tovushlarda kuylash uslubi. Ko‘proq yarim yopiq (“niqobdor”) “a” tovushi va yumilgan og‘iz b–n ijro etiladi. Bunday uslubdan asosan vokal va xor asarlarlari (mas. M.Burxonovning jo‘rsiz xorlari)da keng foydalaniladi. 2) Xor uchun V. uslubidagi asarlar (mas. Ya.Ivanovning “Perelyotnye ptitsy”; Yu.Falik V.zi, A.Pirumovning “Exo”, G. Sviridovning A.Yurlov xotirasiga bag‘ishlangan Kontserti, R.Vildanovning “Olovli yo‘llar” kinofilmiga yozgan “Elegiyasi”, I.Akbarovning “Xoral”i va b.).

**VOKALIZASIYA** – so‘zsiz kuylash; odatda unli tovushlar yoki biror bir so‘zning ayrim bo‘g‘inlarini kuylanadi. Xor amaliyotida ashula aytishda, xorni sozlashda, asar o‘rganilayotganda qo‘llanadi. Xor asarlarida yordamchi ovoz, tag (fon), bezak va h.k. ko‘rinishda ko‘proq uchraydi.

**GENERAL-BAS** (lot. generalis – umumiyligi, bosh) – 1) Garmoniya fanining ilgarigi nomi. 2) “Basso – kontinuo” (ital. uzluksiz bas)ning aynan o‘zi: garmoniyani ko‘rsatuvchi partituratadagi pastki ovoz, bunda har bir tovush ostidagi raqamlar b–n belgilanadi (raqamli bas). XVI–XVIII a.da g‘arbiy Yevropa musiqasida klavishli musiqa asboblari (organ, klavesin)akkordlar intervalikasini raqamlar b–n belgilangan bas partiyasi.

**GENERAL PAUZA** (lot. generalis – umumiyligi, bosh) – ansamblidagi barcha ishtirokchilarning bir vaqtidagi to‘xtashi (odatda to‘satdan bo‘ladi), davomiyligi bir taktdan kam emas, qisqacha lotin xarflari b–n G.P.tarzida ifodalanadi.

**GTEROFONIYA** (yunon. heteros – boshqa, phone – tovush, ovoz) – bir ovozli kuyni, birgalikda ijro qilganda, improvizatsiya tufayli vaqtiga vaqtiga b–n yuzaga keladigan ohangdoshlarning paydo bo‘lishi (unisondan chekinish). Xalq qo‘sishqlarida jo‘r ovozli ko‘povozlikni hosil qilgan.

**GIMN** (yunon. hymnos – madhiya) – tantanali qo’shiq, madhiya. G.ning davlat, inqilobiy, harbiy, diniy, biror–bir voqeaga bag‘ishlangan turlari bor. Davlat G. mamlakatning musiqiy nishonidir (O‘zbekiston davlat G. 10 dekabr 1992 y.da qabul qilingan, M.Burhonov mus., A.Oripov sh.). G. janri xor, opera, simfonik ijodda keng qo’llanadi. Mas. “Slavsy” xori, M.Glinkaning “Ivan Susanin” operasida; P. Chaykovskiyning “Orleanskaya deva” operasidagi G.; L.van Betxoven ijodiga mansub F.Shillerning “K radosti” odasi matniga yaratilgan 9-simfoniyasidagi final va b. O‘zbek kompozitorlari ijodida: S.Yudakovning “Yoshlar gimni”, M.Burhonovning “Vatan qo’shig‘i”, D.Zokirovning “Tinchlik madhiyasi”, A.Mansurovning “Mustaqillikka bag‘ishlov”, “Shodiyona” madhiyalari va b. mavjud bo‘lib, ular xor jamoalarida ijro etiladi.

**GOMOFONIYA** (yunon. homophonia – ravon, unison, homos – bir, phonus – ovoz) – ko‘povozlilik turi. G.da bir (odatda yuqoridagi) ovoz bosh(kuy) yetakchi bo‘lib, qolgan ovozlari unga bo‘ysunadi, jo‘r bo‘ladi. Ijro paytida yetakchi ovozni alohida ajratish lozim.

**DETONASIYA** (frants. de’tonner – noto‘g‘ri kuylamoq) – me’yordagi tovush balandligidan chekinish, noaniq kuylash. Ba’zan distonatsiya (ko‘tarilish)dan farqli ravishda past tovushning pasayishi ham D. atamasi b–n belgilanadi. D.ning sabablari - noto‘g‘ri rivojlantirilgan musiqa eshitish qobiliyati, lad intilishlarini yomon sezish, ovoz o‘zgarishi (mutatsiya) davrida ortiqcha kuylash, ovoz hosil qilish usulidagi nuqsonlar, muayyan betoblik, charchash, e’tiborsizlik, o‘zini nazorat qilaolmaslik, akustik sharoitlarning o‘zgarishi va b.

**DIAPAZON** [yunon. dia pason (chordon) – hamma (torlar)aro] – ovoz, soz yoinki jamoa, xususan xorning eng pastidan - eng balandigacha bo‘lgan tovushlari hajmi. Har bir professional xonanda yoki xorning ovoz D. odatda kamida ikki oktavali bo‘lishi shart. Havaskorlik xorlar D. bir yarim oktavadan oshmasligi mumkin. D. sezilarli darajada tug‘ma hislatdir, biroq ovozni to‘g‘ri shakllantirish va rivojlantirish usuli b–n uning tabiiy imkoniyatlarini yuqoriga ham, pastga ham kengaytirish mumkin. Erkaklar ovozi D.nini balandga kengaytirishda tovushni «niqoblash» usuliga tayaniladi, shu b–n

birga ingichka (faltset) sadolar talqinadi. Xonanda o‘zining tabiiy tembrni saqlab qolishiga intilish zarur.

**DIVISI** (ital., divizi – bo‘lingan) – xor, shuningdek orkestr partiyalarini ikki-uch va undan ortiq ovozlarga vaqtinchalik bo‘linishi. D.ni qo‘llash xor bayonini uyg‘unlik b-n to‘ldiradi, ayni chog‘da tovush sadosi kuchini pasaytiradi .

**DIKSIYA** (lot. dictio – nutq talaffuzi) – kuylashda adabiy matnni to‘g‘ri (savodli va aniq) talaffuz qilish malakasi. Yaxshi D. – vokal, shuningdek xor ijrosining muhim shartlaridan. Xorda har bir xonandadan undoshlarni aniq talaffuz etishdan tashqari, barcha kuylovchilarning dirijyor ishorasi bilan erishiladigan artikulyatsiya jihatidan yakdilligi taqozo qilinadi.

**DINAMIKA** (yunon. dinamis – kuchi)- tovushlarning sadolanish kuchi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon majmui. Musiqaning eng muhim ifoda vositalaridan biri. D. Tuslar (forte, piano, cresc., diminuendo va b.)ni qo‘llash musiqaning mazmuni va badiiy mohiyatini teranlashtiradi. Xor asarlari asosan bir u yoki bu dinamik yo‘nalishda sadolanadi, shunga qaramasdan turlicha nyuanslar va kontrastli D. bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi. Dinamik ta’sirchanlik, dinamik tuslar, ularni mahorat b-n qo‘llash, ijo jarayonida to‘g‘ri taqsimlash, dirijyorlikning vazifalaridan biri bo‘lib, unda ijo madaniyati, mahorati qay darajada mavjudligini ko‘rsatadi.

**DISKANT** (lot.dis – bo‘lishni anglatgan old qo‘shimcha; cantus – kuylash) – 1) Bolalarning yuqori kuychan ovozi. Diapazoni birinchi oktavadagi “do”dan – ikkinchi oktava “sol”ga qadar. D. sadosi sofligi, qo‘ng‘iroqday jarangdorligi b-n ajralib turadi. 2) Xor yoki vokal ansamblida bolalar yoki ayollarning baland ovozi b-n ijo etiladigan partiya. 3) O‘rta asrlar musiqasidagi ko‘p ovozli kuylash shakli, XII-a.da Frantsiyada paydo bo‘lgan. Nomini asosiy kuy majmui (grigoriancha xoral)ga qarama-qarshi harakatda jo‘r bo‘ladigan yuqori ovoz D.dan olgan. 4) Yakka ijo etiladigan yuqori ovoz – ukrain, belorus va Don kazaklari xalq qo‘shiqlarida jo‘rchi ovoz (diskant).

**DISSONANS** (lot. dissono – moslanmay yangrayman) – moslashmaganlik (noohangdoshlik) hissini uyg‘otuvchi va konsonansni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan hamohanglik. Eng muhim musiqiy ifoda vositalaridan biri. D.ga katta va kichik sekunda va septima, triton va b. orttirilgan va kamaytirilgan intervallar, shuningdek bu intervallardan tuzilgan akkordlar ham kiradi. Xor ijrochiligidagi (yakkaxon kuylash va

tovush balandligi muayyan bo‘lmagan cholg‘ular ijrosidagi kabi) ohang tuslari yordamida o‘zgaruvchanlik kuzatiladi.

**IMITASIYA** (lot. imitato – taqlid, ergashish) – ko‘p ovozli musiqa uslubi tamoyillaridan. Bir ovozda sadolangan kuy, shu zahotiyog u yoki bu darajadagi anqlik b-n takrorlanadi. O‘zbekiston kompozitorlarining xor asarlarida I.ning turli ko‘rinishlari qo‘llaniladi: M.Burhonov - “Alisher Navoiyga qasida”sida, S.Boboev – qayta ishlangan “Tanova”da, B.Umidjanov – “Dilbarume”da, M.Bafoev – “Jonli sadolar”da, O.Abdullaeva – “Yor-yor” xorida va h.k.

**IMPYEDANS** (lot. impeditio – to‘sik) – og‘iz-xalqum yo‘li tomonidan ovoz qatlari sezadigan teskari yo‘naltirilgan tovush qarshiligi. Ovoz “qo‘yish” ovoz qatlamlarini to‘la ishlashini ta’minlovchi I.ni topish bilan bog‘liq. Vokal-xor pedagogikasi I. tanlash uslub va usullaridan yonma-yon foydalanadi.

**INTERPRETASIYA** (lot. interpretatio – talqin etish) – musiqa asarining ijrochi tomonidan badiiy yetuk talqini. I.ning vazifasi – asar mazmuni va g‘oyasini to‘liq va ishonarli darajada ochib berish. I. ijrochining estetik dunyoqarashi, individual xususiyatlari, badiiy g‘oyaviy tafakkuriga bog‘liqdir.

**INTONASIYA** (lot. intono – qattiq talaffuz etaman) – 1) Badiiy obrazning musiqa tovushlari orqali ifoda etish. 2) Uncha katta bo‘lmagan, nisbatan mustaqil kuychan ibora. 3) Musiqa ijrosida tovush balandligini aniq ifoda etish. 4) Musiqa asboblarining tovushqatoridagi tonlarni balandlik va tembr jihatdan aniq aks ettirish.

**KAMYERTON** (nem. kammerton, kammer – uy, xona, ton–tovush) – muayyan balandlikka ega bylgan va aniq tovush beruvchi maxsus asbob. K. ijrochilik amaliyotida cholg‘u asboblar, orkestrlar va xor jamoalarini sozlashda balandlik etaloni. Odatda birinchi oktava “lya” tovushiga moslanadi. Ba’zan xonandalar va xor dirijyorlari ikkinchi oktava “do”ga moslangan K.dan ham foydalanishi. Gammadagi barcha tovushlarni, shuningdek uchtovushliklarni ifodalaydigan K. ham bor. K. 1711 y.da ingliz J.Shor tomonidan ixtiro qilingan. 1936 y.dan 440 gts (1858 y.dagi 435 gtsli Parij K.idan 1/10 tonidan yuqori bo‘lgan)ga teng K. qabul qilingan.

**KANTILENA** (lot. cantilena – ashula) – 1) Kuyning va umuman musiqaning yoqimli, ravon ijrosi; izchil legato usulida tuzilgan tovushlar yo‘nalishi. Unli tovushlarni tekkis

yo‘naltirish, aniq talaffuz etish evaziga erishiladi. 2) Ovoz yoki cholg‘ularning serohang kuyi.

**KOLORATURA** (lot. coloro – bezayman) – tez ijro etiluvchi virtuozi passajlar va musiqa bezaklari. Qadimiy xor musiqasida va XVIII a. italyan operasida ko‘p qillanilgan. K. shuningdek, ovozning harakatga layoqatliliginini bildiradi (koloraturali soprano atamasi ham shundan kelib chiqqan). Har qanday xor ovozning (shuningdek basning ham) virtuozi darajadagi harakatchanligi xor tarkibi uchun maqsadga muvofiqdir, zero u yengil va aniq sadolanishni shakllantirishga yordam beradi.

**KUYLASH TONUSI** (lot. tonus – kuchlanish) – xonanda kuylash apparatining faol holati, uning ijroga tayyorligi. K.t.ni shakllantirish yo‘llari – o‘zlashtirilayotgan asarga qiziqish, kuylash xohishini hosil qilish, mashg‘ulot jarayonini yaxshi kayfiyatga yo‘naltirish va b.

**LAD** (slav. – uyg‘unlik, tartiblilik) – parda; turli balandlikdagi musiqa tovushlarining tizimli munosabati. Turg‘un pog‘onalarning noturg‘unlari bilan o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi. L.dagi eng turg‘un, tayanchli pog‘ona – tonika bo‘lib, u asosiy tonallikni belgilaydi. Tovushlar (pog‘onalar) soni, intervallar nisbati, ifodalik imkoniyatlari b–n farqlanadigan ko‘p L.lar mavjud (masalan, zamonaviy L. – tabiiy va garmonik major; tabiiy, garmonik va melodik minor; xalq musiqasining, diatonik L.lari: ioniy, doriy, frigi, lidiy, miksolidiy, eoliy, lokriy; pentatonika va b.). Xonandalar tomonidan L. qonuniyatlar to‘g‘ri his etilishi – xor sozini tuzish, ijroning ifodaliliginini oshirishdagi muhim omillardan biri..

**LADTONALIK** – ma’lum tonallikda ifodalangan lad. Tonallikni aniqlashda tonikani va lad og‘ishlarini aniq o‘rnatish kerak. Mas., Do major, lya minor va h.k.

**LYUFTPAUZA** (nem. luftpause – havo to‘xtami) – musiqa asarini ijro etish jarayonida qisqa muddatli to‘xtash. Yangi jumla, lavha, qism boshlanishini ajratish uchun ishlatiladi. Notalarda ba’zan vergul bilan belgilanadi, odatda yengil nafas bilan amalga oshiriladi.

**MEDIUM** (lot. medius – o‘rta) – vokal pedagogikasi termini; ayollar ovozi diapazonining o‘rta qismini ifodalaydi. Ayollar ovozi M.- mikst xususiyatga ega: sopranoda birinchi oktavadagi “fa”-dan ikkinchi oktavadagi “fa”-gacha, metstso-sopranoda tertsiyaga pastroq.

**MESSO-SOPRANO** (ital. mezzo – o‘rta) – soprano va kontralto oralig‘idagi ayollar ovozi. Diapazoni kichik oktava “lya” dan ikkinchi oktavadagi “lya”-gacha. An’anaviy xorda odatda birinchi alt partiyasini hosil qiladi, uch ovozli ayollar xorida esa ikkinchi yoki uchinchi ovoz tarzida kiritiladi.

**MIKST** (lot. mixtus – aralashgan) – ovoz registri, ko‘krak va bosh (faltset) registrlar oralig‘ida o‘tgan aralash turi. Ko‘krak registri tovushlaridan mayin, yengil, va faltsetga nisbatan o‘ta jarangdorligi bilan ajralib turadi. Erkaklar ovozida sadolanish ko‘proq ko‘krakka xos bo‘lsa, ayollarda bosh registr yetakchi o‘rin tutadi. M. xorning erkak ovozlarida ayniqsa muhim bo‘lib xususan tenorlarda birinchi oktava tovushlari M. bilan boyitiladi.

**MIMIKA** – inson his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi yuz muskullarining ifodali harakatlari. Ijroni yanada ta’sirli qilish uchun M. dirijyorga katta yordam beradi, zero qo‘l harakatlari b-n asar mazmunini to‘la ko‘rsatish imkonini yetarli emas. Dirijyor nazari, ko‘z, yuz M.-lari ijob etiladigan musiqaga mos kelishi kerak.

**MUTASIYA** (lot. mutatio – o‘zgarish) – balog‘atga yetish davrida bolalar ovozining - kattalar ovoziga o‘tishi. M.ning yosh chegaralari 10(12)-16(17) yosh. O‘g‘il bolalarda bo‘g‘iz va ovoz paylarining o‘sishi tufayli M. keskin ro‘y beradi. M. davomiyligi turlicha bo‘lib, bir necha haftadan - to bir necha yil davomida sodir bo‘ladi. Qizlarda M. kam seziladi (odatda o‘g‘il bolalarnikiga o‘xshab intonatsiyaning aniqligida namoyon bo‘ladi), ularning ovozi kamroq o‘zgaradi.

**NAFAS BELGISI** (vergul, yoki “V” belgisi) – barcha vokal asarlar nota yozuvi (xor partitura, partiya)da nafas almashuvi belgisi. Shuningdek, musiqa iborasi ustiga qo‘yilgan liganing oxiri ham shunday belgi vazifasini bajaradi.

**OVOZ** – 1) Ovoz apparati tomonidan talqin etiladigan tovushlar; odamlarning o‘zaro muloqotiga xizmat qiladi. O. - nutqiy, kuylash, xonish tarzida bo‘lishi mumkin. 2) Garmonik yoki polifonik xor musiqasida har bir kuychan yo‘nalish (chiziq). 3) Xor, ansambl, orkestrdagi alohida partiya. 4) Xor va orkestr partiturasidagi alohida partiya – O.lar.

**OVOZ APPARATI** – ovoz va nutq tovushlarini hosil qiladigan organlar tuzilmasi, unga: 1) ovoz pardalari (to‘qimalari) ostida havo bosimini hosil qiluvchi nafas organlari, tovush sadolari manbai; 2) tovush tebranishlarini hosil qiluvchi ovoz

pardalarini o‘z ichiga olgan xalqum-hiqildoq to‘qimasi; 3) aniq nutq tovushlarini hosil qiluvchi talaffuz apparati; 4) ayrim musiqa tovushlarni hosil qiluvchi burun (va b. organlar) bo‘shliqlari kiradi. O.a. bosh miya qobig‘ining tegishli bo‘limlarida hosil bo‘ladigan tovush tasavvur etishiga javoban, hamisha o‘zining barcha qismlari bilan o‘zaro aloqada ishlaydi.

**OVOZ GIGIYENASI** – ovoz apparati sog‘lomligini saqlashda xonandaning ma’lum axloq qoidalariiga rioya qilishi. Ovoz apparatiga beriladigan yuk uning malakalik darajasiga mos bo‘lishi kerak. Ushbu ovozga tessiturasi mos bo‘lmagan, tanaffussiz uzoq kuylash, yuqori notalarni suiiste’mol qilish, zo‘riqishlarga yo‘l qo‘yilmaydi. O.g. hayotiy tartib va umumiyy gigiena qoidalari bilan bevosita bog‘liq. Xonandaning o‘ziga xos xususiyatlarini bilgan foniatr tomonidan uning ovoz apparati sog‘lomligi davriy kuzatib borilishi muhimdir.

**OVOZ YO‘NALISHI** – 1) Ko‘p ovozli asardagi har bir ovoz harakati. 2) Harakatdagi bir necha ovozlarning o‘zaro munosabati. Turli – to‘g‘ri (bir yo‘nalishdagi harakat), parallel (bir xil atalgan intervallar harakati), qiya (ovozlardan biri o‘rnida qoladi), qarama–qarshi O.y.larining farqlanishi shundan. Polifonik bayonida O.y. mustaqil va teng huquqli bo‘lib, gomofonli – garmonikda kyiproq bosh ovozga bo‘ysundirilgandir. O.y.ning qulayligi xor kuylashda, ayniqsa, uni sozlashda katta ahamiyatga ega. Bunda ovoz ohangining lad aniqligi va uning kuylash qobiliyati (tessitura qulayligi, mayinlik, sakrashlar tayyorligi, matnni mohirona qo‘llash) muhimdir.

**OVOZ TOVUSHI NUQSONLARI** – kuylashdagi tovush nuqsonlari: xalqumli ovoz, “ochiq” (“oq” tovush) ovoz, tovushni jadallashtirish, sozdan chiqish, manqalik, burunli sado, ovozni tebratish yoki tremolyatsiya, jamlanmagan, tayanchsiz tovush. Barcha nuqsonlar, qoidaga ko‘ra, orttirilgandir. Bular paydo bo‘lishning asosiy sabablari mustaqil mashg‘ulotlar va noto‘g‘ri o‘qish natijasida paydo bo‘lgan noto‘g‘ri kuylash malakasidir.

**OVOZNI QIYISH** – professional ijro uchun ovozdagi zaruriy sifatlarni rivojlantirish jarayoni. Ifodaviy kuylashga individual o‘rganish jarayonini bildiradi. Ovoz sahna ishlari, notiq nutqi, kuylash uchun tartibga qo‘yilishi mumkin. Tyig‘ri qayyilgan ovoz barcha diapazon (registrlar uyg‘unligi)da ravonlik, jarangdorlik, unlilar niqobdorligi,

tembr go‘zalligi, egiluvchanlikka ega bo‘ladi. O.q. metodikasi nafas, artikulyatsiya apparati, rezonatorlardan foydalanishning umumiy qoidalariga tayanadi.

**REGISTR** (lot. registrum – ro‘yxat, sanoq) – ma’lum tessitura oralig‘idagi o‘ziga xos tovush tembri b–n ajralib turuvchi ovoz diapazoni qismi. Kuylash diapazonidagi baland tovushlar - yuqori yoki bosh R., pastki tovushlar – pastki yoki ko‘krak R. deb ataladi. Shuningdek, mikst - ya’ni o‘rta yoki aralash R. ham mavjud bo‘lib, xonanda o‘zining o‘rta diapazonida kuylaganida bosh va ko‘krak rezonatorlaridan foydalanadi. Erkaklar ovozida ikkita – ko‘krak va bosh R.lar bor. Sof bosh notalari - faltset yoki fistula deyiladi. Ko‘krak R.i ovozning pastki qismiga tegishli bo‘lib, uning tovushlari erkin, “quyuqroq” sadolanadi. Ayollar ovozida uch – ko‘krak, aralash va bosh R.lar mavjud. R.larni aralashtirish jarayonini tovushni yarim yopiq va yengil xususiyatlari ta’minlaydi. “Xor tovushi – bu yarim yopiq tovush ekanligini yodda tutish lozim”, – degan P.G.Chesnokov. Bunda og‘iz bo‘shlig‘i katta rol o‘ynaydi. Tovush bo‘g‘izdan chiqib, og‘izning tebratuvchi bo‘shlig‘idan o‘tib borib yarim yopiq, (yumaloq) sadolanuvchi deb ataladigan xususiyat va tuslarga ega bo‘ladi. Yumaloqlash yuqori tanglayni imkon qadar baland ko‘tarilishi b–n erishiladi, shu tufayli og‘izning rezonator bo‘shlig‘i kengayadi va gumbaz shaklini oladi.

**RYEZONATORLAR** (lot. resono – aks-sado) – ovoz paylarida hosil bo‘ladigan zaif tovushlarga kuch, jarangdorlik, o‘ziga xos tembr beradigan ovoz apparati (to‘qimalari) majmui. R. yuqorigi (bosh) va pastki (ko‘krak) qismlardan iborat. Bo‘g‘izdan yuqorida joylashgan bo‘shliq – qattiq tanglay, tishlar, burun bo‘shlig‘i, peshona, yuz suyaklari – bosh R. Bo‘g‘izdan pastda joylashgan bo‘shliq – ko‘krak qafasida to‘plangan (traxeya, bronxlar) ko‘krak R.larni hosil qiladi. Bundan tashqari R. harakatchan (shaklini, hajmini o‘zgartiradigan, bo‘g‘iz va og‘iz bo‘shliqlari – boshqaruvga boy bergen) va harakatsiz (burun va qo‘shimcha bo‘shliqlar, traxeya, bronxlar) larga bo‘linadi. Har bir xonanda R. faoliyatini tabiiy sezgilar b–n nazorat qilib, o‘zida tekshirib ko‘rishi mumkin. Bosh R.larni to‘g‘ri qo‘llaganda qansharga tegilgan chog‘da boshning R. qismi tebranishlari seziladi. Ko‘krak R.ni to‘g‘ri qo‘llaganda ko‘krak qismi tebranadi – buni qo‘lni ko‘krak qafasi ustiga qo‘yib sezish mumkin. R.dan foydalanishning to‘g‘riligini aniqlovchi eng to‘g‘ri mezon kuylash paytidagi xonandaning shaxsiy eshitish nazoratidir. Bosh R.

asosan baland tovushlar uchun, ko‘krak R. esa pastki tovushlar uchun belgilanganligini bilish lozim.

**REPERTUAR** (lot.repertorium, fr.repertoire – ro‘yxat) – turli kontsertlarda ijro etiladigan yoki musiqiy ta’lim jarayonida o‘rganiladigan asarlar majmui. Tug‘ri tanlangan R. – har bir ijrochi, ansambl, orkestr, xususan xor jamoasining muvaffaqiyatli faoliyatida o‘ta muhimdir. R. – badiiy jihatdan barkamol, xorning yo‘nalishiga mos, rang-barang va qiziqarli bo‘lishi, pedagogik jihatdan esa mantiqan o‘rinli tuzilishi kerak.

**REPETISIYA** (lot.repetitio – takrorlash) – mashg‘ulot, tayyorgarlik, kontsert programmasi yoinki spektaklni tayyorlashda dirijyor (shuningdek, rejissyor va b.) ning ijrochilar bilan o‘tkazadigan tayyorlov mashg‘ulotlari. Xonandalar yoki xor ishtrokidagi R., shuningdek umumiy xor mashqi (spevka) deb ataladi. R. – asar mazmuni bilan belgilanadigan ijro g‘oyasini asta–sekin mujassamlashtiruvchi an’anaga aylangan jarayon. R.lar asarning murakkablik darjasи, muayyan xor uchun qo‘yiladigan talabga muvofiqligiga ko‘ra, dastlab partiyalar, so‘ngra guruhlar va butkul jamoa bilan o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Yakuniy R. – general (hal qiluvchi) R. deb ataladi.

**RECHITATIV** (it. recitare – ovoz chiqarib o‘qish, deklamatsiya qilmoq) – vokal musiqa turi, intonatsiya va ritm jihatidan oddiy yoki deklamatsiyali bo‘lib, so‘zlarni qisqa, odatda nutqiy ohanglar talqin etadi. R. ritm jihatidan erkin holda yozilib, muayyan musiqiy tuzilmalari (ibora, jumla, davriya va b.)ga deyarli bo‘ysunmaydi. Yakkaxonlikdan tashqari, xor musiqasida, opera sahnalarida ham qo‘llanadi. R. bilan bir qatorda, unga yaqin tovush balandliklarida, ritmlarga asoslangan “nutqiy kuylash” deya nomlangan badiiy o‘qish (melodeklamatsiya) va nutqiy deklamatsiya turlari ham ishlataladi.

**RITM** (yunon. rythmos – moslik, bir tekis oqim) – tovushlarning uzun-qisqaliklari va urg‘ularning almashib kelishiga asoslangan musiqiy tushuncha. Har bir musiqa asari o‘z R.iga ega bo‘ladi; R.ning o‘lchovi va idrok etish vositasi metrdir. R.kuy bilan bir qatorda musiqaning ifoda va shakllantiruvchi asosiya tamoyillaridan biridir. R.ning ta’sirchanligi turli xil harakatlarga bog‘liq. R. va metr kuyning janr xususiyatlarini ham belgilashi mumkin, ular orasidagi musiqa tovushlarining vaqtinchalik shakllanishning qonuniyligini ko‘rsatuvchi o‘zaro chambarchas bog‘liqlik metroritm deb ataladi.

Ijroning metroritmik tomoni dirijyor ishorasining aniqligiga bog‘liq. Bunda ishora va kuylash orasida to‘liq ritmik uyg‘unlik bo‘lishi shart.

**SADOLANTIRISH** (intonirovanie) – musiqa tovushini ovoz yoki musiqa asbobida ma’lum ohangda qaytarish, ohanglashtirish.

**TESSITURA** (ital. tessitura – to‘qima) – harqanday cholg‘u yoki xonanda ovozining diapazoniga nisbatan kuy tovushlarni balandlik holati. T. past, o‘rta va baland bo‘ladi, shunga qarab, T.qulay va noqulay deyiladi. Kuylash uchun eng qulayi – o‘rta T., undan foydalana bilish ijrodagi ifoda vositalaridan biri.

**TOVUSH BALANDLIGI** – musiqa tovushiga xos xususiyat; tovush manbai (torlar, havo ustuni, ovoz paylari)ning tebranish tezligiga bog‘liq. Akustikada gerts (bir sekunddagi tebranishlar soni) b–n o‘lchanadi. Ma’lum tebranishlarga mos keladigan absolyut (mas., birinchi–oktavadagi “lya” - 440 gerts, kamerton balandligi namunasi bo‘yicha) va tovush intervallaridan kelib chiqib aniqlanadigan nisbiy tovush balandligi farqlanadi. Tovush balandligini idrok qilish doiraviy xususiyatga ega, ya’ni har bir tovush ma’lum tebranish doirasida belgilangan o‘lchov (chastota)laridan kichik (1/8 tongacha) chekinishlarda o‘zgarmas kabi turlari odat tusini olgan.

**TOVUSH YO‘NALISHI** – vokal san’atida kuy tovushlari, mas., kantilena, portamento, markato va b. tarzlarda sadolanishi bois, ovoz yo‘nalish turlarini belgilash uchun qo‘llanadigan atama. Kantilena – kuylashning eng asosiy T.y.dir. Ovoz hosil qilish bilan birga T.y.vokal usuli tushunchasi tarkibiga ham kiradi. Xor ijrochiligi turlicha vokal shtrixlari qo‘llanilib, musiqa xususiyati va uning bayoni tuzilishiga bog‘liq bo‘lgan T.y. usullari muhim o‘rin tutadi. T.y.ning uch asosiy usuli mavjud: legato- o‘zaro bog‘lab, ravon, staccato – qisqa- qisqa va non legato – aynan, bog‘lamay, ravonsiz. Barcha T.y. usullari xonandalarning nafasidan to‘g‘ri foydalana olish qobiliyatiga ega.

**TOVUSH KUCHAYTIRISH** (forsirovanie) (frants. force – kuch) – ovoz apparatini haddan ziyod kuchli, urg‘ulashtirib kuylash. Oqibatda ovozning tembr sifatini, sadolanishi tabiiyligi buziladi. Xorda ham tovushni kuchaytirib kuylash ansambl va soz sifati buzadi. T.k. ovoz paylaridagi katta havo bosimi, yuqori tovushlarni “himoya”lamasdan ijro etishdan yuzaga keladi. Dirijyor xonandalarga ovozni ma’lum “zahira” (hatto fortissimoda ham) b–n kuylashlarini eslatib turishi zarur.

**TOVUSH NI PARDALASH** (niqoblash) – kuylanadigan tovushga ayrim xiralashgan tembr, mayinlik, shu orqali teranlik baxsh etuvchi tushuncha. T.p.ning asosiy qoidalari: diapazon markazida tovushning mayinligi, o’tkinchi notalar ijrosida ovozni “dumaloq”lash, tovushni o‘rtacha kuch b-n va nafasni tekis chiqarish T.p.da og‘iz bo‘shlig‘ining orqa tomonida hosil qilinadigan yengil “esnash” holatidan foydalaniladi. Bunda hiqildoq kengayadi va erkin holatga keltiriladi, yumshoq tanglay bir oz ko‘tarilib, “gumbaz” shaklini oladi, natijada ovoz erkin va jarangdor bo‘ladi. Akademik kuylashda faqat pardalangan “niqobdor” tovushlardan foydalaniladi (ochiq tovush istisno tarzida, maxsus ijrochilik maqsadlarda qo‘llaniladi). Ammo tovushni haddan tashqari “niqobdor” qilmaslik kerak, zero ovoz tembri jarangsiz, xira bo‘lib qolishi mumkin. T.p. me’yorini pedagog, dirijyor o‘zining ichki eshitish qobiliyati va estetik didiga ko‘ra aniqlaydi.

**TOVUSHNI UZISH** (dirijyorlikda) – maxsus dirijyorlik ishorasi yordamida sadolash (bir ovoz, guruh, barcha ansambl)ni tugatish. T.u. aniqlik, birdan (bir vaqtida yuz berishligi), ijro etiladigan asar xususiyatiga mos kelishi kabi talablar qo‘yiladi. Odatda, auftakt harakati bilan bajariladi, shu orada uzish “nuqta”si juda muhim bo‘lib, u aniq, ravshan ko‘rinadigan bo‘lishi kerak. Uzish ishorasi xilma–xil, u ijro etilayotgan musiqa tabiat, dinamikasi, dirijyorning individualligiga va h.k.ga bog‘liq.

**TON** (yunon. tonos – kuchlanish, urg‘u, ta’kidlash) – 1) Muayyan balandlikka ega tovush, ya’ni musiqa tovushi. 2) Interval kattaligini belgilash o‘lchovi – butun ton. 3) Lad bosqichi. 4) Tovushning tembr sifati (mayin T., yorqin va h.k.). 5) Xorni kuylash oldidan ma’lum tonallikka sozlash. 6) Xorning umumiyligi yaxshi T.i ovozlar sifati qatori, b-n birga dirijyor olib boradigan vokal mashg‘ulotlari, eshitish qobiliyati va badiiy didi bilan bog‘liq bo‘lib, xilma–xil ovozli tembrlaridan - yagona tembr majmuidagi talqinga erishish mumkin.

**TON BERISH**, sozlash – dirijyor tomonidan ijro etiladigan jo‘rsiz pesaning tonalligiga xorni sozlash uchun bir yoki birnecha tovushlarni past ovozda dastlabki kuylanishi. Odatda bu tonika uchtovushlikdir, yoki boshlang‘ichakkording tovushlari yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga yunalgan xolda kuylab beriladi. T.b. kamerton (Lya yo Do) qo‘llaniladi. Ovoz b-n T.b. juda ehtiyyotlik b-n va aniq bajarish kerak. Bu yopiq ovoz bilan “u” yo “i” unlisi bilan qilingani ma’kul. Xor dirijyori ovozining sadosi

balandlik va soz jihatdan (akkordlarida) aniq bo‘lishidan tashqari juda sekin, tinglovchilar eshitmaydigan darajada amalga oshirilishi kerak, ko‘proq past ingichka ovoz (faltset)ni qo‘llagani ma’qul.

**FILIROVKA**, filirovanie (fr.filerunson - tovushni cho‘zish) – tovush kuchini o‘zgartirish, Forte-Pianodan yoki aksincha cho‘zilayotgan tovush dinamikasini ravon o‘zgartirish mahorati. F. tarzida kuylash nafasni to‘g‘ri egallahsga bog‘liq. F. malakasining mavjudligi tovush chiqarishning to‘g‘riliqi va tabiiyligi ko‘rsatkichidir.

**FONASIYA, TOVUSH HOSIL QILISHI** (yunon. phone – tovush so‘zidan) –kuylash va oddiy nutqda ovoz tovushini chiqarish; ovoz apparati harakati mahsuli. Kuylashda tovush ovoz paylari tebranishidan hosil bo‘lib, rezonator vositasida kuchayadi va tembri boyitiladi. Mioelastik nazariyasi (Garsiya, Myuller, Muzexold, Levidov)ga ko‘ra ovoz paylarining tebranish tezligi va kelgusi tovush balandligi ularning tortilish darajasi va olinayotgan havo kuchi b-n tartibga solinadi. F.da ovoz apparatining barcha tarkibiy qismlari ishtirok etadi. Kuylash jarayonida markaziy nerv sistemasi muhim o‘rin tutadi. Buni ashula o‘qituvchisi, xor rahbari hisobga olib, mashg‘ulotlarda ijobiy tuyg‘ularni qo‘llagan holda ijodiy muhitni yaratishi lozim.

**FONIATRIYA** (yunon. phone – tovush, iatreia – davolash) – tibbiyot bo‘limi, ovoz hosil qilish fiziologiyasi, ovoz apparati kasalliklari va ularni davolash bilan shug‘ullanadi. Shu bois, vrach–otolaringolog foniatr deb ataladi.

**FORMANTA** (lot. formans – hosil qiluvchi) – akustikada ma’lum bir chastotadagi qo‘sishma tovushlar, ovoz yoki cholg‘uning o‘ziga xos tembri, shu tufayli nutq tovushlari ham bir biridan farqlanadi. Asosan yuqori rezonatorlar ishlashi natijasada yuzaga keladi. Yaxshi (to‘g‘ma yoki qo‘yilgan) ovozda ikkita maxsus: yuqori (3000 gertsga yaqin) - ovozga jarangdorlik, yengillikni yaratuvchi va past (500 gertsga yaqin) – teranlik, niqobdorlik hosil etuvchi F.lar mavjud.

## **FOYDALANISHGA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR:**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. -T., O‘zbekiston, 1998.- 686 b.
2. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. -T., O‘zbekiston, 1998. - 480 b. 3.
- Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – T., O‘zbekiston, 1998. – 686 b.
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. Asarlar: 7 – jild. - T., O‘zbekiston, 1999. - 413 b.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori // Barkamol avlod orzusi. -T., Sharq, 1999.- 54-55 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch.-T., Ma’naviyat, 2008.- 167 b.
7. Muxamedova G. Xonandalik uslubiyoti asoslari ; 2007.
8. Дмитриев Л. Основы вокальной методики. М., 2000.
9. Rizayeva M. Yosh xonandaning kamoloti. Т., 2003.
10. Soy S. Akademik xonandalik. Qo‘rqmas Muhitdinov repertuaridan. Т., 2007.
11. Ермолаев В.Анатомия и физиология органов. М., 2002.
12. Мамиконян Т. Работа с высокими женскими голосами в классе вокального пения. Т., 2010.
13. Емельянов В. Развитие голоса, координация и тренинг. М.,2003.
14. Мамиконян Т. Микширование регистров в работе с тенорами в классе вокала.Т., 2010.
15. Janice L. Chapman, OAM, FG. Singing and teaching singing. 2012.
16. Elizabeth A.H. Green. The modern conductor.1997.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Гарсиа М. Школа пения. М., 1956.
2. Лебедев В. Обучение и воспитание молодого певца. Л., 1977.
3. Sharafiyva N. Xorshunoslik. Т., 1987.
4. Shamaxmudova B. Xor Lug‘ati. Т., 2009.
5. Shamaxmudova B. Xor fanlarini o‘qitish uslubiyoti. Т., 2016.
6. Kadirova S. Xorshunoslik. Т., 2015.
7. Sharafieva N. O‘zbekiston taronalari. Т., 2015.
8. Solomonova T. O‘zbek musiqasi tarixidan. Т., 1979.
9. А.Протасова и авторский коллектив кафедры хорового дирижирования ТГК.  
История вокального и хорового исполнительства в Узбекистане. Т., 1991.
- 10. O‘zbek muzikasi tarixi. Т., 1979.**

### **Internet saytlari:**

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.edu.uz>
3. <http://www.lex.uz>
4. <http://bookzz.org>
5. <http://booksee.org>
6. <http://www.625-net.ru>
7. <http://millionsbooks.org>
8. <http://www.wikipedia.ru>

*\*) O‘quv qo‘llanma ilovasidagi kompakt-diskda darslik, qo‘llanma, nota va maqolalar to‘plamlari kabi boshqa adabiyotlarning ham elektron versiyalari berilgan.*

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>
1. Xonandalik uslubiyoti asoslari fani taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari.....	7
2. Xonandalik uslubiyoti asoslari fanini o‘qitishdagi innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalar.....	8
3. Xonandalik uslubiyoti asoslari fani dasturining qisqacha tavsifi.....	9

## I BOB. XONANDALIK USLUBIYOTI ASOSLARI FANINI O‘QITISHNING NAZARIY MASALALARI

1.1. Xonandalik san’atining O‘zbekistonga kirib kelishi. Rus xonandalik maktabi va xonandalik san’ati.....	11
1.2. Ovoz apparati akustikasi va ovozni akustik tuzilishi. Kuylash pedagogikasi va uslubiyoti haqida.....	19
1.3. Individual-psixologik farqning xonandalik pedagogikasidagi o‘rni. Xonandaning eshitish qobiliyatini tarbiyalash va rivojlantirish.....	27

## II BOB. OVOZ APPARATI

2.1. Xonandaning ovoz apparati. Ovoz apparatining kuylash vaqtidagi ish faoliyati. Gavdani tik tutish.....	34
2.2. Nafas organlari anatomiysi. Nafas olish turlari.....	41
2.3. Kekirdak tuzilishi. Kuylash davomida xiqildoqning holati.....	45
2.4. Tovush hujumi. Ko‘krak va bosh rezonatorlari. Ovoz tayanchi.....	54
2.5. Xonanda ovozi va uning tavsifi. Registrlar. O‘tkinchi notalar va ovoz xarakatining ravonligi. Ovoz turini aniqlash.....	61
2.6. Kuylayotganda lab, til va yumshoq tanglay ish faoliyati. Xonandaning nutqi. Ovoz tarbiyalashning fonetik uslubi. Xonandaning hayot tarzi.....	69
Fan yuzasidan keyslar to‘plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar.....	75
O‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun testlar.....	90
Xulosa.....	95
Glossariy .....	97
Foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlar .....	117
Ilova: O‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun berilgan test savollarining javoblari	

## CONTENTS

<b>INTRODUCTION.....</b>	<b>4</b>
1. Priority directions for development of “Basis of Vokalic methodies” .....	7
2. Innovations and best foreign practices in teaching the subject of “Basis of Vokalic methodies” technique.....	8
3. Summary of the program of “Basis of Vokalic methodies”.....	9
<b>CHAPTER I. THEORETICAL ISSUES OF TEACHING THE BASIS OF VOCAL METHODS.</b>	
1.1. Integrations of vocal arts into Uzbekistan. Rassian vocal school and vocal art.....	11
1.2. Acoustics of voice apparatus and acoustic structure of voice. About singing pedagogy and methodology.....	19
1.3. Individual and psychological difference in pedagogy. Training and developing the hearing capacitiy of singer.....	27
<b>CHAPTER II. VOICE APPARATUS.</b>	
2.1. Voice apparatus of singer. Activity of the voice apparatus in singing. Holding the body straight.....	34
2.2. Anatomy of respiratory system. Types of breathing.....	41
2.3. Structure of the laryngeal prominence. Throat’s position during singing.....	45
2.4. Vois attack of a sound. Chest and head resonator. Base of voice.....	54
2.5. Voice of a singing and its characteristics. Registers. Temporary notes and Smoothness of their movement.....	61
2.6 Activities of lips, tongue and soft palate during singing. Speech of the singer. Phonetic method of training the voice. Lifestyle of the singe.....	69
Collection of study cases for the Suject, practical assignments, works.....	75
Tests of strengthening the material learned.....	90
Conclusion.....	95
Glossary.....	97
List of literature.....	117
Supplement: The correct answers on the offered tests	

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ .....</b>	<b>4</b>
1. Основные пути развития предмета “Основы вокальной методики” .....	7
2. Инновации и ведущие зарубежные опыты в обучении “Основ вокальной методики” .....	8
3. Краткое содержание программы “Основ вокальной методики”.....	9
<b>ГЛАВА I. ТЕОРИТИЧЕСКИЕ ЗАДАЧИ В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА ОСНОВЫ ВОКАЛЬНОЙ МЕТОДИКИ.</b>	
1.4. Пути развития вокального искусства в Узбекистане.....	11
1.5. Акустика голосового аппарата и акустическое строение голоса. О педагогике и методологии пения.....	19
1.6. Индивидуально-психологические особенности в вокальной педагогике. Воспитание и развитие вокального слуха певца.....	27
<b>ГЛАВА II. ГОЛОСОВОЙ АППАРАТ.</b>	
2.1. Голосовой аппарат вокалиста. Работа голосового аппарата в пении. Правильная постановка корпуса.....	34
2.2. Анатомия дыхательных органов. Виды дыхания.....	41
2.3. Строение трахеи. Работа гортани во время пения.....	45
2.4. Аттака звука. Грудной и головной резонатор. Опора звука.....	54
2.5. Певческий голос. Классификация голосов. Регистры. Переходные ноты и выравнивание регистров. Определение типа голоса.....	61
2.6. Работа губ, языка и мягкого нёба. Работа над дикцией. Фонетический метод воспитания голоса. Режим певца.....	69
Сборник кейсов. Практические занятия и способы изучения предмета.....	75
Тесты для закрепления пройденного материала.....	90
Заключение.....	95
Глоссарий.....	97
Список рекомендуемой литературы.....	117
Приложение: Правильные ответы на тесты	

**O‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash  
uchun berilgan test savollarining**

**JAVOBLARI**

<b>№</b>	<b>Test topshirig‘i</b>	<b>To‘g‘ri javoblar</b>
1.	Opera janrining vokal san’ati Rossiyaga qaysi chet el mamlakatidan kirib keldi?	Italiya
2.	Rus klassik vokal maktabi asoschisi kim?	M. Glinka
3.	O‘zbek musiqali teatrda qaysi muallif spektakllari sahnlashtirildi?	Barcha javoblar to‘g‘ri
4.	Birinchi Rus romanslari muallifi?	G.Teplov, F.Dubyanskiy
5.	O‘zbekistonda akademik va milliy yo‘nalishlarda kuylagan xonandalar?	Barcha javoblar to‘g‘ri
6.	F.Arayya boshchiligidagi italyan truppa nechanchi yilda Rossiyaga taklif etildi?	1735y.
7.	M.Glinkaga qadar Rus xonandaligi maktabining rivojiga hissa qo‘sghan bastakorlar?	D.Bortnyanskiy, A.Verstovskiy, A.Gurilyov
8.	1938 y. o‘zbek musiqali teatrda Ye.Brusilovskiy syujeti asosida qaysi operasi sahnlashtirildi?	“Yer-Targ‘in”
9.	Ilk “o‘zbek ko‘chma kontsert-etnografik truppa”si kim tomondan tashkil qilindi?	M.Qori-Yoqubov
10.	M.Ashrafiy va S.Vasilenkoning “Bo‘ron” operasidagi Bo‘ron partiyasi ilk marotaba kim tomonidan ijro etilgan?	K.Zokirov
11.	Ilk musiqiy asbob?	Inson ovozi
12.	Amplituda bu..?	Tebranish harakatinig kuchi
13.	Akustikada rezonator tushunchasi?	Yopiq muhitda joylashgan havo

		oqimi
14.	O‘zbekistonda akademik va milliy yo‘nalishlarda kuylagan xonandalar?	Barcha javoblar to‘g‘ri
15.	Eshitish qobiliyati bu..?	Miyaga atrof muhitda ro‘y berayotgan tovushli hodisalarni yetkazib beruvchi asosiy hissiy organ
16.	Passiv eshitish qobiliyati?	To‘g‘ri eshitish
17.	Aktiv eshitish qobiliyati?	Eshitilgan kuyni aniq kuylab berish
18.	Nafas olish turlari?	Ko‘krak (qovurg‘a), qorindan, ko‘krak osti (qovurg‘a diafragmalik), ko‘krak qorin (qovurg‘aning pastki qismi diafragmalik)
19.	Klassik ijroda ko‘p qo‘llaniladigan nafas turi ?	Ko‘krak osti- (qovurg‘a-diafragmalik)
20.	1833y chop etilgan “Shkola peniya”asari muallifi?	F.Yevseev
21.	Tovush xujumi?	Tovush xosil qilishdan oldingi holat
22.	Qanday tovush hujumida nafas chiqarishdan oldin ovoz pardalari jipslashib ketadi?	Qattiq
23.	Qanday tovush hujumida nafas chiqarish cho‘zimi berilagan asar tempning metro-ritm hissasiga teng?	Mayin
24.	1837y. “Metoda peniya” 1-2 asarlar muallifi?	G.Lomakin
25.	Qaysi organlar xonanda nutqi ravonligiga hizmat qiladi?	Lab, til, yumshoq tanglay, yutqin, jag‘

26.	Asosiy artikulyatsion organ?	Til
27.	Soprano partiyasining o‘tish notalari?	Mi <sup>1</sup> -fa-fa <sup>#</sup> va mi <sup>2</sup> -fa-fa <sup>#</sup> -sol
28.	Metstso-soprano partiyasining o‘tish notalari?	Do <sup>1</sup> -re-re <sup>#</sup> va do <sup>2</sup> -re-re <sup>#</sup>
29.	Tenor partiyasining o‘tish notalari?	Mi <sup>1</sup> -fa-fa <sup>#</sup>
30.	Bariton partiyasining o‘tish notalari?	Re <sup>1</sup> -mi <sup>b</sup> -mi
31.	Bas partiyasining o‘tish notalari?	Lya <sup>kich</sup> -si <sup>b</sup> -si-do-do <sup>#</sup>
32.	Diapazon?	Ovozning tovush xajmi
33.	Kuylayotganda soprano ovoz trubkasi uzunligi?	15.3 – 18.5 sm
34.	Kuylayotganda metstso-soprano ovoz trubkasi uzunligi?	16.7 – 18.3 sm
35.	Kuylayotganda tenor ovoz trubkasi uzunligi?	19 – 22 sm
36.	Kuylayotganda bas ovoz trubkasi uzunligi?	23.3 – 25 sm
37.	Soprano ovozining hiqildoq uzunligi?	1.4 – 1.9 sm
38.	Metso-soprano ovozining hiqildoq uzunligi?	1.8 – 2.1 sm
39.	Tenor ovozining hiqildoq uzunligi?	1.8 – 2.2 sm
40.	Bariton ovozining hiqildoq uzunligi?	2.2 – 2.4 sm
41.	Bas ovozining hiqildoq uzunligi	2.4 – 2.5 sm
42.	Xonandaning ovoz apparati nimalardan tashkil topgan?	Kekirdak, yutqin, burun yutqin, bronxlar, diafragma
43.	Nafas olish organlari nimalardan tashkil topgan?	Kekirdak, bronxlar, o‘pka, diafragma, nafas olish va chiqarish paylari
44.	Kekirdak nimalardan tashkil topgan?	Trubkasimon, ochiq yarim doira tog‘aylar, o‘ng va chap bronxlarga bo‘linib bronxial

		daraxtni hosil qiladi
45.	Bronxlar bu..?	U orqali havo o‘pkaga borib, o‘pka ko‘piklari gaz almashunuvini bajaradi
46.	Ovoz pardalari qaerda joylashgan?	Kekirdakda
47.	Erkaklar ovoz registri?	Ko‘krak va bosh (faltset)
48.	Ayollar ovoz registri?	Ko‘krak, bosh va markaziy
49.	Ayollar ovozi klassifikatsiyasi?	Soprano, metstso- soprano
50.	Psixologiya tushunchasiga ta’rif?	Insonning sub’ektiv dunyosi haqidagi ilm

**BARNO SHAXNAZAROVA**

**XONANDALIK USLUBIYOTI ASOSLARI**

O‘zbekiston davlat konservatoriysi talabalari uchun

o‘quv qo‘llanma

(o‘zbek tilida)